F. Vohidov

# O`ZBEKISTON TARIXI

## DARSLIK YUZASIDAN MAVZULI TESTLAR TO`PLAMI




JAVOBLARI BILAN

ZAXIRA FOND

*F.Vohidov*

# O`ZBEKISTON TARIXI

*(8-sinf)*

## *DARSLIK YUZASIDAN MAVZULI TESTLAR TO`PLAMI*

Toshkent
"Adabiyot uchqunlari" 2017

УДК: 94 (076.5)
ББК: 63.3 (62) 35

Muallif:*F. Vohidov*

Mas'ul muharrir:***E. Matyoqubov***

Taqrizchi:***oliy toifali tarix o'qituvchisi F. Sultonov***

Ushbu testlar to'plami 8-sinf O`zbekiston tarixi darsligi asosida mavzular ketma-ketligi, izchillik va mantiqiylik asosida tuzib chiqilgan. Bu kitob abiturientlar, umumta'lim maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, tarix faniga qiziquvchilar, shuningdek, tarix fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mazkur test topshiriqlari foydalanuvchilarga darslikni(tarix fanini) o'zlashtirish jarayonida o'z bilimlarini tekshirish, voqea-hodisalarni tahlil qilish va olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu testlar to'plamidan yuqorida ta'kidlab o'tilgan o'quv maskanlarida chorak, oraliq nazorat, yakuniy nazorat sinovlarida; olimpiada, "Bilimlarlar bellashuvi" va boshqa tanlovlarda foydalanish mumkin.

**ISBN: 978-9943-4659-1-2**

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/14- 98

© «Adabiyot uchqunlari», 2017
© Vohidov F, (muall.), 2017

## SO'Z BOSHI

**HURMATLI ABITURYENTLAR VA O'QUVCHILAR!!!**

Sizlarga yangi **"GOLD STAR BEST TEST"** turkumi ostida barcha fanlar bo'yicha tayorlangan ma'ruza va testlar to'plamdan iborat kitoblarni havola etamiz. Ushbu turkumdagi kitoblar **"GOLD STAR EDUCATION"** o'quv markazi o'qituvchilar tomonidan tayorlangan va mutaxassislar tomonidan nashr etishga tavsiya qilingan. Ushbu loyihaning boshqa loyihalardan farqi shundaki, bu turkumdagi barcha testlar va ma'ruzalar Respublikamizning Davlat ta'lim standartlari va Davlat test markazizning talab va takliflarini hisobga olgan holda tuzulgan.

Ushbu loyiha barcha fanlar bo'yicha O'zbekiston Respulikasi Davlat test markazi (DTM) tomonidan tavsiya etilgan darsliklar asosida **tarix, ona tili va adabiyoti, ingliz tili, matematika, fizika, kimyo, biologiya** fanlaridan tayorlangan mukammal, keng qamrovli, universal testlar va ma'ruzalar o'rin olgan.

**Ushbu tukrumdagi barcha ma'ruza va testlar to'plamining ustunlik tomonlari quyudagilar:**

Davlat test markazi (DTM) tomonidan tavsiya qilingan darsliklar asosida tuzulgan;
DTM talablariga moslik;
Mavzulashganlik va izchillik:
Mukammallik va batafsillik:
Keng qamrovlilik va universallik.

8-sinf O'zbekiston tarixi darsligi asosida tuzulgan **ushbu testlar to'plami "GOLD STAR BEST TEST" turkumidagi dastlabki kitobdir.** Ushbu 8-sinf O'zbekiston tarixi darsligida berilgan mavzular ketma-ketligi asosida tuzulib chiqilgan bo'lib, unda har bir bob, har bir poragraf bo'yicha batafsil test savollari o'rin olgan. Kitobdagi testlar soddalikan murakkablikka, izchillikka, taqqoslasliga, mantiqiylikka asdaslangan.

Mazkur test to'plamining yuqoridagicha tuzulishining sababi shundaki, ***Davlat test markazi tomonidan hozirgi davrda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida tarix fanidan tuzulgan test savollari yuqori darajali murakkablik va mantiqiylikka asoslangan. Ya'ni, DTM abituyentlarning nafaqat davrlar, voqea-hodisar, shaxslarni va statistik ma'lumotlarni bilishishini, balki mavzuni matn asosida mantiqiy to'g'ri tushunib, bilim va ko'nikmaga ega bo'lishini ham talab qilyapti.*** Shuni hisobga olgan holda ushbu to'plamga DTM talablariga mos bo'lgan yuqori saviyali testlar kiritilgan. Bunda o'quvchi avval darslikdagi mavzuni qunt bilan o'qib chiqib, so'ngra o'z bilimini ushbu kitobdagi test savollari bilan tekshirib bilimini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari qo'llanmaning oxirida ***xronologik taqqoslash testlari*** kiritilgan bo'lib, bunda o'quvchilar O'zbekiston va Jahon tarixida yuz bergan voqealarni bir-biriga taqqoslay olish ko'nikmasiga ham ega bo'ladi. Qo'llanma oxirida barcha testlarning javobi kiritilgan bo'lib, u siz olgan bilimingizni o'zingiz tomonidan mustaqil baholashingizga yordam beradi.

Aziz o'quvchilar, o'z bilimingizni sinab ko'rish hamda tarix fanidan o'zlashtirayotgan bilimlaringizni davom ettirish uchun mazkur turkumning keyingi nashrlarini sotib olishingizni tavsiya etamiz.

Ilm cho'qqilari sari qadam tashlayotganingizda Sizlarga **omad hamroh** bo'lsin!

# I- bob. MOVAROUNNAHR SHAYBONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA.

## 1- §. XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Xuroson va Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat.

1.1447 yili Shohrux vafotidan so'ng ...
A) Sulton Abulqosim Bobur Xuroson taxtini egalladi
B) Abdulatif Xuroson taxtini egalladi
C) Xuroson davlati bir necha qismlarga bo'linib ketdi
D) Shayboniyxon Xuroson taxtini egalladi

2. Temuriyzoda Sulton Husayn Bayqaro haqida ma'lumotlar noto`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang.
A) U Amir Temurning ikkinchi o`g`li Umarshayxning nabirasidir
B) Salkam 40 yillik hukmronligi davrida mamlakatda to`la osoyishtalik o`rnatilgan
C) Uning davrida Xuroson davlatining xo`jalik va madaniy hayoti ancha yuksak darajada rivojlandi
D) U mamlakat obodonchiligi yo`lida katta ishlar amalga oshirdi

3.1506-yil Sulton Husayn vafot etgach qaysi temuriyzodalar bir vaqtda hukmdor deb e`lon qilindi?
A) Sultonali va Badiuzzamon
B) Boysung'ur Mirzo va Muzaffar Husayn
C) Badiuzzamon va Muzaffar Husayn
D) Sulton Ahmad va Sulton Mahmud

4.Nechanchi yilda Xurosonda temuriylar davlatining qo'shhokimiyatchiligi vujudga kelgan?
A) 1506 yilda B) 1501 yilga kelib
C) 1458 yilda D) 1409 yilga kelib

5.Shayboniylar hujumi arafasida Xuroson davlatining nihoyatda kuchsizlanib qolishi nimaning natijasida yuz bergan?
A) Boburiy hukmdorlarining Xurosonni egallash maqsadida tinimsiz bosqinchilik yurishlari
B) Qo`shhokimiyatchilik tufayli Xuroson davlatining to`la parokandalikka olib kelinganligi
C) Buyuk ipak yo`lida hukmronlik masalasida doimiy raqobat
D) Eron safaviylarining g`arbiy sarhadlarga tahdid solishi

6. Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin Movarounnahrda toju taxt uchun kurashlarda kim g'alaba qozonib, Movarounnahr taxtini egallaydi?
A) Sulton Ahmad ibn Sulton Mahmud
B) Sulton Ali Mirzo ibn Sulton Muhammad
C) Halil Sulton ibn Mironshoh
D) Abu Said Sulton Muhammad

7.Abu Said Mirzo Amir Temurning qaysi o'g'li avlodi hisoblanadi?
A) Mirzo Jahongir B) Mironshoh
C) Umarshayx Mirzo D) Shohrux

8.Abu Said 1469-yilda urushda halok bo`lgach, hokimiyatni boshqargan hukmdorlarni ketma-ketligini to`g`ri ko`rsatgan holda qayd eting.
A) Sulton Mahmud - Sulton Ahmad - Boysung`ur Mirzo - Sulton Ali
B) Sulton Ahmad - Sulton Mahmud - Boysung`ur Mirzo - Sulton Ali
C) Sulton Ahmad - Boysung`ur - Mirzo Sulton Mahmud - Sulton Ali
D) Sulton Ahmad - Sulton Ali - Boysung`ur Mirzo Sulton Mahmud

9.Quyidagilardan tarixiy xatolikka yo`l qo`yilmagan javobni aniqlang.
A) Shayboniyxon tug`ilgan yili Mironshohning o`g`li Abu Said Movarounnahr taxtini egalladi
B) Abu Said vafotidan so`ng taxtni dastlab uning o`g`li Sulton Ahmad so`ngra nabirasi Sulton Mahmud boshqardi
C) Bobur Mirzo Amir Temurning uchinchi o`g`li Mironshohning chevarasi edi
D) Mironshohning o`g`li Umarshayx Mirzo 1455-1494-yillarda yashagan

10. Quyidagilardan Angliya tarixida „Qizil va oq gullar" urushi nomini olgan urush boshlangan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.
A) Usmonlilar sultoni Mexmet II taxtga o'tirdi

B) Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movarounnahrga bostirib kirdi
C) Umarshayx Mirzo tug'ildi
D) Movarounnahr taxtiga Sulton Mahmud o'tirdi

11.Umarshayx Mirzo Farg'onaga hukmdor bo'lishidan oldin qayerda hokim bo'lgan?
A) Toshkentda B) Samarqandda
C) Kobulda D) Buxoroda

12.Abu Said Mirzo o'z hukmronligi davrida Umarshayx Mirzoni qaysi viloyatlarga hokim etib tayinlagan?
A) dastlab Farg'ona, so'ngra Xo'jand va O'ratepaga
B) dastlab Qobul, so'ngra Toshkentga
C) dastlab Qobul, so'ngra Farg'onaga
D) dastlab Farg'ona, so'ngra Toshkent va Sayramga

13. Farg'ona hokimi bo'lgan Umarshayx Mirzoga Sulton Ahmad tomonidan qo'shib berilgan hududlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) Toshkent va Sayram
B) Toshkent va Turkiston
C) Qobul va Qandahor
D) Toshkent va Shohruxiya

14.O`zaro ichki kurashlar natijasida Umarshayx Mirzo qo`l ostida faqat...
A) Toshkent, Sayram va Farg`ona qolgan
B) Farg`ona, Axsi va Andijon qolgan
C) Qobul, Farg`ona va Xo`jand qolgan
D) Farg`ona, Xo`jand va O`ratepa qolgan

15.Bobur Mirzo dastlab davlat ishlarini kimning yordamida boshqardi?
A) tog'asi Sulton Mahmudxon
B) Shoh Ismoil
C) amakisi Sulton Ahmad Mirzo
D) onasi Qutlug' Nigorxonim

16.Quyidagi tarixiy shahslardan Boburning ishonchli beklaridan birini aniqlang.
A) Muhammadqozi B) Umarqozi
C) Hojiqozi D) Qorachabek

17.XV asr oxirida quyidagi Temuriy hukmdorlarni o'zlari hukmron bo'lgan hududlari bilan muvofiqlashtiring.
1) Andijon; 2) Samarqand; 3) Toshkent; 4) Hirot;
a) Boysung'ur Mirzo; b) Sulton Mahmudxon; c) Bobur Mirzo; d). Sulton Husayn Boyqaro
A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d
C) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

18.Ma'lumki, 1496-yilning iyun oyida Bobur Mirzo Samarqand shahrini egallash maqsadida ittifoqchilari bilan uni qamal qilishga tutinadi. Bobur Mirzo ushbu qamalni to'xtatishining asosiy sababini aniqlang.
A) qish yaqinlashib qolganligi tufayli ittifoqchi shahzodalar qamalni to'xtatib, yurtlariga qaytishga majbur bo'lganlar
B) Samarqand hokimi Boysunqur Mirzo Buxoro va Xorazm hukmdorlari bilan ittifoq tuzib, katta qo'shin chaqirgan edi
C) Bobur Mirzo va uning tog'asi, Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon o'rtasida kuchli ixtilofpaydo bo'lgan edi
D) Samarqandda jangga o'rgatilgan 50 ta 61 bo'hb, ular qamalni bartaraf etishga qodir edilar

19. Samarqandni qo'lga kiritish uchun Bobur Mirzo ikkinchi marta qachon yurish qilgan?
A) 1496 yil noyabrda B) 1496 yil iyunda
C) 1497 yil mayda D) 1496 yil sentabrda

20. Bobur Mirzo Samarqandga ikkinchi marta yurish boshlab Samarqandni qamal qilganda, Boysung'ur Mirzo nima sababdan Shayboniyxondan yordam so'raydi?
A) Shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi yuz berib, askarlar orasida parokandalik ro'y berganligi sababli
B) Boysung'ur Mirzo qo'shini kam edi, bu qo'shin bilan Bobur Mirzoni yengish mushkulligi sababli
C) Shahar ichida otlarga o'lat kasalligi tekkan bo'lib, u odamlarga ham yuqishi mumkinligi sababli
D) Bobur Mirzo Boysung'ur Mirzoni hiyla orqali mag'lubiyatga uchratishini bilib qolganligi sababli

21. Bobur Mirzodan yengilib, Samarqanddan chiqib ketgan (1497-y.) Boysung'ur Mirzo qayerga qochdi?
A) Qunduzga B) Qarshiga
C) Qobulga D) Balga

22. Bobur Mirzo Samarand taxtiga birinchi marta egal-laganida Qunduz hukmdori kim edi?
A) Sulton Ali Mirzo B) Xurzod
C ) Xusravshoh D ) Badiuzzamon

23.Bobur Mirzo Samarqandga ikkinchi marta yurish qilganda Samarqand qamali qancha vaqt davom etdi?
A) 3 oydan ortiq B) 5 oyga yaqin
C) 7 oydan ortiq D) 4 oyga yaqin

24."Hamma bir-biridan qo'rqar edi. O'zlaricha shohlik talab qilib mamlakatda ig'vo urug'ini sochardilar". Toju-taxt uchun kurash ketayotgan davr haqidagi ushbu ma'lumot qaysi muarrix qalamiga mansub?
A) Xoja Hasan Nisoriy
B) Muhammad Solih
C) Hofiz Ko'hakiy
D) Zahiriddin Muhammad Bobur

**2- §. Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol. Muhammad Shayboniyxon.**

1.Qachondan boshlab va qaysi manbalarda "Dashti Qipchoq" deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi?
A) IX asrdan fors va arab manbalarida
B) X asrdan yunon va rim manbalarida
C) XI asrdan arab va fors manbalarida
D) XII asrdan rus va xitoy manbalarida

2.Dashti Qipchoq geografik hududi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yonbag'irlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho'zilgan hudud
B) Ural daryosidan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha va Afg'onistonning shimoHy qismiga qadar cho'zilgan hudud
C) Sirdaryoning yuqori oqimi va Pomirning sharqiy yonbag'irlaridan Kavkazning shimoliy hududiga qadar bo'lgan hudud
D) Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hudud va Qozog'istonning janubiy qismi

3.Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismlarga ajratib turuvchi tabiiy chegarani aniqlang.
A) Volga daryosi
B) Sirdaryoning yuqori oqimi
C) Norin daryosi D) Ural daryosi

4.Qaysi daryo Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismlarga ajratib turadi?
A) Volga daryosi B) Dnepr daryosi
C) Yoyiq daryosi D) Oka daryosi

5.Rus manbalarida Dashti Qipchoq hududi va u yerda yashagan aholi qanday nomlangan?
A) hududi - "Kumanlar yeri", aholisi - "kumanlar"
B) hududi - "Dashti Qipchoq yeri", aholisi - "qipchoqlar"
C) hududi - "Qipchoqlar yeri", aholisi - "qipchoqlar"
D) hududi - "Polovetslar yeri", aholisi - "polovetslar"

6. Rus manbalarida "Poloveslar yeri" deb yuritilgan hududni aniqlang.
A) Dashti Qipchoq B) Chaqmoqli
C) Yakka Porson D) So'g'diyona.

7.Vizantiya tarixchilari qipchoqlarni qanday atashgan?
A) kumanlar B) poloveslar
C) pecheneglar D) kimonlar

8. Dashti Qipchoqning .... qismi aholisi o'zbeklar deb atalgan.Nuqtalar o'rnini to'ldiring.
A)Shimoliy B)Janubiy C)Sharqiy
D)G'arbiy

9.Tarixiy manbalarda "O`zbek ulusi" deb atalgan davlatning asoschisi Abulxayrxon kimning naslidan bo`lgan?
A) Jo`jixonning uchinchi o`g`li No`g`ay avlodidan
B) Jo`jixonning beshinchi o`g`li Shaybon avlodidan
C) Botuxonning nabirasi O`zbekxon avlodidan

D) Chingizxon avlodidan O'zbekxonning nabirasi

10.1428-yilda Abulxayrxon ...egallab, alohida davlatga asos soladi.
A) G`arbiy Dashti Qipchoqni
B) Sharqiy Dashti Qipchoqni
C) Sirdaryo bo`ylarini
D) Volga daryosi bo`ylarini

11.Abulxayrxon dastlab temuriylarga rasman qaram bo`lgan ... hujum qilgan.
A) Turkistonga B) Tarozga C) Xorazmga
D) Astraxanga

12.1446-yilda Abubxayrxon tomonidan bosib olingan shaharlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Sig'noq, Jand, Arquq, O'sh, Suzoq
B) Oqqo'rg'on, Farg'ona, O'zgan, Sig'noq
C) Sig'noq, Oqqo'rg'on, Arquq, O'zgan, Suzoq
D) Arquq, O'sh, O'zgan, Oqqo'rg'on, Suzoq

13.1446 yilda Dashti Qipchoq hukmdori Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimidagi shaharlarni bosib olib, o'z davlati poytaxtini qayerga ko'chirgan edi?
A) Sig'noqqa B) Arquqqa C) Suzoqqa
D) Turaga

14.Abulxayrxonning temuriylarga qarshi kurashga kirishganligi quyidagi qaysi voqeada o'z tasdig'ini topgan edi?.
A) Abu Said Mirzoga Samarqand taxtini egallashga yordam berishi
B) O 'z davlatining poytaxtini Turadan Sig'noqqa ko'chirdi.
C) Abulxayrxonning temuriylarga rasman qaram bo'lgan Xorazmga hujum qilishi
D) Sirdaryoning o'rta oqimidagi shaharlarning bosib olinishi

15.Abulxayrxon o'z davlati poytaxtini Turadan qaysi shaharga ko'chirgan?
A) Marvga B) Suzoqqa C) Sig'noqqa
D) Oqqo'rg'onga

16.Abulxayrxon 1451-yilda qaysi temuriy shahzodaga Samarqand taxtini egallashda yordam berdi?
A) Sulton Ahmad Mirzoga
B) Sulton Abu Saidga
C) Sulton Mas'ud Mirzoga
D) Sulton Ah Mirzoga

17.1451-yilda Abdulxayron temuriyzoda Abu Said Sultonga Samarqand taxtini egallashga yordam beradi. Minnatdorchilik tariqasida Abu Said Sulton...
A) Abdulxayrxonga Xuroson davlatini berdi
B) o`z qizini xotinlikka berdi
C) Abdulxayrxon nomini xutbaga qo`shtirdi
D) Ulug`bekning qizi Robiya Sultonbegimni Abdul-xayrxonga xotinlikka berdi

18.Ulug'bek Mirzoning Abulxayrxonga uzatilgan qizi Robiya Sultonbegimning o'g'illari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) Abu Saidxon, Boysung'ur Mirzo
B) Ko'chkunchi Sulton, Suyunchxo'ja
C) Sulton Ali Mirzo, Umarshayx
D) Yunus Xo'ja, Burunduq Sulton

19. Dashti Qipchoqda tashkil topgan "O'zbek ulusi" necha yil umr ko'rdi?
A) 40 yil B) 45 yil C) 50 yil D) 55 yil

20. „Boburnoma" asarida Shayboniyning ismi nima deb berilgan?
A)Shoyboqxon B)Sheboni C)Sheybekxon
D)Shohbudoq

21."Boburnoma" asarida Muhammad Shayboniyxon ismi qanday berilgan va bu ism qanday ma'noni anglatadi?
A) "Shohibek", "ulug', kuch" ma'nosini
B) "Shoybek", "kuch-qudrat" ma'nosini
C) "Shohbaxt", "buyuk" ma'nosini
D) "Shoyboqxon", "kuch-qudrat" ma'nosini

22.Muhammad Shayboniy otasiga otaliq qilgan shaxsni aniqlang
A)Muhammad Mazid B)Hojiqozi
C)Shayx Abdulla D)Boyshayx

23.Quyidagi tarixiy shaxslardan qaysi biri Shohbudoq sultonga otaliq qilgan amir hisoblanadi?
A) Hasan Murod B) Muhammad Mazid
C) Murodshayx D) Boyshayx

24.Muhammad Shayboniyxonga homiylik qilgan nufuzli temuriy amirni aniqlang.
A) Darvish Muhammad Tarxon
B) Sulton Ali Mirzo
C) Sulton Ahmad Mirzo
D) Muhammad Mazid Tarxon

25.XV asr oxirlarida Turkiston va O`tror hukmdorini aniqlang.
A) amir Berdibek B) Shayx Nuriddin
C) Sulton Ahmad Mirzo
D) Muhammad Mazid Tarxon

26.Shayboniyxon bobosining davlatini tiklash yo`lidagi xatti-harakatini dastlab nimadan boshlagan?
A) ukasi bilan Buxoroda yashab ilm-fan o`rganishdan
B) o'z homiysi Muhammad Mazid tarxon mulklarini tortib olishdan
C) o'z qo'shini bilan temuriylarga yollanma qo'shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan
D) Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzoning o`ldirishdan

27.Turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga qanday imkon berdi?
A) Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olishga
B) o`z qobiliyatini oshirish
C) qo`shin lashkarboshisi darajasiga yetish
D) qo`shni davlatlarda o`z ta'sirini oshirishga

28.Qaysi davrga kelib Shayboniyxon bobosi Abulxayrxon vafotidan keyin parokanda bo'lib ketgan qabilalarni birlashtirdi va beayov qonli urushlar natijasida davlatni qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi?
A) XV asr boshida
B) XV asrning 80-yillarida
C) XVI asr o'rtalarida
D) XV asrning 20-yillarida

29. Muhammad Sayboniyxon bobosi Abulxayrxonning davlatini tlklash yo'lidagi harakatini dastlab nimadan boshlagan?
A) Temuriylar davlatining ichki ahvolini o'rganishdan
B) o'z qo'shinini bilan temuriylarga yollanma qo'shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan
C) yaxshi qurollangan muntazam piyoda askarlar qo'shinini tuzishdan
D) Dashti Qipchoqdagi qabilalarni o'ziga bo'ysundirishdan

30.Shayboniyxonga nima kelgusida Movarounnahrni istilo qilishda tayanch vazifasini o`tagan?
A) ko`chmanchi qabilalarining chegaradagi ovullar
B) Sirdaryo bo`yidagi qo`rg`onlar
C) Orol bo`yidagi qishloqlar
C) Temuriylar qurgan chegara qal'alar

31.Qachondan Dashti Qipchoqning sharqiy qismi aholisi o'zbeklar deb atala boshlangan.
A) XIV asrning 40-yillaridan
B) XIV asrning 60- yillaridan
C) XV asrning 80-yillaridan D) XVI asrdan

### 3- §. Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hokimiyatining o'rnatilish.

1.Dashti Qipchoq qabilalarining Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlashining asosiy sababini aniqlang.
A) o'sha vaqtda mavjud o'zaro qirg'inlar takrorlanishining oldini olish, o'troq tarzda yashash orzusi va bu orzuning amalga oshishida Shayboniyxonni yetarli qudratga ega deb hisoblash
B) o'troq o'lkalardagi yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi qabilalar bilan bo'lgan adovatni yengishda Shayboniyxonning kuch-qudrati yetarliUgiga ishonchning pay do bo'lishi, temuriylarning Dashti Qipchoqqa hujum qilishi oldini olishga ishonch
C) temuriy shahzodalar o'rtasidagi adovat Dashti Qipchoq xalqlari hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi va qabUalarning Shayboniyxon timsolida Eron va arab mamlakatlarini bosib olishga ishonch hosil qilishi
D) Abulxayrxon boshlab bergan ishni nihoyasiga yetkazishda Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlash, Dashti Qipchoqdagi aholini zich aholi hududlari-dan kengroq hududlarga va yaylovi bor joylarga ko'chirish muammosi

2. Dashti Qipchoq qabila rahnamolari hunarmandchiligi rivojlangan quyidagi qaysi o'lkada Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining o'rnatilishi o'troq hayotga o'tish imkonini berishini yaxshi bilganlar?
A) Xurosonda B) Xorazmda
C) Movarounnahrda D) Kavkazda

3.Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat edi?
1) Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Abul-xayrxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro qirg'inlarning yana takrorlanishini aslo istama-ganliklari; 2) Dashti Qipchoq qabilalarining o'troq hayot tarzida yashashni orzu qilishlari; 3) Dashti Qipchoq qabila-larining rahnamolari Muhammad Shayboniyxonni o'z orzularini ro'yobga chiqarishga birdan bir qodir qudrat deb hisoblaganliklari; 4) Muhammad Shaybo-niyxonning Movarounnahrdagi ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi; 5) Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va aholining ma'lum qismi Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganliklari; 6) Mo'guliston hukm-dorlari Movoraunnahrga harbiy yurishni har tamonlama qo'llab-quvvatlaganliklari;
7) Safaviylar davlatini kuchayishi.
A) 1, 2, 5, 7 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 5, 7
D) 1, 2, 3, 4, 5

4.Muhammad Shayboniyxonning asosiy maqsadi…
A) butun dunyoni islom dini bayrog'I ostida birlashtirish edi
B) Dashti Qipchoqda qudratli davlat tuzish edi
C) Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish edi
D) Buyuk Mo'g'ul davlatiga asos solish edi

5.Qachondan boshlab Shayboniyxon Movaro-unnahrni zabt etishga kirishgan?
A) 1497 yildan B) 1498 yildan
C) 1499 yildan D) 1501 yildan

6.Yangi o'zbek davlati — shayboniylar davlatiga qachon asos solingan?
A)1500 B)1501 C)1507 D)1512

7.1501-yilda Shayboniyxon ...
A) Xurosonni katta qo'shin bilan zabt etdi.
B) Samarqandda uzil-kesil o'rnashib oldi.
C) Movarounnahr yerlarini bosib olishga kirishdi.
D) Safaviylar bilan yarash bitimini imzoladi.

8. Toshkent va Shohruxiya shaharlari Muhammad Shayboniyxon tomonidan egallangan yilni ko'rsating.
A) 1501 B) 1503 C) 1505 D) 1507

9.Shayboniyxon tomonidan bosib olingan shaharlar ketma-ketligi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.
1) Toshkent va Shoxruxiya; 2) Urganch; 3) Samaraqand; 4) Farg'ona; 5) Balx;
A) 1,2,3,4,5 B) 3,1,4,2,5 C) 1,3,2,4,5
D) 3,4,1,5,2

10 Shayboniyxonning O'rta Osiyo shahar-larini bosib olishidagi ketma-ketlikni ko'rsating.
A) Shohruxiya, Farg'ona, Urganch, Hirot
B) Samarqand, Urganch, Toshkent, Buxoro
C) Farg'ona, Shohruxiya, Qunduz, Urganch
D) Samarqand, Buxoro, Hirot, Farg'ona

11.Muhammad Shayboniyxon Ahmad Yassaviy maqbarasi joylashgan shaharga qaysi shaxsni hokim etib tayinlaydi?
A) Suyunchxo'jani B) Mahmud Sultonni
C) Jonibek Sultonni
D) Ko'chkunchi Sultonni

12.Boburning tog'asi hukmronlik qilgan shahar Shayboniyxon egallagandan keyin kimga berildi?
A) Suyunchxo'jani B) Mahmud Sultonni
C) Jonibek Sultonni
D) Ko'chkunchi Sultonni

13.Ubaydullaxon hukmronligi davrida mamlakat poytaxti etib belgilangan hududga hokim etib kim tayinlanadi?
A) Suyunchxo'jani B) Jonibek Sultonni
C) Mahmud Sultonni D) Ko'chkunchixonni

14.Shayboniyxon harbiy yurishlarida ishtirok etgan quyidagi shaxslardan qaysi biriga Axsini tortiq qilgan?

A)Ko'chkunchi Sultonga
B)Mahmud Sultonga
C)Jonibek Sultonga
D)Suyunchxo'ja Sultonga

15.Boburning bolalik va yoshlik yillari o'tgan shaharlar Shayboniyxonning harbiy yurishlaridan so'ng kimga tortiq qilingan?
A) Mahmud Sultonga
B) Ko'chkinchi Sultonga
C) Jonibek Sultonga
D) Suyunchxo'ja Sultonga

16.Shayboniyxon Farg'onani egallagach Axsi va Andijonni kimga tortiq etgan?
A) Ko'chkunchixonga
B) Xoja Mahmud Sultonga
C) Jonibek Sultonga D) Jovshon Sultonga

17.Shayboniylar sulolasining eng yirik vakili Abdullaxon II ning bobosi kimning o'g'li bo'lgan?
A) Shayboniyxonning amakisi Ko'chkinchi Sultonning o'g'li
B) Shayboniyxonning amakisi Suyunchxo'ja Sultonning o'g'li
C) Shayboniyxonning amakisi Jonibek Sultonning o'g'li
D) Shayboniyxonning amakisi Xo'ja Mahmud Sultonning o'g'li

18.Shayboniyxonning harbiy yurishlarida eng faol qatnashgan Jonibek Sulton kimning o'g'li edi?
A)Abulxayrxonning
B)Xo'ja Mahmud Sultonning
C) Ko'chkinchi Sultonning
D)Umarshayxning

19. Nechanchi yilda Muhammad Shayboniyxon tomonidan Toshkent va Shohruxiya shaharlari egallangan?
A) 1505 B) 1501 C) 1503 D) 1507

20. Shayboniyxon Movarounnahrda mustahkam o'rnashib olgach, 1505-yilning kuzida qayerga harbiy yurish boshladi?
A) Xurosonga B) Yettisuvga
C) Farg'onaga D) Toshkent vohasiga

21.Quyidagi qaysi shahar Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan 1506-yilda egallangan?
A) Hirot B) Toshkent C) Urganch D) Balx

22.Raqiblarini sarosimaga solib qo'yuvchi "to'lg'ama" jang usuli qaysi lashkarboshi tomonidan qo'llangan?
A) Jaloliddin Manguberdi B) Amir Temur
C) Chingizxon
D) Muhammad Shayboniyxon

23.Shayboniylar davlati 1500-1509 yillardagi olib borilgan shiddatli urushlar oqibatida vujudga keldi. Ular qaysi hududlarni qamrab olgan?
A) Movarounnahr, Hindiston, Xuroson
B) Xorazm, Xuroson, Movarounnahr
C) Xuroson, Xorazm va Mo'g'iliston
D) Movarounnahr, Xorazm, Sharqiy Turkiston

24.Quyidagi ko'rsatilgan sabablardan qay biri Muhammad Shayboniyxon uchun temuriylarning Xuroson davlatini egallash qiyin bo'lmadi?
A) o'zaro ichki urushlar oqibatida, inqirozga yuz tutgan
B) Husayn Bayqoraning vafot etishi
C) Xurosonning Eronga qarshi kurash olib borishi
D) Xurosonda yuz bergan qo'zg'olon

25.XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab temuriy-zodalar qanday vazifani amalga oshira olmagan?
A) doimiy tinchlik o'rnatishni
B) O'rta Osiyoni yagona bir markaz atrofida birlashtirshni
C) iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishni
D) kuchli harbiy qo'shin tuzishni

26.Hirot qaysi voqeadan so'ng o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi?
A) 1510-yilda, Ismoil Safaviy tomonidan egallangandan so'ng
B) 1507-yilda, Muhammad Shayboniyxon istilosidan so'ng
C) 1574-yilda, Abdullaxon II yurisbidan so'ng

D) 1598-yilda, Pirmuhammad hujumidan so'ng

27. Shoh Ismoil va Shayboniyxon o'rtasidagi jang qayerda bo'lgan?
A) Balxda B) Marv yaqinida
C) Hirotda D) Ray atrofida

28. Qaysi davlatning bir sarhadi Xuroson bilan, ikkinchi sarhadi esa Usmonli turklar davlati bilan tutashgan edi?
A) Shayboniylar davlati
B) Boburiylar davlati
C) Safaviylar davlati D) Sosoniylar davlati

29.Qaysi voqeadan so`ng Shayboniyxon va Ismoil Safaviy o`rtasida urush bo`lishi muqarar bo`lib qoldi?
A) Shoh Ismoil boshliq Eron safaviylarining Xurosonga tazyiqi tobora kuchayib, talonchilik harakatlari avj oldi
B) Shoh Ismoil tomonidan Shayboniyxon yuborgan elchilari qatl etildi
C) Shayboniyxon Usmonli turk sultoni Boyazid II bilan Safaviylarga qarshi birgalikda hujum qilish to`g`risida shartnoma imzoladi
D) Shoh Ismoilni Shayboniyxonga yozgan kamsituvchi maktubni yo'llagandan so`ng ikki davlat o`rtasida sovuqchilik tushdi

30.Ispaniya tomonidan konkista siyosati yuritila boshlagan yili ...
A) Shoh Ismoil butun Xurosonni egalladi
B) Shayboniyxon Xirotni egalladi
C) Movarounnahrda Temuriylar sulolasi barham topdi
D) Bobur Samarqandni uchinchi marta egalladi

31.Movorounnahr va Xorazmda o'zbek xalqi qachon shakllangan?
A) IX-XI asrlarda B) IX – XII asrlarda
C) XI-XIII-asrda D) XIV-XV asrda

32. Nechanchi asrlarda mo'g'ullar Dashti Qipchoqni zabt etib , bu yerda yashovchi turkiy qabilalar tarkibiga singib o'z milliyligini yo'qotganlar?
A) XII asr oxirlarida B) XIII asr boshlarida
C) XIV asr boshlarida D) XVI asrdan

33.XIII asr boshida Dashti Qipchoqni zabt etgan mo'g'ul qabilalarining keyingi taqdiri qanday kechdi?
A) mo'g'ullarning siyosiy ta'siri susaygach, ular o'z vataniga qaytib ketdilar
B) Dashti Qipchoqning mahalliy turk urug'lari tarkibiga singib ketganlar
C) shu yerda qoL'b o'z etnik madaniyati va nomini saqlab qolishga erishganlar
D) Dashti Qipchoqda paydo bo'lgan davlatlar boshqaruvini o'z qo'llariga olganlar

34.Qaysi asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonning mahalliy aholisi o'zbek deb atala boshlandi?
A) XIV asrdan B) XVI asrdan
C) XI asrdan D) XIII asrdan

35. XVI asrdan Dashti Qipchoqdagi o'zbek qabilalari Movarounnahrga ko'chib kela boshlagach, mamlakatimizda qanday voqealar yuz berdi?
1) yurtimizda o'zbek xalqining tarkibi kengayib bordi; 2) o'lkamizda qipchoq qabilalari tarkibi kengayib bordi; 3) ko'chib kelganlar iqtisodiy va madaniy jihatdan o'zlaridan ustun bo'lgan mahalliy qardoshlari bilan tabiiy suratda yaqinlasha bordi;
4) ko'chib kelgan o'zbek qabilalari mahalliy qardoshlaridan iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha ustun bo'lishgan; 5) ular o'troq hayotga moslasha boshlaganlar; 6) Movaroun-nahr va Xorazmda avvaldan yashab kelayotgan mahalliy qardoshlari tarkibiga singib ketishgan; 7) ko'chib kelganlar alohida qabila sifatida shakllana boshlagan.
A) 1,3,4,6 B) 2,3,5,6 C) 1,3,5,7 D) 1,3,5,6

### 4- §. Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mutafakkiri.

1. Portugaliya dengiz sayyohi Kabral Braziliyani kashf etgan yili...
A) Bobur Samarqandni birinchi marta egalladi
B) Bobur Samarqandga ikkinchi marta yurish qildi
C) Bobur Samarqandni ikkinchi marta egalladi

D) Bobur Samarqandni uchinchi marta egalladi

2. Bobur Mirzo Samarqand shahrini 1500-yilda egallagach, Shayboniyxonning bu yerga qoldirib ketgan qancha askariarni qirib tashladi?
A) 600 kishini B) 450 kishini
C) 400 kishini D) 800 kishini

3. 1501-yil bahorida Bobur va Shayboniyxon qoshinlari ortasidagi jang ...
A) Bir biriga dushman tomonlar o`rtasida tinchlik sharnomasiga imzo qoyishlari bilan yakunlandi
B) Shayboniyxonnig qaqshatqich zarbasiga duchor bolishi blan yakunlandi
C) Boburning mag`lubiyati blan yakunlandi
D) Shayboniyxonning Xitoyga yurishini tezlashtirdi

4.1501-yil aprelida Bobur Mirzo va Shayboniyxon qoshinlari ortasidagi jang qayerda bo`ldi?
A) Sirdaryo bo`yida B) Miyonqol atrofida
C) Zarafshon bo`yida D) Bog`i Shamolda

5. Qaysi javobda Bobur Mirzo va Muhammad Shayboniyxon o'rtasidagi hal qiluvchi jang bo'lgan hudud ko'rsatilgan?
A) Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol mavzesi
B) Samarqand bilan Buxoro o'rtasidagi Cho'li Malik
C) Samarqand yaqinidagi Konigil mavzesi
D) Zarafshon bo'yidagi Saripul qishlog'i yaqini

6.1504 yilda Bobur Mirzo ...
A) Shayboniyxon bilan kurashda yengildi.
B) Samarqandni so'nggi bor qamal qildi.
C) Kobulda hokimiyatni qo'lga kiritdi.
D) "Boburnoma" asarini yaratdi.

7. Bobur Mirzo Samarqand taxtini uchinchi marta egallashi qachon va kimning yordamida bo`lgan?
A) 1510-yil, Shoh Mahmud yordamida
B) 1511-yil, Shoh Ismoil yordamida
C) 1512-yil, Shoh Abbos yordamida
D) 1513-yil, sulton Boyazid yordamida

8.Samarqand taxtini uchinchi marta egallagan Bobur Mirzodan Samarqand xalqining yuz o'girishiga nima sabab bo'lgan?
A) shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e'lon qilishi
B) Samarqand aholisidan moli omon solig'ini joriy qilinishi
C) Samarqandda Eron boshqaruv tizimining joriy etilishi
D) sunniylik oqimini shiyalik oqimidan yuqori qo'yganligi

9.1512-yilda Boburga qarshi qo'shin tortib uni mag'lubiyatga uchratgan shaxsni aniqlang.
A)Shayboniyxoning amakisi Ko`chkinchixon
B) Shohbudoqning o`g`li Mahmud Sulton
C) Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o`g`li Ubaydullaxon
D) Abulxayrxonning o`g`li Jonibek Sultonning o`g`li Iskandar Sulton

10. Shayboniylar Shoh Ismoilning Boburga yuborgan qo'shinini qachon mag'lub etgan?
A) 1511-yil kuzida B) 1512-yil aprel oyida
C) 1512-yil noyabr oyida
D) 1513-yil may oyida

11.Qay tariqa Bobur Hindistonda — boburiylar sulolasiga asos solindi?
A) 1526-yilning 21-aprelida Dehli hukmdori Ibrohim Lo`diy qo'shinlarini tor-mor keltirgandan so`ng
B) Dehli hukmdori ustidan g'alaba natijasida Bobur podshoh Shimoliy Hindistonni egallagandan so`ng
C) 1526-yilning 27- aprelida Dehli shahrida podshoh Bobur nomiga xutba o'qilgandan so`ng
D) Dehli sultonini yengib butun Hindistonni egallaganidan so`ng

12.Zahiriddin Bobur tarixda qanday nom qoldirgan?
A) iste'dodli sarkarda, bastakor va shoir, buyuk davlat arbobi sifatida
B) Movarounnahrda markazlashgan davlat asoschisi sifatida
C) iste'dodli yozuvchi va shoir, biroq shafqatsiz bosqinchi sifatida
D) iste'dodli shoir, O'rta Osiyodagi yangi davlat asoschisi sifatida

13.Ma`lumki, Bobur Hindistonda yirik davlat barpo etgan edi. Bu davlat jahon tarixi fanida qanday nom bilan mashhur edi?
A) "Temuriylar imperiyasi"
B) "Boburiylar imperiyasi"
C) "Buyuk Mog`ul imperiyasi"
D) "Buyuk Temuriylar imperiyasi"

14.Sharq mamlakatlari taxtiga munosib hukmdorlarning yorqin namoyandalaridan biri Bobur Mirzo haqidagi ma'lumotlar to`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang.
1) Bobur bobokaloni Amir Temurdek bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor bilan qaragan davlat arbobi edi. 2) Yoshligidan sherlar yozishga qiziqani uchun „Bobur" („Sher") laqabini oladi. 3) Bobur podshoh Turli dinga mansub xalqlarning diniy e'tiqodini, urf-odatlarini kamsitmagan, aksincha, hurmat bilan qaragan. 4) Boshqa dindagi barcha xalqlardan olinadigan juzya solig'ini bekor qilgan. 5) Bobur podshoh unga hamroh,safdosh bo'lgan arboblardan kimki o'z vataniga qaytishini istagan bo'lsa, ularning ra'yini qaytarmay, ularga ruxsat bergan, ayni paytda xizmatlariga yarasha muruvvat ham ko'rsatgan. 6) Hindistondagi barcha mahalliy hukmdorlarni o`rniga o`z yaqinlari va qarindoshlarini tayinlab, yangicha boshqaruv tizimini joriy etdi.
A) 1,2,4,6 B) 1,3,5 C) 1,3,6 D) 2,5,6

15. Alisher Navoiydan keyin turadigan tengi yo`q shoir, yirik bastakorni aniqlang.
A) Umarxon B) Shayboniyxon C) Bobur
D) Abulg`ozixon

16..Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Boburnoma" asarida qaysi yillar oralig'ida bo`lib o'tgan voqealar bayoni berilgan?
A) 1512-1530-yy. B) 1370-1405-yy.
C) 1483-1530-yy D) 1493-1529-yy.

17. Qaysi javobda "Boburnoma" asaridagi geografiyasi va xalqlari tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan hududlar keltirilgan?
A) Eron, Hindiston, Xitoy
B) Movarounnahr, Yettisuv, Kavkaz
C) Hindiston, Movarounnahr, Xuroson
D) Hindiston, Arabiston, Movarounnahr

18.Zahiriddin Muhammad Boburning qaysi asari islom huquqshunosligi va islom dinining asoslari, xususan namoz va zakot, haj ziyoratlarining mezonlariga bag'ishlangan?
A) "Xatti Boburiy" B) "Turkiy devon"
C) "Boburnoma" D) "Mubayyin"

19.Boburning "Boburnoma" asarida ba'zi temuriyzoda hukmdorlarning qanday harakatlari tanqid qilinadi?
A) hokimiyat uchun o`zaro talashishlar
B) xalqqa jabr-zulm o`tkazishlari
C) o`z dushmanlari bilan o`z manfaatlari yo`lida kelishishga qilgan harakatlari
D) xalqning iqtisodiy ahvoli bilan qiziqmaslik

20. Qaysi javobda Bobur Hindistonni istilo qilishdan oldin Qobul hukmdorligini topshirib ketgan shaxs keltirilgan?
A) o'g'li Humoyun B) Ubaydulla Sulton
C) o'g'li Komron D) ukasi Jahongir Mirzo

21. Hindistondagi Boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning vasiyatiga ko'ra, uning jasadi qayerga ko'chirilgan?
A) Agra shahrida Jamna daryosi bo'yidagi Bog'i Oromga
B) Andijondagi Bog'i Boburga
C) Kobul shahridagi Bog'i Kalonga
D) Samarqanddagi Go'ri Amirga

22.Bobur vafotidan so'ng qaysi qabristonga dafn etilgan?
A) Agra shahri yonida, Jamna daryosi bo'yidagi Bog'i Boburga
B) Agra shahridagi Bog'i Oromga
C) Kobuldagi Bog'i Kalonga
D) Kobuldagi Bog'i Boburga

23.Qaysi bog' keyinchalik bog'i Bobur deb atala boshlagan?
A) Bobur Milliy bog'i B) Bog'i Dilkusho
C) Bog'i Orom D) Bog'i Kalon

24. O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan Zahiriddin Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida qanday ishlar amalga oshirildi?
A) Afg'oniston va Hindistonga ilmiy ekspeditsiyalar uyishtirilib uning natijalari

to'plam qilinib nashr etildi
B) Kobuldagi Bog'i Kalondan xoki keltirilib Audijonda ramziy maqbaraga qo'yildi va "Boburnoma" asari qayta nashr qilindi
C) Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy qabr maqbarasi qurildi, "Bobur milliy bog'i" va shu bog' qoshida "Bobur va jahon adabiyoti" nomli muzey tashkil etildi
D) Boburning asarlari qayta nashr etildi va ramziy qabr maqbarasi qurildi

25.Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida respublikamiz hukumati tomonidan qanday ishlar amalga oshirildi?
1) Andijonda Bobur haykali o'rnatildi;
2) Andijonda ramziy qabr maqbarasi qurildi;
3) Andijonda "Bobur milliy bog'i" va shu bog1 qoshida "Bobur va jahon adabiyoti" nomli muzey tashkil etildi; 4) Agrada Bobur haykali o'rnatildi; 5) Qobulda Bobur nomidagi kutubxona ochildi
A) 1, 2, 3 B) 2, 4, 5 C) 1, 2, 3, 4, 5
D) 1, 3, 5

26. Ushbu atamalarga mos keluvchi javobni aniqlang.
1) roja; 2) kuman; 3) to'lg'ama; 4) shia;
a) vizantiya manbalarida qipchoqlar nomi;
b) Hindistondagi mahalliy hukmdorlar;
c) Jang usuli; d) dindagi mazhab
A) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d B) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a
C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c D) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d

27. Bobur asos solgan Boburiylar saltanati necha yil hukm surdi?
A) 400 yil (1510-1910 yy)
B) 300 yil (1510-1820 yy)
C) 298 yil (1520-1823 yy)
D) 332 yil (1526-1858yy)

28.Boburiylarning Hindistondagi hukmronligi ... yil davom etgan.
A) 330 yil B) 332 yil
C) 444 yil D) 500 yil

## 5- §. Buxoro xonligi.

1. Muhammad Shayboniyxonning o'limidan so'ng taxtga kim o'tqazilgan?
A) Mahmud Sulton B) Ko'chkinchi Sulton
C) Jonibek Sulton
D) Suyunchxo'ja Sulton

2. Nima sababdan Muhammad Shayboniyning o'limidan so'ng taxtga uning avlodlari emas, amakisi Ko'chkunchi Sulton o'tqazilgan?
A) Muhammad Shayboniyxon vasiyatiga ko'ra taxtga amakisi o'tirgan
B) Ko'chkinchi Sulton ona tomondan Ulug'bekka borib taqalgani uchun
C) Muhammad Shayboniyxonning yolg'iz o'g'li jangda halok bo'lganligi uchun
D) Shayboniylar urf-odatiga ko'ra vafot etgan xon o'rniga taxtga yoshi katta shayboniy o'tqazilgan

3.Shayboniylar urf-odatiga ko'ra, vafot etgan xon o'rniga taxtga yoshi katta shayboniy o'tqazilgan. Qachondan so'ng bu urf- odatga rioya etilmay qo'yilgan?
A)XVI asrning 20-yillaridan
B)XVI asrning 30-yillaridan
C)XVI asrning 40-yillaridan
D)XVI asrning 50-yillaridan

4. Ko'chkunchi Sultondan so'ng esa taxtga kim o'tirdi?
A) uning o'g'li Abu Said
B) uning o'g'li Abdulatif
B) uning jiyani Ubaydullaxon
D) uning ukasi Syunchixo'ja

5.1533-1540-yillar Buxoroda hukmronlik qilgan Ubaydulloxon kimning o'g'li bo'lgan?
A) Shohbudoq Sulton o'g'li Mahmud Sultonning
B) Abu Saidning o'g'li Sulton Mahmudning
C) Buxoro hukmdori Sulton Mas'ud Mirzoning
D) Ko'chkunchi Sultonning

6.Ma'lumki, Ubaydullaxonning tariximizda xizmatlari katta. Quyida ko'rsatilgan javoblarning qay biri Ubaydullaxonning xizmatlarini e'tirof etadi?
1) Ismoil Safaviy va qizilboshlilarning hujumini bartaraf etib, Movarounnàhrni ularning harbiy siyosiy tazyiqidan saqlab qolgan; 2) Buxoroning markaz sifatidagi nufuzi oshgan; 3) o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarda tiklashga harakat qildi; 4) mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham bergan;

5) Hirotni ishg'ol etgan; 6) qizilboshlarni bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan;
7) pul islohati o'tkazib, mamlakat iqtisodiy hayotini tiklagan; 8) Akbarshoh bilan keng ko'lamli aloqa o'rnatib, mamlakatning xalqaro mavqeini mustahkamlagan.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
C) 1, 3, 5, 7 D) 2, 4, 6, 8

7. Shayboniy Ubaydullaxon tomonidan amalga oshirilgan buyuk xizmatlar to'g'ri keltirilgan javob variantini aniqlang.
1) Movarounnahrni qizilboshlaming harbiy-siyosiy tazyiqidan saqlab qoldi;
2) Davlatning Shayboniyxon davridagi sarhadlarini qayta tiklashga erishdi;
3) Buxoroning markaz sifatidagi nufuzi har tomonlama oshishiga erishdi;
4) Mamlakat poytaxtini Buxoro shahridan Samarqand shahriga ko'chirdi;
5) Mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham berdi;
6) Xurosondan qizilboshlarni to'liq haydab chiqishga musharraf bo'ldi.
A)1, 3, 5 B)2, 4, 6 C) 1,3,4 D)2, 5, 6

8.Ismoil Safaviyning Movarounnahrga hujumlarini bartaraf etgan hukmdorni aniqlang.
A) Ko'chkunchi sulton
B) Muhammad Shayboniyxon
C) Ubaydullaxon D) Mahmud sulton

9.Buxoro davlati xonlik deb atalgan tarixiy davrlar chegarasini ko'rsating.
A) XV asr boshidan XVII asr boshigacha
B) XVI asr o'rtalaridan XVIII asr birinchi yarmigacha
C) XVI asrning 30-yillaridan boshlab XVIII asning ikkinchi yarmigacha
D) XVII asrdan XVIII asr oxirigacha

10.Buxoro xonligida kimning qisqa vaqt hukmronligidan so`ng mamlakatda qo`shhokimiyatchilik vujudga keldi?
A) Ko`chkinchixonning o`g`li Abu Said
B) Ko`chkinchixonning o`g`li Abdullaxon I
C) Mahmud Sultonning o`g`li Ubaydullaxon
D) Ubaydullaxonning o`g`li Abdulaziz

11.1541-yilda Shayboniylar hukmronligi davrida qo'sh hokimiyatchilik vujudga kelgan bo'lib, shayboniylardan kimlar qayerda hukmronlik qilishardi?
A) Abdulmo'min-Buxoroda, Abdulatifxon-Samarqandda
B) Pirmuhammadxon-Buxoroda, Abdulazizxon-Samarqandda
C) Abdulazizxon-Samarqandda, Abdulatifxon-Buxoroda
D) Abdulazizxon-Buxoroda, Abdulatifxon-Samarqandda

12.Nechanchi yilda Abdullaxon kimning ko'magida Buxoro taxtini egallaydi?
A) 1556-yilda Muhammad Islom ko'magida
B) 1555-yilda Iskandar Sulton yordamida
C) 1558-yilda Shohjahon ko'magida
D) 1563-yilda shoh Abbos yordamida

13.Jonibek Sultonning nabirasi bo'lmish Abdullaxon II ning otasi qaysi hudud hokimi edi?
A) Samarqand B) Miyonqol C) Badaxshon
D) Balx

14. Fransiyada "Varfolomey kechasi" nomi bilan tarixga kirgan voqea yuz bergan yilda Buxoro taxtini kim boshqargan?
A) Imomqulixon B) Subhonqulixon
C) Abdullaxon II D) Ubaydullaxon

15. Quyida berilgan shahar va hududlarning Abdullaxon II tomonidan egallanishini xronologik ketma-ketlikda belgilang.
1) Samarqand; 2) Balx; 3) Badaxshon;
4) Toshkent; 5) Xorazm.
A) 2, 1, 4, 5, 3 B) 1, 3, 2, 4, 5
C) 1, 4, 3, 5, 2 D) 2, 1, 4, 3, 5

16. Abdullaxon II tomonidan nisbatan keyinroq bosib olingan hududni aniqlang.
A) Farg'ona B) Badaxshon C) Samarqand
D) Toshkent

17. Nechanchi yillar oralig'ida Abdullaxon Balxni, Samarqandni, Toshkent, Farg'ona, Badaxshonni o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi?
A) 1556-1587-yillar oralig'ida
B) 1564-1593-yillar oralig'ida

C) 1574-1595-yillar oralig'ida
D) 1578-1598-yillar oralig'ida

18. Abdullaxon II tomonidan 1595 yil Xorazm zabt etilganidan so'ng uning davlati sarhadlari ...
A) butun Volga daryosi bo'yidan Balxash ko'ligacha yetdi.
B) janubda Hirotdan Mashhadgacha kengaydi.
C) Issiqko'ldan Isfax:ongacha kengaydi.
D) shimolda Volga daryosi bo'ylarigacha yetdi.

19.Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining chegaralari qaysi hududlargacha cho'zilgan edi?
A) janubda Erondan hind daryosi bo'ylarigacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Qoshg'argacha
B) janubda Amudaryo bo'ylab, shimolda Orol dengizigacha , Kaspiy dengizidan Sirdaryoning yuqori oqimigacha
C) janubda Erondan Mashhadgacha, shimolda Sirdaryogacha, Kaspiy dengizidan Qashg'argacha
D) janubda Hirotdan Mashhadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqko'lgacha

20. Davlatchiligimiz tarixida XVI asrda yetakchi sulola qaysi bo'ldi?
A) Mang'itlar B) Ashtarxoniylar
C) Temuriylar D) Shayboniylar

21. XVI asrda hukmronlik qilgan qaysi sulola o'zbek davlatchiligi tarixida katta rol o'ynagan?
A) Qo'ng'irot B) Safaviylar
C) Shayboniylar D) Ashtarxoniylar

22.Quyidagi qaysi davlatda Buxoro xonligiga nisbatan "Buyuk Buxoro" (tarjimasi) iborasi qo'llanilgan?
A) Angliyada B) Rossiyada
C) Hindistonda D) Eronda

23.Kim hukmdorlik etib turgan davrda Buxoroga nisbatan Rossiyada "Velikaya Buxariya" iborasi qo'llanilgan?
A) Said Olimxon B) Amir Nasrullo
C) Muhammad Shayboniyxon
D) Abdullaxon II

24. Abdullaxon II vafotidan keyin taxtga kim o'tiradi ?
A) o'g'li Abdulmo'min
B) jiyani Pirmuhammad
C) o'g'li Abdulamin
D) jiyani Boqi Muhammad

25.Quyidagilardan Jonibek Sultonning nabirasi bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Iskandar Sulton B) Abdullaxon II
C) Pirmuhammad D) Boqi Muhammad

26. Shayboniy Iskandar Sultonning nevarasi bo'lgan shaxsni toping.
A) Abdulmo'min B) Ubaydullaxon
C) Abdullaxon D) Jonibek Sulton

27. Abdullaxon II ning ikki yashar nabirasi taxtni egallaganda Buxoroning bir guruh amirlari kimni taxtga o`tqazishga urindilar?
A) Sulaymon Sultonning o`g`li Pirmuhammadni
B) Ibodulla Sultonning o`g`li Abdulaminni
C) Jonibek Sultonning o`g`li Boqimuhammadni
D) Jonibek Sultonning o`g`li Dinmuhammadni

28. Shayboniylardan taxtni egallagan Abdullaxon II ning amakivachasi Pirmihammad qayerga hokimlik qilardi?
A) Balxga B) Badaxshonga
C) Samarqandga D) Hisorga

29. Shayboniylar hukmronligi davrida mamlakatda sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan shoh Abbos quyidagi qaysi shaharlarni egallab olgan?
1) Balx; 2) Nishopur; 3) Sabzavor; 4) Tus; 5) Mashhad; 6) Hirot; 7) Ray.
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5 C) 2, 4, 5, 6
D) 1, 2, 3, 7

30. Qaysi javobda Abdullaxon II vafotidan so'ng Shayboniylar davlatida boshlangan siyosiy parokanda-likdan foydalanib, Movarounnahrga bostirib kirgan qozoq xoni ko'rsatilgan?

A) Kenisari B) Abulxayr C) Tavakkal
D) G'oyibxon

31.Shayboniy Pirmuhammad qozoq qo`shinlarini tor-mor etib Movarounnahr hududini ozod etgach, qozoq qo`shini qayerga chekindi?
A) Dashti Qipchoqqa B) Mo`g`ulistonga
C) Kavkazga D) Janubiy Sibirga

32.Qozoq qo`shinlarini yenggan Pirmuhammad Buxoro xonligini yana qancha vaqt idora qildi?
A) bir yil B) ikki yil C) uch yil D) olti oy

33.Pirmuhammad bilan ashtarxoniylardan bo`lgan Boqimuhammad o`rtasida jang qachon yuz berdi?
A) 1598-yil B) 1599-yil C) 1600-yil
D) 1601-yil

34.Boqi Muhammad taxtga o'tirgunga qadar qayerning hokimi edi?
A) Marv hokimi B) Buxoro hokimi
C) Miyonqol hokimi D) Samarqand hokimi

35.Abdullaxon II vafotidan necha yil o'tib Shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi?
A) 6 B) 1 C) 3 D) 5

### 6- §. XVI asrda Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

1. Shayboniyxonning davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lidagi dastlabki islohotini aniqlang.
A) davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimining joriy etilishi
B) mamlakatda yer-suvning qaytadan taqsim qilinishi
C) mamlakat ichidagi ijtimoiy hayotning tartibga solinishi
D) pul tizimining tartibga solinishi

2.Nechanchi yilda shayboniylar Movarounnahrni tamoman egallaganlar?
A)1500 B)1501 C)1507 D)1512

3. 1512-yilda Shayboniylar Movarounnahrni tamoman egallagach, shayboniy sultonlar mamlakat viloyatlarini qayta taqsimlashni kimga topshirgan?
A) Ubaydulla Sultonga
B) Ko'chkunchi Sultonga
C) Suyunchxo'ja Sultonga
D) Jonibek Sultonga

4. Quyidagi shayboniy hukmdorlardan qaysi biri 1512-yilda mamlakat viloyatlarini shayboniy sultonlariga qayta taqsimlagan shayboniylarning nufuzli vakili Jonibek Sultonning nabirasi hisoblanadi?
A) Abdullaxon I B) Abu Said
C) Abdullaxon II D) Ko'chkunchixon

5. Shayboniyxon tomonidan Turkistonga hokim etib tayinlangan shaxsga Jonibek Sultonning ra'yiga ko'ra, qaysi hudud doimiy merosiy mulk etib beriladi?
A) Samarqand B) Buxoro va uning atroflari
C) Toshkent viloyati D) Farg'ona viloyati

6. Shayboniy sultonlar mamlakat viloyatlarini qayta taqsimlashni Jonibek Sultonga topshirganlarida , uning ra'yiga ko'ra , qaysi hududlar qaysi shayboniyga berilganlini quyidagilar ichidan toping.
a) Ko'chkunchixonga; b) Suyunchxo'jaga;
c) Ubaydulla Sultonga;
1) Buxoro va uning atroflari; 2) Toshkent viloyati; 3) Samarqand
A) a-3, b-1, c-2 B) a-3, b-2, c-1
C) a-2, b-1, c-3 D) a-1, b-2, c-3

7. 1512 yilda shyboniylar Movarounnahrni tamoman egallagach, shayboniy sultonlar mamlakat viloyatlarini qayta taqsimlashni shayboniylarning eng nufuzli vakili Jonibek Sultonga topshirgan edilar. Uning ra'yiga ko'ra Samarqand, Toshkent, Buxoro va uning atroflari kimlarga doimiy merosiy mulk qilib berilgan?
A) Ko'chkunchixon, Suyunchxo'ja, Ubaydulla Sultonga
B) Ko`chkinchixon, Ubaydullaxon, Jonibek Sultonga
C) Ubaydullaxon, Ko'chkinchixon, Suyunchxo'jaga
D) Muhammad Temur, Navro'z Ahmad, Mahmud Sultonga



Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/14-98

8. Ma'lumki, Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islohatlar o'tkazgan. Quyidagi berilgan qaysi javobda Shayboniyxon tomonidan o'tkazilmagan islohatlar ko'rsatil-gan?
A) sud islohati B) ijtimoiy islohat
C) davlat boshqaruvi islohati D) pul islohati

9.Quyidagi qaysi islohot Shayboniyчщт tomoni-dan o'tkazilmagan?
A) barcha ekin maydonlarini qaytadan taqsimlash
B) davlatni mustahkamlashda suyurg'ol tizimini joriy etish
C) sof oltindan tangalar zarb qildirish
D) bo'sh yotgan yerlardan foydalanish

10.Quyidagi qaysi mulklar hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilganlar?
A) iqto' B) suyurg'ul C) tanho D) jogir

11. Ma'lumki, 1507-yil Muhammad Shayboniy-xon pul islohoti o'tkazgan edi. Islohotga ko'ra qanday pullar zarb etilganligini toping.
A) kumush tangalar, mis chaqalar qog'oz pullar
B) kumush tangalar hamda mis chaqalar
C) oltin tangalar va mis chaqalar
D) oltin va kumush tangalar

12.1507-yilda o'tkazilgan pul islohotining mohiyati qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) mamlakatning hamma katta shaharlarida bir xil vaznga ega - 5,2 gramrali yangi kumush tangalar va mis chaqa pullar zarb etilishining yo'lga qo'yilishi
B) hamma shaharlarda bir xil vaznli - 5,2 grammli yangi oltin tanga va kumush chaqa pullar muomalaga kiritildi
C) hamma shaharlarda bir xil vaznli -2,5 grammli yangi kumush tangalar va mis chaqa pullar muomalaga kiritildi
D) mis Alius va dirhamlar zarb etilishi yo'lga qo'yildi

13.Muhammad Sayboniyxon pul islohatini amalga oshirishdan qanday maqsadni ko'zlagan edi?
A) mamlakatda ijtimoiy hayotni tartibga solish
B) Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i bo'ylab savdo-sotiqni Movarounnahrga qaytarish
C) iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish
D) xalqaro savdo-sotiqdan Eron safaviylarining mavqeiga zarba berish

14.Qaysi javobda turli yillarda pul islohatlari o'tkazgan shayboniy hukmdorlar ko'rsatilgan?
1) Muhammad Shayboniyxon; 2) Navro'z Ahmadxon; 3) Ko'chkunchixon;
4) Abdullaxon I; 5)Abdullaxon II;
6) Iskandarxon
A) 2,3,5 B) 3,5,6 C) 1,3,5 D) 1,2,4

15.Oliy hukmdor Ko'chkunchixonning pul islohoti o'tkazish sabablarini aniqlang.
1)M.Shayboniy vafotidan so'ng boshlangan o'zaro toj-taxt uchun kurashlari; 2)Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi; 3)Pulning qadrsizlanishi; 4) Suyurg'ol tizimiga ko'ra boshboshdoqlikning boshlanishi; 5) Yirik qabila ittifoqlarining mustaqillik uchun kurashi;
A) 1,2,3 B) 1,3,4 C) 1,2,5 D) 1,2,4

16. Ma'lumki, Abdullaxon II pul islohatini o'tkazgan. Bunga ko'ra u ...
A) Movarounnahrning 16 ta shahar va viloyatlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Taroz, O'tror, Xo'jand va boshqa shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqaradi.
B) oltin pul zarb etishni yo'lga qo'ygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirilmasligini qattiq nazorat qilgan
C) Erondagi Hulakuiylar davlati va Oltin O'rda xonligining kumush tangalari namunasida ikki xil pul: og'irligi 8 grammlik katta kumush tanga va 1 grammlik kichik tanga zarb etilgan.
D) mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil - 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi.

17. Abdullaxon II o`tkazgan pul islohotlari qanday oqibatlarga olib keldi?
A) hokimiyatning yanada markazlashuviga
B) xazinaga katta daromad tushishiga
C) savdo-sotiq yanada jonlandi.
D) A, B va C

18. Shayboniylar davrida ham iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaralgan. Bu sulola vakillari qaysi daryolar imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rganlar?
1) Zarafshon; 2) Sangzor; 3) Qashqadaryo; 4) Chirchiq; 5) Sirdaryo; 6) Amudaryo; 7) Vaxsh; 8) Murg'ob.
A) 1,2,4,6,8 B) 2,4,5,6,7,8 C) 1,3,4,5,6,7
D) 2,3,5,6,7

19.Shayboniyxon avlodlari keyinchalik qaysi viloyat yerlarini sug'orish uchun 10 dan ortiq kanallar qazitganlar?
A) Samarqand B) Buxoro
C) Kesh D) Marv

20.Shayboniylardan kimning hukmronligi davrida sun'iy sug'orish ishlari ayniqsa keng rivojlangan?
A) Ko'chkinchixon B) Ubaydullaxon
C) Muhammad Shayboniyxon
D) Abdullaxon II

21. Shayboniylar hukmronligi davrida barpo etilgan sug'orish inshoatlarini aniqlang.
1) Choharminor suv ayirg'ichi;
2) Toymanariq kanali; 3) Tuyatortar kanali;
4) Turuqband suv ombori; 5) Sultonbandi suv ombori; 6) Hovuzixon suv ombori;
A) 1,2,5 B) 1,3,6
C) 2,3,4 D) 3,5,6

22.Shayboniylar davrida barpo etilgan sug'orish inshoatlarini ularga oid ma'lumotlar bilan mos tartibda belgilang.
1) ... suv ayirg'ichi Zarafshon daryosida barpo etilgan edi;2) Somonjuq dashtini obodonlashtirish maqsadida ... kanali qazilgan edi; 3) Murg'ob vohasida ... suv ombori qurilgan; 4) Nurota tog'ida ... suv ombori qurilgan;
a) Oqchob; b) Hovuzixon; c) Hoja Ka'b; d) Jondor;
A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c B) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a
C) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a D) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c

23. Abdullaxon II davrida barpo etilgan kanallarni belgilang.
1) Jondor; 2) Tuyatortar; 3) Xo'ja Ka'ab;
4) Karmana; 5) Afshona; 6) Chahorminor
A) 1,2,3 B) 2, 3, 5 C) 4, 5, 6 D) 1, 4, 6

24. Abdullaxon II davrida barpo etilgan suv ayirgichlarni belgilang.
1) Jondor; 2) Tuyatortar; 3) Xo'ja Ka'ab;
4) Karmana; 5) Afshona; 6) Chahorminor.
A) 2, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 1, 2, 3 D) 4, 5, 6

25. XVI asrda qurilgan suv ayirg'ichlarni aniqlang.
A) Sangzor, Hovuzixon
B) Karmana, Jondor, Mehtar Qosim
C) Xoja Kaab, Afshona
D) Tuyatortar, Somonjuq

26.Chahorminor, Karmana, Jondor va Mehtar Qosim suv ayirg'ichlari qaysi daryoda joylashgan?
A) Amudaryo B) Sirdaryo C) Zarafshon
D) Surxondaryo

27. Chahorminor va Mehtar Qosim inshootlari qanday inshoot hisoblanadi?
A) kanallar B) suv ayirg'ichlar
C) suv omborlari
D) to'g'onlar

28.Shayboniylar davrida Oqchob suv ombori qayerda qurilgan ?
A) Nurota tog'ida B) Beklarsoy darasida
C) Zarafshon daryosida
D) Murg'ob vohasida

29.1556-1585-yillar oralig'ida qaysi daryolardan qaysi hudud va vohalarga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan?
A) Amudaryodan Chorjo'yga, Murg'obdan Marvga. Vaxshdan uning atroflariga
B) Amudaryodan Buxoro va Qarshiga, Sirdaryodan Shohruhiyaga
C) Sirdaryodan Mirzacho'lga, Zarafshondan Kattaqo'rg'on va uning atroflariga

D) Zarafshondan Buxoro va Vardanze atroflariga, Norindan Xo'jand atroflariga

30.Abdullaxon II Buxoroda yirik usti berk bozor Abdullaxon timini qachon qurdirdi?
A) 1556-yil B) 1574-yil C) 1577-yil
D) 1585-yil

31. Abdullaxon II Beklarsoy darasidagi qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band qurdirgan edi. U qaysi tumanda joylashgan?
A) Kattaqo'rg'on B) O'ratepa
C) G'uzor D) Nurota

32.Shayboniylar davrida ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lgan qaysi sohalar yaxshi rivojlangan?
1) tikuvchilik; 2) kulolchilik; 3) misgarlik;
4) temirchilik; 5) teri-ko'nchilik;
6) qurolsozlik; 7) yog'ochsozlik; 8) zargarlik;
9) qog'oz; 10) qurilish ashyolari.
A) 1,2,3,4,6,7,9 B) 1,2,4,6,8,9,10
C) 1,3,5,6,7,10 D) 1,2,4,6,7,8,10

33. Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan ... va ... bo'lingan?
A) shahar va viloyatlarga
B) shahar va tumanlarga
C) viloyat va tumanlarga
D) qabila va viloyatlarga

34.Buxoro xonligidagi oliy davlat idorasi nima deb atalgan?
A)Dargoh B)Devon
C)Vazirlik D)Xon kengashi

35 Nima uchun shayboniylar davrida devon faoliyati temuriylar davridagidek nufuzga ega bo'lmagan?
A) shayboniylarda yetarli ravishda o'qimishli amaldorlar bo'lmaganligi sababli
B) dargohdagi mansablar mavqeyining kuchli bo'lmaganligi sababli
C) ko'chmanchi hayot tarzi uzoq vaqt saqlanib qolganligi sababli
D) mahalliy aholining qarshiligi davom etayotganligi sababli

36.Buxoro xonligida davlat lavozimi mansabdori hisoblanmagan unvonni aniqlang.
A) muhtasib B) qozikalon
C) shayxulislom D) naqib

37.Shayboniylar davrida sayidlar jamoasi yetakchisining unvoni qanday nomlangan?
A) muhtasib B) xo'ja
C) hojib D) naqib

38. O'zlarini Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning avlodlari deb hisoblovchilar qanday nomlangan?
A) muhtasib B) sayid
C) hojib D) naqib

39. O'zlarini Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning avlodlari deb hisoblovchilar jamoasi yetakchisining unvonini aniqlang.
A) naqib B) muhtasib
C) shayxulislom D) sadr

40.Buxoro xonligida davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi bo'lgan lavozim egasi?
A) Devonbegi B) Ko'kaldosh C) Naqib
D) Xon yasovuli

41. Quyidagi qaysi davlat lavozimi mamlakatda jamoat tartibini saqlanishini, diniy marosim va amallarga rioya qilinishini nazoret qilish bilan shug'ullangan?
A) mehtar B) shayxulislom C) muhtasib
D) naqib

42. Zakot va boshqa tushumlarning zarur o'rinlarda ishlatilishini nazorat qiluvchi amaldor Shayboniylar davlatida qanday atalgan?
A) Mehtar B) Shayxulislom C) Qozikalon
D) Muxtasib

43. Quyidagi qaysi amaldor Shayboniylar davlatida fuqorolarning xon siyosatiga munosabatini o'rganuvchi va bu siyosatning daxlsizligini ta'minlovchi shaxs hisoblangan?
A) muhtasib B) qozikalon
C) ko'kaldosh D) naqib

44. Qaysi javobda keltirilgan vazifalarni Shayboniylar davlatida naqib bajargan?
A) xon farmonlari, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazish
B) moliya va xo'jalik ishlarini boshqarish

C) davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi
D) viloyatlarda hokimlik qiluvchi shaxzodalarga rahnamolik qiluvchi, xonning joylardagi nazoratchisi

45. Quyidagi qaysi mansabdagi amaldor Shayboniylar davrida xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar bilan shug'ullangan?
A) eshik og'aboshi B) xon yasovuli
C) parvonachi D) otaliq

46. Shayboniylar davlatida dargoh xavfsiz-ligi kimning zimmasiga yuklangandi?
A) qo'rchiboshi B) eshikog'aboshi
C) tug'begi D) mirshabboshi

47. Quyidagi qaysi amaldor Shayboniylar davlatida dargohga aholidan tushgan arizalarni qabul qilib, ularga javob qaytargan?
A) devonbegi B) qozikalon
C) miroxur D) dodxoh

48.Shayboniylar davlatida parvonachi qanday vazifalarni bajargan?
A) xon farmonlari, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazgan
B) davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi hisoblangaii
C) viloyatlarda hokimlik qiluvchi shaxzodalarga rabnamolik qiluvchi, xonning joylardagi nazoratchisi
D) moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan

49 Qaysi javobda Shayboniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruvidagi lavozimlar va ularning vazifalari to'g'ri muvofiqlashtirilgan?
1) qo'rchiboshi; 2) qushchi; 3) dodxoh; 4) devonbegi; 5) xon yasovuli;
a) qurol-aslaha xizmati boshlig'i; b) xon va shahzodalar o'rtasida ichki munosabatlarni o'rgangan; c) dargohga tushgan arizalarni qabul qilgan; d) xon ovini tashkil qilgan; e) moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan
A) 1-a, 2-d, 3-c, 4-e, 5-b
B) 1- a, 2-d, 3-e, 4-c, 5-b
C) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c, 5-e
D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-e, 5-a

50. Turli nomda aytiluvchi va aynan bir lavozimni anglatuvchi tarixiy atamalar qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) shig'ovul - qo'rchiboshi
B) mehtar - kitobdor
C) muhtasib - rais
D) munshiy – qozikalon

51. Shayboniylar davlatida mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini kim nazorat qilgan?
A) dodxob B) ko'kaldosh C) parvonachi
D) qozikalon

52.Shayboniylar davridagi ichki ziddiyatlar nimalarda to`la namoyon bo`lgan?
A) hukmron tabaqa va oddiy xalq o`rtasidagi ziddiyatlarda
B) markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimyat o`rtasidagi ziddiyatlarda
C) savdogarlar va hunarmandlar o`rtasidagi ziddiyatlarda
D) ko`chmanchilar bilan o`troq aholi o`rtasidagi kelishmovchiliklarda

53. Shayboniylar davrida yer egaligining qanday turlari bor edi?
A) mulki sultoniy, tarxon, iqto', mulk
B) suyurg'ol, iqto, tanho, jogir
C) suyurg'ol, mulki ihju, tanho, amlok
D) mulki sultoniy, vaqf, tanho, jogir, mulk

54. Qaysi davlatda yer egaligining "jogir" deb atalgan turi bo'lgan?
A) Xiva xonligida qo'ng'irotlar davrida
B) Buxoro xonligida ashtarxoniylar davrida
C) Buxoro xonligida shayboniylar davrida
D) Buxoro amirligida mang'itlar davrida

55.Shayboniyxonning qaysi siyosati mahalliy hukmdorlar va zamindorlarning keskin noroziligiga sabab bo`ldi?
A) bo`ysunishni istamagan mahalliy hukmdorlar mustaqilligini tugatishga, ayrim hukmdorlarni almashtirishga harakat qildi
B) bosib olgan yerlarni faqat o`zining farzandlari va qarindoshlariga bo`lib berdi
C) yerdan soliq olishda mahaliy hukmdorlar bilan oddiy aholi vakillaridan bir xil miqdorda olish e`lon qildi

D) bo`ysundirilgan mahaliy mulkdorlar va yirik yer egalarining barcha imtiyozlarini bekor qildi

56.Quyidagi javoblardan noto`g`ri ko`rsatilgan ma'lumotni aniqlang.
A) Shayboniylar davrida mehnatkashlarning iqtisodiy ahvoli nochor edi.
B) Shayboniylar davrida ko'pchilik omma yersiz bo'lib, ijaraga yer olib ishlashga majbur edi.
C) Asosiy soliq sug'oriladigan yerdan olinadigan xiroj bo`lib, daromadning 30 — 40 foizini tashkil qilardi.
D) Davlat qurg`oqchilik yuz berganda favqulodda soliqlar ham joriy etilgan.

57. Qaysi javobda Shayboniylar davlatida undirilgan ixrojot soliq turining ta'rifi keltirilgan?
A) diniy idoralar va diniy lavozimlarni saqlash uchun olinadigan soliq
B) har bir kishidan olinadigan jon solig'i
C) davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq
D) sug'oriladigan yerlardan olinadigan soliq turi bo'lib, daromadning 30-40 foizini tashkil qilgan

58.Shayboniylar davlatida ixrojot soliq turi nima maqsadda undirilgan?
A) sug'oriladigan yerlardan olinadigan soliq turi bo'lib, turli suv inshootlarini qurish va ta'mirlash xarajatlarini qoplash uchun
B) davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun
C) har bir kishidan olinadigan jon solig'i bo'lib, davlat mudofaasini ta'minlash uchun
D) diniy idoralar va diniy lavozimlarni saqlash uchun

## 7- §. Buxoro xonligining tashqi siyosati.

1.XVI asrda Shayboniylar va Boburiylar o'rtasida olib borilgan faol elchilik munosabatlanga asos solgan shaxslarni aniqlang.
A) Ubaydullaxon va Avrangzeb
B) Imomqulixon va Jahongirshoh
C) Abdullaxon II va Akbarshoh
D) Ko'chkunchixon va Bobur

2. Hindistondagi Boburiylar saltanati davlati munosabatlari bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'rnatilishi kimlarning nomi bilan bog'liq?
A) Bobur va Ko'chkunchixonlar
B) Bobur va Sayboniyxonlar
C) Xumoyun va Ubaydullaxonlar
D) Akbarshoh va Abdullaxon II lar

3. Kimning hukmronligi davrida Buxoro xonligi Boburiylar davlatini tan oldi hamda u bilan savdo va elchilik munosabatlarini o'rnatdi?
A) Shayboniyxon B) Ko'chkunchixon
C) Ubaydullaxon D) Abdullaxon II

4. Quyidagi qaysi shayboniy hukmdorning elchisi xon tomonidan Boburiylar davlati hukmdoriga Movarounnahrning mashhur mayizlaridan, subxoni o'riklaridan va boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga yuklangan sovg'a-salomlari qatorida tortiq qilingan 200 ta yaxshi ot olib kelganligi manbalarda qayd etilgan.
A) Shayboniyxon B) Ko'chkunchixon
C) Ubaydullaxon D) Abdullaxon II

5. Kim fuqarolari turli din va diniy yo'nalishlarga e'tiqod qiluvchi davlatlarning bir-biriga toqat qilib yashashlari tarafdori, diniy bag'rikenglikni davlat siyosati darajasiga ko'targan hukmdor edi?
A)Shayboniyxon B)Abdullaxon II C)Bobur D)Akbarshoh

6. Qaysi javobda shayboniy Abdullaxon II bilan boburiy Akbarshoh o'rtasida amalga oshirilgan to'rtta elchilik aloqalari yillari ularda ko'tarilgan masalalar bilan to'g'ri moslashtirilgan?
1) Badaxshonning fath etilish sabablarini tushuntirish zarurati; 2) Eronni to'g'ridan to'g'ri taqsimlab olish; 3) Boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujumlarga qarshi ittifoq tuzish; 4) Turkiyaga qarshi urushda Eronga birgalikda yordam ko'rsatishni ma'lum qilishi;
a) 1572-yil; b) 1577-yil;
c) 1585-vil: d) 1586-yil.
A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c B) 1-d [illegible]
C) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d D) 1-b. 2-a. 3-d. 4-c

7. 1577-yilda boburiy Akbarshoh huzuriga shayboniy Abdullaxon II tomonidan yuborilgan elchilar qanday maqsadni ko'zlagan edi?
A) Badaxshonning fath etilish sabablarini tushuntirish zarurati
B) Eronni o'zaro to'g'ridan-to'g'ri taqsimlab olish
C) Boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujumlarga qarshi ittifoq tuzish
D) Turkiyaga qarshi urushda Eronga birgalikda yordam ko'rsatish

8. 1572-yilda boburiy Akbarshoh huzuriga shayboniy Abdullaxon II tomonidan yuborilgan elchilar qanday maqsadni ko'zlagan edi?
A) Turkiyaga qarshi urushda Eronga birgalikda yordam ko'rsatish
B) Eronni o'zaro to'g'ridan - to'g'ri taqsimlab olish
C) Boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujumlarga qarshi ittifoq tuzish
D) Badaxshonning fath etilish sabablarini tushuntirish zarurati

9. 1585-yilda boburiy Akbarshoh huzuriga shayboniy Abdullaxon II tomonidan yuborilgan elchilar qanday maqsadni ko'zlagan edi?
A) Turkiyaga qarshi urushda Eronga birgalikda yordam ko'rsatish
B) Badaxshonning fath etilish sabablarini tushuntirish zarurati
C) Boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujumlarga qarshi ittifoq tuzish
D) Eronni o'zaro to'g'ridan-to'g'ri taqsimlab olish

10. 1586-yilda boburiy Akbarshoh saroyidan shayboniy Abdullaxon II huzuriga kelgan elchilar qanday masalalarni ko'zlagan edi?
A) Boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujumlarga qarshi ittifoq tuzish
B) Turkiyaga qarshi urushda Eronga birgalikda yordam ko'rsat'ish
C) Eronni to'g'ridan to'g'ri taqsimlab olish
D) Badaxshonning fath etilish sabablarini tushuntirish zarurati

11.Akbarshoh tez orada Hindistonning shimolidagi Sind va Kashmirni egallaydi. Buxoro xonligi bu voqeani Hindistonning shayboniylar davlatining qaysi chegarasida yaqinlashuvi deb hisobladi?
A) shimoliy B) janubiy C) g'arbiy D) sharqiy

12. Akbarshoh tomonidan qaysi hududlarning egallanishini Buxoro xonligi Hindistonning shayboniylar davlatining janubiy chegaralariga yaqinlashuvi deb hisoblaganlar?
A) Sind va Kashmirni
B) Sind va Badaxshonni
C) Badaxshon va Kashmirni
D) Kobul va Kashmirni

13.Nima uchun Abdullaxon II Eronga yordam ko'rsatish to'g'risidagi ittifoqqa rozi bo'lmaydi?
A) shayboniylar davlati Eronni o'zining asosiy dushmanlaridan biri deb bilgani uchun
B) shayboniylar davlatining Eronni bir qismini bosib olgan Turkiya bilan munosabatlari yaxshiligi tufayli
C) yordam ko'rsatishdan foyda yo'qligi sababli
D) Eron shayboniylar davlatini o'zining asosiy dushmanlaridan biri deb hisoblagani uchun

14.Abdullaxon II 1585-yilda uchinchi marta elchi yubordi. Elchi Akbarshohga topshirgan maktubda Abdullaxon Badaxshonning egallab olinishi sabablarini tushuntirishga harakat qilgan edi. Abdullaxonning fikricha,...
A) Badaxshonda o'zbek qabila vakillari mahalliy aholi tomonidan tazyiq ostiga olinayotganligi, ularning mulklari tortib olinib, talon taroj qilinayotganligi tushuntiriladi.
B) musulmonlarning muqaddas shaharlari bo'lgan Makka va Madinaga boradigan yo'l Badaxshon orqali o'targanligi tufayli bu yo'lni g'ayridinlardan tozalash maqsadida Badaxshonni egallaganini bildiradi.
C) Badaxshondan o'tayotgan katta savdo karvonining talanishi va uning aybdorlari

bo'lmish Badaxshon hokimini jazolash maqsadida egallanganligi bildiriladi.
D) Eronga boradigan yo'l Badaxshon orqali o'tganligi va bu hududni egallash umumiy dushman bo'lmish safaviylarga zarba berish maqsadida bosib olinganligi tushuntiriladi

15. XVI asrning oxirlarida Buxoro va Hindiston o'rtasida ma'lum muddat sovuqlik tushishining sababi nima-da edi?
A) Akbarshoh safaviylar tomonida turib Abdullaxon II ga qarshi harakatlar olib borgan edi
B) Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min Akbarshohga maktub yo'llab, noma'qul shartlar qo'ygan edi
C) Akbarshoh Buxoroda shayboniylarga qarshi isyon uyushtirgan edi
D) Akbarshoh elchilari Abdullaxon II tomonidan qabul qihnmay, quvg'in qilingan edi

16. Manbalarda qayd etilishicha, Muhammad Shayboniyxon Eron safaviylariga qarshi kurash to'g'risida Turk sultonlaridan kim bilan shartnoma tuzgan?
A) Murod II B) Mexmed VI C) Boyazid II
D) Sulton Salim

17. Qachon turk sultoni Sulton Salim huzuriga shayboniylar elchisi borgan?
A) 1510-yilda B) 1512-yilda
C) 1515-yilda D) 1517-yilda

18. Sulton Salim Buxoro xonligiga elchi orqali maktub yuborib, maktubida kimni Eronda qarshi kurashga chaqiradi?
A) Shayboniyxonni B) Ko'chkinchixonni
C) Ubaydullaxonni D) Navro'z Ahmadni

19. XVI asrda Turkiya Buxoro xonligining ichki ishlariga ham aralashgan. Chunonchi, shayboniyzodalarning Movarounnahr taxti uchun kurashida Turkiya kimga yordam uchun harbiy kuch ham jo'natgan?
A) Buxoro hukmdori Ubaydullaxon ibn Mahmud Sultonga
B) Samarqand hukmdori Ko'chkinchixon ibn Abulhayrxonga
C) Toshkent hokimi Baroqxon Navro'z Ahmadxon ibn Suyunchxo'jaxonga
D) Balx hokimi Pirmuhammad ibn Sulaymon Sultonga

20. Turkiya kimning qarorgohida 300 nafar turk askarini doimiy xizmatga yuborib, qurol-aslaha bilan ham ta'minlab turgan?
A) Buxoro hukmdori Ubaydullaxon ibn Mahmud Sultonning
B) Samarqand hukmdori Ko'chkinchixon ibn Abulhayrxonning
C) Toshkent hokimi Baroqxon Navro'z Ahmadxon ibn Suyunchxo'jaxonning
D) Balx hokimi Pirmuhammad ibn Sulaymon Sultonning

21. Ma'lumki, XVI asrda xalqaro va o'zaro munosabatlarda shayboniylar, safaviylar va boburiylarning ma'nfaatlari to'qnashadi. Bunda eng katta ahamiyatga ega bo'lgan geografik hududni belgilang.
A) Movarounnahr hududi
B) Xuroson hududi
C) Afg'oniston hududi
D) Shimoliy Hindiston hududi

22. Ma'lumki, XVI asrda Osiyoning bir biriga tutash qismida uch siyosiy kuch kurash maydoniga chiqqan edi. Ularning manfaatlari to'qnashgan nuqtani aniqlang.
A) Damashq B) Urganch C) Choch
D) Xuroson

23. Shayboniylar davrida Buxoro va Eron munosabatlari to'qnashgan asosiy nuqtani aniqlang.
A) Samarqand B) Ko'histon C) Xuroson
D) Hirot

24. Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan. Bu masalada kimlarning hukmronligi davrida shayboniylar ustunlik qildilar?
A) Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II
B) Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkinchixon va Abdullaxon II
C) Ko'chkinchixon, Ubaydullaxon va Abdulazizxon
D) Ubaydullaxon, Abdulazizxon va Abdullaxon II

25. Quyidagi hukmdorlardan qaysi biri Xurosonning Marv, Nishopur va Mashhad kabi yirik shaharlarini egallagan?
A) Shayboniyxon B) Ko`chkinchixon
C) Ubaydullaxonni D) Abdullaxon II

26. Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari qaysi davrdan rivojlana bordi?
A) XVI asrning I yarmida
B) XVI asrning II yarmidan
C) XVII asrning boshlarida
D) XVII asrning o'rtalarida

27.Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu bilan qanday maqsadni ko'zlagan edi?
A) Podsho Ivan Grozniyning xonlik bilan chegaradosh Sibir hududlariga bo'lgan yurishlarini to'xtatishni rejalashtirgan edi
B) Zamonaviy qurol-yarog' masalasida Ivan Grozniydan yordam so'rashni ko'zlagan edi
C) Savdo aloqalarini yaxshilash orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga erishmoqchi edi
D) Savdo aloqalarini yaxshilash orqali Rossiya davlati bilan harbiy ittifoq tuzmoqchi edi

28. Rossiya podsholigi tomonidan 1552-yilda bosib olingan hududni aniqlang.
A) Hojitarxon xonligi B) Vo'lga bo'ylari
C) G'arbiy Sibir D) Qozon xonligi

29. Qaysi hol XVI asrda Rossiyaga savdo yo`llarini nazorat qilish imkonini berdi?
A) Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli savdo yo`llarini shimolga ko`chganligi
B) Ivan Grozniy davrida Qozon xonligi, Hojitarxon xonligi, Volga bo`ylari va G`arbiy Sibirni bosib olishi
C) janubdan o`tadigan savdo yo`llarining xavfliligi
D) G`arbiy Yevropa davlatlarining Usmonli turklardan zarbasidan so`ng

30.Abdullaxon II tomonidan Moskvaga yuborilgan elchilar o`z xonlari nomidan savdogarlarning qaysi hudud bo`ylab erkin o`tishlariga ijozat so`raydilar?
A) Chu bo`ylab B) Ob bo`ylab
C) Irtish bo`ylab D) Volga bo`ylab

31.Nima sababdan XVI asrda Rossiya Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi?
A) Buxoroning oltinlariga ega bo`lish
B) Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligi va Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo`lardi
C) Buxoro orqali boshqa Sharq davlatlariga o`z ta'sirini o`tkazish
D) "Moskva savdo kompaniyasi"ning bo`limlarini ochish

32. XVI asrda Rossi ning Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ish ini rivojlantirishidan birinchi navbatda qayerga chiqish maqsadi hisobga olingan edi?
A) Eronga B) Hindistonga C) Turkiyaga
D) Afg'onistonga

33. Qaysi podsho davrida Rossiya Buxoro o'rtasida savdo aloqalari ayniqsa kuchayadi?
A) Mixail Romanov B) Ivan Grozniy
C) Vasiliy Shuyskiy D) Vasiliy II

34. Quyidagi qaysi elchilik natijasida Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi faol diplomatik va savdo aloqalari boshlanib ketgan edi?
A) Imomqulihon elchilarining Moskvaga kelishi natijasida
B) Shoxniyozhonning elchilari Pyotr I saroyiga kelishi natijasida
C) F. Bensvini elchiligi natijasida
D) A.Jenkinson elchiligi natijasida

35. O'rta Osiyoga 1558- yilda kelgan ingliz sayyohi va savdogari A.Jenkinson qaysi tashkilot vakili edi?
A) "Moskva savdo komponiyasi"
B) "Ost Xindiston"
C) "Vest Xindiston"
D) "Merkuriy"

36. Inglizlarning Rossiya orqali O'rta Osiyo va Eronga yo'l ochilgan "Moskva kompaniyasi" qachon paydo bolgan edi?
A) 1553-yilda B) 1551-yilda C) 1555-yilda
D) 1556-yilda

37. Buxoro hukmdorlaridan Abdullaxon II ning faoliyatiga bog'liq quyidagi tarixiy voqealar orasidan bir yilda sodir bo'lganlarini toping.
1) Abdullaxon II ning Eronni o'zaro taqsimlab olish taklifi bilan Hindiston hukmdori Akbarshoh huzuriga o'z elchisini jo'natishi; 2) Buxoroda yirik usti berk bozor - Abdullaxon timining qurilishi; 3) Abdullaxon II tomonidan Badaxshonning egallanishi;
4) Abdullaxon II qo'shini Tavakkal qo'shinini tor-mor etib, Movarounnahr hududini qozoqlar bosqinidan ozod etishi
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 3, 4

## 8- §. XVI asrda Buxoro xonligida madaniy hayot.

1.Quyidagi javoblar orasidan to'g'risini toping.
A) XV asrda uchta harbiy siyosiy kuch shayboniylar, safforiylar, boburiylar kurash maydoniga chiqdilar.
B) Hofiz Tanish Buxoriyning "Shayboniynoma" asari o'zbek tilida yozilgan va Shayboniyxonning harbiy yurishlariga bag'ishlangan.
C) Shayboniylar temuriylar davrida yurtimizda yaratilgan yuksak rivojlangan madaniyatga munosib voris bo'la olmagan.
D) 1558-yilda "Ost-Indiya"savdo kompaniyasi vakili Antoniy Jenkinson Abdullaxon II qabulida bo'ldi.

2.Quyidagilardan noto'g'ri javobni aniqlang.
A)Muhammad Shayboniyxon Buxoro va Samarqandni temuriylardan so'ng fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlantirishga harakat qildi
B) Shayboniylar davrida tibbiyot, matematika va astronomiya kabi fanlar m'alum darajada rivojlangan
C)Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon va Abdullaxonlar kutubxonalari o'z zamonasining ajoyib kitob xazinalari bo'lgan.
D)Shayboniylar temuriylar davrida yurtimizda yaratilgan yuksak rivojlangan madaniyatga munosib voris bo'la olganlar.

3.Ma'lumki. XVI asrda fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bu rivojlanishga ta'sir ko'rsatgan sababini aniqlang?
A) Shayboniyxon tomonidan suyurg'ol tuzimining joriy qilinishi
B) Shayboniylar sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib chiqqanligi
C) Shaybiniyxon tomonidan amalga oshirilgan ta'lim islohati natijasida
D) Shayboniylar tomonidan amalga oshirilgan pul islohati natijasida

4. Quyidagi shayboniy hukmdorlaridan qaysi birlari o'z davrining nihoyatda o'qimishli kishilari bo'lganlar?
A) Shayboniyxon, Abdullaxon II, Ubaydullaxon
B) Shayboniyxon, Suyunchxojaxon, Kuchkinchxon, Abdullaxon II
C) Shayboniyxon, Kuchkinchixon, Ubaydullaxon
D) Suyunchxojaxon, Kuchkunchixon, Abdullaxon II, Pirmuhammad

5. Quyidagi shayboniy hukmdorlaridan qaysi birlari kutubxonalaridan o'z zamonasining ajoyib kitob xazinalari bo'lgan?
A) Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II
B) Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon, Abdullaxon II
C) Muhammad Shayboniyxon, Kuchkinchixon, Ubaydullaxon
D) Suyunchxojaxon, Kuchkunchixon, AbdullaxonII

6. Shayboniy hukmdorlardan kimlar ilm, fan, ma'rifat homiylari edi?
A) Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, AbdullaxonII
B) Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon, AbdullaxonII
C) Muhammad Shayboniyxon, Kuchkinchixon, Ubaydullaxon
D) Suyunchxojaxon, Kuchkunchixon, AbdullaxonII

7.Quyidagi qaysi shayboniy hukmdor Buxoro va Samarqandni temuriylardan so'ng fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlantirishga harakat qildi?

A) Muhammad Shayboniyxon
B) Ko'chkunchixon
C) Ubaydullaxon D) Abdullaxon II

8. Shayboniylar tomonidan ta'limni rivojlantirish sohasida islohat o'tkazilishining sababini aniqlang.
A) barcha sohalar bo'yicha ilmli amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish
B) aniq va tabiiy fanlarda erishilgan yutuqlarni keng ommaga yetkazish
C) Yevropaning rivojlanib ketish sabablarini o'rganish va unga imkon qadar yetib olish
D) Temuriylar davridan yetib kelgan ilmiy muassasalarni yanada rivojlantirish

9. Shayboniylar ta'lim sohasidagi islohatga ko`ra ...
A) bolalarga 7 yoshdan ta`lim beriladigan bo`ldi.
B) amaldorlar guruhuni shakllantiradigan ta`lim tizimini joriy qilindi.
C) har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi.
D) kasb-hunar ta`lim tizimi joriy etildi.

10. Shayboniyxon o`tkazgan islohotga ko'ra,...
1) ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi;
2) har bir mahallada maktab ochildi;
3) xattotlar tayor-laydigan maktablar ochildi;
4) qorilar o`qitiladigan maxsus maktablar ochildi; 5) ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi; 6) Bolalarga 6 yosh-dan ta'lim beriladigan bo`ldi; 7) Madrasada ikki bosqichli ta`lim joriy etilib, 7-12 yil davomida o`qitiladi; 8) Maktabda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi.
A) 1,3,5,6,8 B) 1,2,5,6,8 C) 2,4,5,6,7
D) 1,2,5,6,7

11.XVI asrda madrasalarda o`quvchilar qanday fanlardan ilm olardi?
1) falakiyot; 2) ilohiyot ilmi; 3) hisob-kitobdan; 4) tarix; 5) handasa; 6) fiqh; 7) mantiq; 8) musiqa; 9) notiqlik; 10) she'r san'ati.
A) 1,3,5,6,8,10 B) 2,3,5,6,7,8,10
C) 1,2,4,5,6,7,9 D) 2,4,5,6,7,8,9

12. Shayboniylar davrida quyidagi qaysi fanlar ma'lum darajada rivojlangan?
1) tibbiyot; 2) fiqh; 3) matematika; 4) astronomiya; 5) tarix
A) 1,3,4 B) 1,2,3 C) 1,3,5 D) 1,4,5

13.Quyidagilardan qaysi biriga "iftixor ul-attibo"("tabiblar iftixori") unvoni berilgan?
A) Kamohddin Ibrohim
B) Xoja Muhammad
C) Muhammad Mazid
D) Qiyomiddin Shaydo

14.Shayboniylar hukmronligi davrida ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan tabiblar nomi ko'rsatilgan qatorni belgilang.
A) Xoja Muhammad B) Muhammad Mazid
C) Shohali ibn Sulaymon
D) Abdulhakim ibn Sulton

15. Quyidagi allomalardan matematika fanining rivojiga munosib hissa qo`shganlarini aniqlang.
1) Muhammad Mazid; 2) Muhammad Amin; 3) Shohali ibn Sulaymon; 4) Bobokalon Samarqandiy; 5) mavlono Kavkaviylar; 6) Sultonali Samarqandiy; 7) Muhammad Husayni Buxoriy; 8) Mahmud ibn Ahmad Faroziy.
A) 1,3,5,6,8 B) 1,3,5 C) 2,4,5 D) 2,7,8

16. Quyidagi allomalardan astranomiya fanining rivojiga munosib hissa qo`shganlarini aniqlang.
A) Muhammad Mazid, Muhammad Amin
B) Shohali ibn Sulaymon, Bobokalon Samarqandiy
C) mavlono Kavkaviylar, Sultonali Samarqandiy
D) Muhammad Husayni Buxoriy, Mahmud ibn Ahmad Faroziy

17. Astronomiya ilmi rivojiga munosib hissa qo'shgan "Oy fazolarining tengligi haqida risola" asarining muallifini aniqlang?
A) Mahmud ibn Ahmad Faroziy
B) Muhammad Husayn Buxoriy
C) Tursun Zominiy
D) Sultonali Samarqandiy

18.Quyidagi asarlarning mualiflari bilan moslashtiring.
1)„Davolash bo'yicha dastur"; 2)„Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob"; 3)„Qibla tomonini topish ma'rifati"; 4)„Oy fazolarining tengligi haqida risola"
a) Ubaydulloh Kahhol; b) Sultonali Samarqandiy; c) Mahmud ibn Ahmad Faroziy; d) Muhammad Husayni Buxoriy;
A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c
C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b D) 1-b, 2-b, 3-d, 4-c

19. Qaysi javobda quyidagi tarixchi olimlarning asarlari to'g'ri ko'rsatilgan?
1) Muhammad Haydar; 2) Hofiz Toshkandiy; 3) Fazlulloh ibn Ro'zbexon; 4) Hofiz Tanish Buxoriy;
a) "Mehmonnomayi Buxoro";
b) "Sharhnomayi shohiy"; c) "Tarixi Rashidiy"; d) "Tarixi jadidai Toshkand"
A) 1 - c; 2 - d; 3 - a; 4 - b
B) 1 - b; 2 - a; 3 - d; 4 - c
C) 1 - c; 2 - a; 3 - d; 4 – b
D) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 – b

20.Quyidagi asarlarni mualliflari bilan to'g'ri joylashtiring:
a)„Mehmonnomayi Buxoro";
b)„Abdullanoma"; c)„Sharhnomayi shohiy"
1)Hofiz Tanish Buxoriy;2)Fazlulloh ibn Ro'zbexon;
A)1-a,b;2-c B)1-b,c;2-a
C)1-a;2-b,c D)1-b;2-a,c

21. K. Binoiyning „Shayboniynoma" asari Dashti Qipchoq va Movarounnahrning nechanchi asrlarda bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga oladi?
A) XV asr o'rtalaridan XVI asr boshlarigacha
B) XV asr oxirlaridan XVI asr o'rtalarigacha
C) XVI asr boshlaridan shu asrning oxirigacha
D) XV asr 80-yillaridan XVI asr 60-yillarigacha

22. Qaysi asarda shayboniylar bilan Eron safaviylari o'rtasidagi munosabatlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan?
A) K. Binoiyning „Shayboniynoma"
B) Muhammad Solihning „Shayboniynoma"
C) Hofiz Tanish Buxoriyning „Abdullanoma"
D) Fazlulloh ibn Ro'zbexonning „Mehmonnomayi Buxoro"

23.Muhammad Solihning „Shayboniynoma"si qaysi tilida yozilgan?
A)arab B)fors C)o'zbek D)uyg'ur

24. Qaysi asar Shayboniyxonning harbiy yurishlariga bag'ishlangan?
A) K. Binoiyning „Shayboniynoma"
B) Muhammad Solihning „Shayboniynoma"
C) Hofiz Tanish Buxoriyning „Sharhnomayi shohiy"
D) Fazlulloh ibn Ro'zbexonning „Mehmonnomayi Buxoro"

25. Shayboniyxonning harbiy yurishlariga bag'islangan asar yozgan mualliflarni aniqlang.
A) Muhammad Haydar va Mahmud ibn Ahmad Faroziy
B) Muhammad Solih va Hofiz Tanish Buxoriy
C) Sultonali Samarqandiy va Muhammad Solih
D) Kamoliddin Binoiy va Muhammad Buxoriy

26. Hofiz Tanish Buxoriyning tarixiy asarida quyidagi qaysi voqealarni o'z ichiga olgan?
1) Chingizxonning Movarounnahr istilosi;
2) Chingiziylar hukronligining o'rnatilishi;
3) Oltin O'rda davlatining tashkil topishi;
4) To'xtamishxonning harbiy yurishlari;
5) Dashti Qipchoqda Abulxayrxon davlatining tashkil etilishi 6) Amir Temur davlati va temuriylar hukmdorlarining harbiy yurishlari; 7) Shay-boniyxonning o'limidan so'ng Movarounnahrda vujudga kelgan ahvol; 8) Ubaydullaxonning Buxoro xonligini tuzish yo'lidagi harakatlari; 9) Abdullaxon II ning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish yo'lida olib borgan kurashi.
A) 1,2,4,6,8 B) 2,3,5,8,9 C) 1,2,5,7,9
D) 2,4,6,8,9

27.Quyidagi qaysi shaxslar shayboniylar davri adabiyotida alohida o'rin tutadi?
1)M. Shayboniy; 2)Ko'chkunchixon; 3)Ubaydullaxon; 4)Binoiy; 5)M.Solih; 6)Abdullaxon II;7) Mushfiqiy

A) 1,2,3,4,5,6,7 B) 1,3,4,5,6,7
C) 1,2,3,4,5,6,7 D) 1,3,4,5,7

28. Umrining asosiy qismini jangu jadallarda o'tkazgan Shayboniyning yozib qoldirgan "Devon"I qaysi shahar kutubxonasida saqlanmoqda?
A) Istanbul B) London C) Parij
D) Sankt-Peterburg

29.Quyidagi qaysi shaxs Buxoroni Ka'ba darajasida ulug'laydi?
A) Muhammad Islom B) M.Solih C) Bedil
D) Shayboniyxon

30. Shayboniyxon o'z she'rlarida qaysi shaharni jannatga qiyoslaydi?
A) Samarqandni B) Buxoroni C) Andijonni
D) Toshkentni

31.Shayboniy Ubaydullaxon qanday taxallus bilan qaysi tillarda ijod qilgan?
A) "Ubayiy" taxallusida fors, arab, tojik va turkiy tillarda
B) "Ubaydiy" taxallusida o'zbek, fors, arab tillarida
C) " Ubaydulla" taxallusida o'zbek, fors va arab tillarida
D) " Ubaydulla" taxallusida fors-tojik, arab va turkiy tillarda

32.Muhammad Shayboniyxonning jiyani qaysi taxallus bilan ijod etgan?
A) "Qul Ubaydiy" B) "Shoyboqxon"
C) "Mushfiqiy" D) "Sultoniy"

33. Quyidagi qaysi tillardagi she'rlari to'plangan devonlari "Kulliyot" ga jamlangan?
A) o'zbek, fors va arab
B) o'zbek, fors va tojik
C) fors, arab va turk
D) o'zbek, fors va hind

34. Adabiyotimizda qaysi asar o'zining yuksak badiiy saviyasi va tilining soddaligi bilan ajralib turadi?
A) M.Solihning „Shayboniynoma"si
B) Bedilning "Irfon"asari
C) Sayido Nasafiyning "Hayvonotnoma"si
D) Mahmud ibn Valining"Sirlar dengizi"

35. Abdullaxon II saroyida xizmat qilgan va „Malik ush-shuaro" unvoniga sazovor bolgan shoir kim?
A)Bedil B)Nasafiy C)M.Solih D)Mushfiqiy

36. Abdullaxon II saroyida xizmat qilgan qaysi shoir o'z she'rlarida yuqori tabaqa vakillarining adolatsizliklarini ayovsiz fosh etgan?
A) Mahmur B) Mushfiqiy
C) Mujrim Obid D) Turdi Farg'oniy

37.Quyidagi qaysi madrasa gumbazining balandligi 22 metrni tashkil etadi?
A)Mir Arab B)Abdullaxon C)Shayboniyxon
C)Baroqxon

38. Shayx Abdulla tomonıdan qurilgan madrsani aniqlang.
A) Mir Arab B)Abdullaxon C)Shayboniyxon
C)Baroqxon

39. Qaysi madrasani qurish uchun sarflangan xarajatlarni Buxoro xoni Ubaydullaxon bergan?
A) Baroqxon B) Mir Arab C) Ko'kaldosh
D) Abdullaxon

40. Baroqxon madrasasi qaysi shaharda bunyod etilgan?
A) Samarqand B) Buxoro C) Toshkent
D) Ko'hna Urganch

41. Gumbazining balandligi 22 metrni tashkil etadiean Baroqxon madrasasini qurdirgan Baroqxon aslida kim bo'lganligini toping.
A) Ubaydulloxonning o'g'li
B) Jonibek Sultonning o'g'li
C) Suyunchxo'jaxonning o'g'li
D) Ko'chkunchixonning o'g'li

42. Buxorodagi Mir Arab madrasası nechanchi yillar davomida qurilgan?
A) 1530-1533-yillar B) 1530-1535-yillar
C) 1530-1536-yillar D) 1530-1540-yillar

43. Mashhur Mir Arab madrasası qurilishi davom etgan davrga xos bo lmagan voqeani aniqlang.
A) Ivan Grozniy tug'ilgan
B) Abdullaxon II tug'ilgan

C) Hindistonda Humoyun hukmronligi boshlangan
D) Ubaydullaxon Xorazmni egallagan

44. Mashhur Mir Arab madrasasiga tegishli ma'lumotlarni not`g`risini aniqlang.
A) Madrasa bugungi kunda ham islom oliy diniy o'quv muassasasidir.
B) Madrasa ulkan peshtoqli.Ikki yonida baland gumbazli keng darsxona, masjid va go'rxona bor.
C) Go'rxonada Ubaydullaxonning sag'anasi va Mir
Arab hamda uning qarindoshlarining qabrlari bor.
D) Uni qurish uchun sarflangan xarajatlarni Shayx Abdulla bergan.

45. Quyiaagi elchilardan qaysi biri shay-boniylar davri qurilishi va me'morchiligiga yuksak baho bergan edi?
A) Antoni Jenkinson B) Ivan Xoxlov
C) Richard Byorns
D) Ah Rizo Muhammad

46. Qaysi javobda Buxoroda Shayboniylar hukmronligi davrida qurilgan me'morchilik yodgorliklari ko'rsatilgan?
1) Mag'oki Attori masjidi; 2) Sherdor madrasasi; 3) Timi Kalon; 4) Tillakori madrasasi; 5) Govushkon madrasasi;
6) Abdullaxon madrasasi; 7) Safed madrasasi
A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 2, 4, 7
C) 4, 5, 6, 7 D) 1, 3, 5, 6

47. Quyidagi qaysi javobda Buxoroda barpo etilgan (1577-yil) usti berk gumbazli savdo rastasi nomi keltirilgan?
A) "Abdullaxon timi" B) "Govkushon"
C) "Toqi muqaddas" D) "Xonbandi"

48.XVI asrning II yarmida shayboniylar sulola-sidan bo'lgan qaysi hukmdor davrida o'zbek davlatchiligi o'zining yuksak darajasiga ko'tarila olganligini aniqlang.
A) Ubaydullaxon davrida
B) Abdullaxon II davrida
C) Shayboniyxon davrida
D) Ko'chkunchixon davrida

49.Kimning yurt obodonchiligi yo'lidagi sa'yharakatlari tarixchilar tomonidan yuksak baholangan?
A) Shayboniyxon B) Ubaydullaxon
C) Abdullaxon I D) Abdullaxon II

50.Qaysi sabab tufayli Abdullaxon II davrida katta qurilish ishlari amalga oshirilgan?
A) muvaffaqiyatli iqtisodiy islohotlar tufayli
B) markaziy hokimiyat kuchayishi
C) hunarmandchilikning yuksak ravnaqi
D) ichki va tshqi savdoning rivoji

## II-bob. ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGI.

### 9- §. Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi.

1.Shayboniylarga amakivachacha ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan qachondan boshlab Ashtarxon xonligida (Hoji Tarxon, Astraxan) hukmronlik qilganlar?
A) XIV asr-ning 80-yillaridan
B) XV asrning 80-yillaridan
C) XV asrning 40-yillaridan
D) XVI asrning 60-yillaridan

2. XIV asrning 80-yillaridan Ashtarxon xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniylarning davlatini ruslar qanday atashgan?
A) Hoji Tarxon B) Astraxan C) Ashtarxon
D) Asmaxon

3. Iskandarxon qizi Zuhrabegim kimga turmushga berilgan?
A)Yormuhammadxonga B)Jonibek Sultonga
C) Boqi Muhammadga D) Shayboniyxonga

4. Shayboniylar sulolasidan munosib taxt vorisi qolmagach, kim xonlik taxtiga eng munosib nomzod bo'lib qoldi?
A) Pirmuhammad B) Jonibek Sulton
C) Abdulmo'min D) Boqi Muhammad

5. Jonibek Sulton kimning foydasiga taxtdan voz kechgan?
A) Din Muhammad B) Boqi Muhammad
C) Vali Muhammad
D) U taxtdan voz kechmagan

6. To'g'ri javob bilan to'ldiring. 1601 yilda Jonibek Sultonning ...Buxoro taxtiga o'tqazildi.
A) birinchi o'g'li Buxoro hokimi Din Muhammad
B) ikkinchi o'g'li Samarqand hokimi Boqi Muhammad
C) uchunchi o'g'li Toshkent hokimi Vali Muhammad
D) jiyani Balx hokimi Pirmuhammad

7.Quyidagi qaysi shaxs 1601-yilda Buxoro taxtiga o'tirgan Ashtarxoniylar sulolasining birinchi vakili hisoblanadi?
A) Imomqulixon B) Boqi Muhammad
C) Vali Muhammad D) Pirmuhammad

8.Jonibek Sultonning ikkinchi o'g'li qaysi hududning hokimi hisoblangan?
A) Buxoroning B) Samarqandning
C) Toshkentning D) Miyonqolning

9. Buxoro xonligi tarixida yangi ashtarxoniylar sulolasining hukmronligi qachondan boshlangan?
A) 1480-yilda B) 1600-yilda
C) 1601-yilda D) 1602-yilda

10. Qaysi javobda Buxoroda hukmronlik qilgan birinchi Ashtarxoniy va so'nggi Shayboniy hukmdorlar nomi keltirilgan?
A) Vali Muhammad, Abdulmo'min
B) Vali Muhammad, Pirmuhammadxon
C) Boqi Muhammad, Abdulaziz
D) Boqi Muhammad, Pirmuhammadxon

11.Tarixdan ma'lumki, Shayboniylar sulolasidan taxt vorisi qolmagach, Buxoro taxtiga eng munosib nomzod Jonibek Sulton bo'lib qoladi. Lekin u kimning foydasiga taxtdan voz kechadi?
A) Vali Muhammad B) Din Muhammad
C) Boqi Muhammad D) Imomqulixon

12. Shayboniylarga amakivachcha bo'lgan ashtarxoniylar qachondan boshlab Ashtarxon xonligida hukmronlik qila boshlagan?
A) XVI asr o'rtalaridan
B) XIV asrning 80-yillaridan
C) XV asrning 20-yillaridan
D) XVII asr boshlaridan

13. Qaysi javobda Ashtarxoniylar sulolasiga mansub hukmdorlar hukmronlik yillari bo'yicha to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirilgan?
1) Vali Muhammad; 2) Abdulazizxon;
3) Imomquli-xon; 4) Boqi Muhammad;
5) Subhonqulixon; 6) Ubay-dullaxon;
7) Nodir Muhammad; 8) Abulfayzxon
A) 7, 6, 4, 2, 1, 3, 5, 8 B) 1, 4, 7, 3, 5, 2, 8, 6
C) 4, 1, 3, 7, 2, 5, 6, 8 D) 1, 3, 4, 6, 5, 2, 8, 7

14. Kim mamlakat sarhadlari jipsligini mustahkamlash, boshqaruv tizimini izga solish uchun ko'p urindi?
A) Boqi Muhammad B) Vali Muhammad
C) Imomqulixon D) Nodir Muhammad

15. Ashtarxoniylar nechanchi yillarda Balx shahrini egallagan?
A) 1602-y, 1651-y. B) 1603-y. 1655-y.
C) 1604-y, 1656-y. D) 1607-y. 1671-y.

16. Qachon Boqi Muhammad Eron safaviylarining Balxga hujum qilgan qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi?
A) 1601-yil B) 1603-yil C) 1604-yil
D) 1605-yil

17. Quyidagilardan qay biri Boqi Muhammad davrida yuz bermadi?
A) mamlakat sarhadlari jipsligini mustahkamlash, boshqaruv tizimini izga solish uchun ko'p urindi.
B) ichki kurash yana avj oldi, qabila beklari xon hokimiyatiga bo'ysunmay muxolifatchilikni kuchaytirdilar.
C) Eron safaviylariga zarba berib, Balxni kuch bilan bo'ysundirdi va ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi.
D) qozoq xoni Kelimuhammad qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqarib, qator hududlarni Buxoro xonligiga bo'ysundirdi.

18.Nima uchun Buxoro xoni Vali Muhammad Eronga qochadi?
A) Hindiston podshohi Shoh Jahonning Balxni egallashi sababli
B) qozoqlarni Buxoroni bosib olganligi sababli

C) Xiva xonlarining talonchilik yurishlari kuchayishi sababli
D) Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirganligi sababli

19.Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo`shinlarini tor-mor keltirilgach, Vali Muhammad qismati nima bo`ldi?
A) Eronga qochadi va shoh Abbos huzurida panoh topadi.
B) taxtdan voz kechib, Makkaga hajga ketadi va u yerda vafot etadi.
C) Balxga qochib ketadi va toj-u taxtni qaytarib olish maqsadida Hindiston podshohi temuriyzoda Shoh Jahondan yordam so`raydi.
D) Vali Muhammad asir olinib qatl etildi.

20. Ma'lumki, 1611-yilda Rossiyada Minin va Pojarskiy boshchiligida xalq lashkari to`planadi. O`sha yili O`rta Osiyoda....
A) Samarqandda ashtarxoniylarga qarshi qo`zg`olon ko`tarildi
B) Imomqulixon hukmronligi boshlandi.
C) Toshkent hunarmandlarining qo`zg`oloni bo`lib o`tdi.
D) Sherdor madrasasi qurilishi boshlandi.

21. Imomqulixon Toshkent va xonlikning qaysi chegaralari uchun qozoqlar, jung'orlar, qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan?
A) Shimoli-sharqiy chegaralari
B) Shimoli-g'arbiy chegaralari
C) Janubi-sharqiy chegaralari
D) Janubi-g'arbiy chegaralari

22. Qaysi Ashtarxoniy hukmdor davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi?
A) Boqi Muhammad B) Vali Muhammad
C) Imomqulixon D) Nodir Muhammad

23. Rossiyada Romanovlar hukmronligi boshlangan yili O`rta Osiyoda ...
A) Boqi Muhammad Toshkent uchun qozoq sultonlariga qarshi kurashdi.
B) Imomqulixon Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo'shinlarini tor-mor keltirdi.
C) Imomqulixon Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o'z tasarrufiga kiritdi.
D) Qozoqlar yana Movarounnahrga yurish qilib, Xo'jandgacha yetib keladilar.

24..Ashtarxoniy Nodir Muhammad davrida nima sababdan davlatchilik asoslari zaiflashgan edi?
A) asosiy viloyatlarni atrofdagi amirlar va beklarga bo'lib berganligi uchun
B) ichki va tashqi siyosatni vazirlarga topshirib qo'yganligi uchun
C) asosiy viloyatlarni o'g'illari va yaqin qarindosh-lariga bo'lib berganligi uchun
D) Nodir Muhammad olib borgan tinimsiz urushlar tufayli

25.Buxoro xonligi taxtiga Abdulaziz qay tariqa chiqdi?
A) Nodir Muhammadxondan norozi bo`lgan bir guruh amirlar Abdulazizni xon deb e'lon qilishi natijasida
B) Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirganligidan xabar topgan farzandlarini Nodir Muhammadxon olib Eronga qochishi natijasida
C) Eron qo`shinlari Buxoroga bostirib kelishi natijasida
D) Xiva xonlarining talonchilik yurishlari kuchayishi natijasida

26. **Toj-u taxtni qaytarib olish va viloyat hokimlari o'zboshimchaligiga barham berish maqsadida Hindiston podshosi Shohjahonga yordam so'rab murojaat etgan Buxoro hukmdorini aniqlang.**
A) Subhonqulixon B) Valimuhammadxon
C) Abdulazizxon D) Nodir Muhammadxon

27. Buxoro hukmdori Nodir Muhammad toju taxtni o'g'li Abdulazizdan qaytarib olish maqsadida qaysi Hindiston podshosidan yordam so'raydi?
A) Avrangzeb Olamgirdan
B) Shoh Jahondan
C) Bahodirshoh I dan D) Akbarshohdan

28. Quyidagi qaysi shaxs Buxoro taxtini qaytarib olish va viloyat hokimlarining o'zboshimchaliklariga barham berish maqsadida Hindiston podshosi Shohjahonga yordam so'rab murojaat etgan?
A) Abdulazizxon B) Nodir Muhammadxon

C) Valimuhammadxon D) Subhonqulixon

29.Nima uchun Hindistondan yordam so`ragan Nodir Muhammad Shoh Jahon yuborgan qo`shin bilan jang qiladi?
A) Shoh Jahon Eron hukmdori shoh Abbos bilan kelishib, Buxoro xonligiga hujum qilganligi
B) Shoh Jahon o`g`illari Balx viloyatini egallash uchun kelayotganini bilgach
C) Shoh Jahon qozoq xoni Kelimuhammad bilan ittifoqda Buxoro xonligini o`zaro bo`lib olganligi
D) Shoh Jahon Nodir Muhammadga tahqirlovchi sulh taklif etishi

30. Nodir Muhammad bilan Shoh Jahonning o'g'illari o'rtasidagi jang qayerda bo'lgan?
A) Maymana yo'lida
B) Tahrirobod yaqinida
C) Qunduz shaharchasida
D) Murg'ob daryosi bo'yida

31. Ashtarxoniy hukmdorlardan kimlar taxtni qaytarib olish uchun Eron madadidan foydalanishga harakat qilgan?
A) Dinmuhammad va Iskandarxon
B) Boqi Muhammad va Subhonqulixon
C) Abdulazizxon va Vali Muhammad
D) Vali Muhammad va Nodir Muhammad

32. Nodir Muhammad taxtni egallay olmagach taqdiri qanday yakun topadi?
A) taxtdan voz kechib, Makkaga hajga ketadi va u yerda vafot etadi.
B) Makkaga hajga borayotib yo`lda vafot etadi.
C) Nodir Muhammad asir olinib qatl etildi.
D) Eronga qochadi va shoh Abbos huzurida panoh topadi.

33. Ispaniya Gollandiyaning mustaqilligini tan olgan davrda Buxoroda hukmronlik qilgan shaxsni aniqlang.
A) Imomqulixon B) Vali Muhammad
C) Subhonqulixon D) Boqi Muhammad

34. Quyidagi hukmdorlarni Balxni egallagan yillari bilan muvofiqlashtiring.
1) Shayboniyxon: 2)Subxonqulixon;
3) Abdullaxon II; 4) Shohjahon o'g'illari;
a) 1651 yil; b) 1506 yil;
c) 1647 yil; d) 1574 yil;
A) 1-b; 2-a; 3-c; 4-d B) 1-b; 2-d; 3-a; 4-c
C) 1-b; 2-a; 3-d; 4-c D) 1-b; 2-c 3-d; 4-a

35. Quyida berilgan hukmdorlardan qaysi biri toju-taxtidan voz kechib haj safariga jo'nagan.
A) Nodirmuhammadxon B) Anushaxon
C) Abdulazizxon D) Imomqulixon

36.Abdulazizxon ukasi Subhonquli yetakchiligida Balxga katta qo'shin yuborib, Balxni kimdan tortib olgan?
A) Shoh Jahon o`g`illaridan
B) Shoh Abbosdan C) Nodir Muhammaddan
D) Keldimuhammaddan

37. Qaysi hukmdor davrida Xiva xonlarining talonchilik yurishlari kuchayadi?
A) Imomqulixon B) Vali Muhammad
C) Subhonqulixon D) Abdulazizxon

38.Qachon Xiva xoni Abulg'oziyxon katta qo'shin bilan yurish qilib, Buxoro atroflarini ikki bor talon-taroj qiladi?
A) 1651-yilda B) 1655-yilda C) 1658-yilda
D) 1662-yilda

39. Xiva xoni Abulg'oziyxon katta qo'shin bilan Buxoroga yurish qilganda, qaysi hudud aholisining bir qismini asir olgan, qaysi hududni vayronaga aylantiradi?
A) Qorako`l, Vardonze
B) Qorako'l, Karmana
C) Vardonze, Buxoro
D) Buxoro, Samarqand

40. Xiva xoni Abulg'oziyxon Vardonzeni talab, Buxoro shahrigacha yetib borgan yillarni aniqlang.
A) 1655-y; 1662-y. B) 1652-y; 1658-y.
C) 1658-y; 1662-y. D) 1656-y; 1665-y.

41. Ashtarxoniy Abdulazizxonning taxtdan voz kechish sababini aniqlang.
A) tinimsiz urushlar, ichki ziddiyatlar va siyosiy vaziyatning izdan chiqishi
B) amirlar va beklar tomonidan suiqasd uyushtirilishi

C) Subhonqulixon mavqeining nihoyatda kuchayib ketishi
D) Abdulazizxon taxtdan voz kechmagan, uning vafoti tufayli Subhonqulixon taxtga o'tirgan

42. Subhonqulixon hukmronligi davrida kimlarga qarshi kurash olib borganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Balx viloyatida hukmronlik qilayotgan o'g'illariga qarshi; 2) Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirgan qozoq sultonlariga qarshi; 3) Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi;
4) Xiva xoni Anushaxon qo'shinlariga qarshi;
5) Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa qarshi; 6) qalmiq va oyratlarga qarshi.
A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 6 C) 2, 3, 4 D) 1, 5, 6

43. Qaysi Xiva xoni XVII asrning ikkinchi yarmida Samarqandni egallab nomiga xutba o'qitib, o'z nomidan pul ham zarb ettirgan?
A) Shoxniyoz B) Emakxon
C) Anushaxon D) Abulg`ozi

44..Subxonqulixonga Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqarishga yordam bergan Badaxshon hokimi Mahmudbiy qaysi urug'dan edi?
A) qatag'on B) yuz C) ming D) kenegas

45. Subhonqulixon nima uchun Anushaxonga qarshi fitna tayyorlaydi?
A) Xiva xonligini qo`shib olish uchun
B) Xiva hujumiga chek qo'yish uchun
C) O`z o`g`lini Xiva taxtiga o`tqazish uchun
D) Anushaxondan qasos olish uchun

46. Subhonqulixon qachon Xivadagi tarafdorlari xizmatidan foydalanib, xonlikni Buxoro xonligi tasarrufiga oladi?
A) 1658-yilda B) 1662-yilda C) 1688-yilda
D) 1692-yilda

47. Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi Buxoro xonligida qancha vaqt davom etdi?
A) bir asr B) bir yarim asr C) ikki asr
D) ikki asrdan oshiq

48.Qaysi davrlar ichida Turkiston zamini siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlikka yuz tutdi?
A) XVI asrdan XIX asr oxirlariga qadar
B) XVI asrdan XX asr boshlariga qadar
C) XVII asrdan XX asrning boshlariga qadar
D) XVIII asrdan XIX asr o'rtalariga qadar

49.Qaysi javobda Movarounnahrga bostirib kirgan qozoq sultonlariga, qarshi kurash olib borgan Buxoro hukmdorlari to'g'ri ko'rsatilgan?
1) Pirmuhammad; 2) Iskandar Sulton; 3) Boqi Muhammad; 4) Vali Muhammad;
5)Imomqulixon
A) 2, 3, 5 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 4 D) 3, 4, 5

## 10- §. XVIII asming birinchi yarmida Buxoro xonligida siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va uning oqibatlari.

1. 1702-yil taxtga o'tirgan Ubaydullaxon-ning asosiy maqsadi ...
A) pul islohoti o'tkazish edi.
B) siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi.
C) tashqi siyosatni mustahkamlashdan iborat edi.
D) mamlakat sarhadlarini mumkin qadar kengaytirishdan iborat edi.

2. Ubaydullaxon II mamlakatni birlashtirish yo`lida kimlarga qarshi urish olib borishga majbur bo`ldi?
1) isyonkor qabilalarga qarshi; 2) isyonkor o`g`illariga qarshi; 3) bo`ysunmas mahalliy hukmdorlarga qarshi; 4) davlat sarhadlariga bostirib kirgan ko`chmanchilar-ga qarshi;
5) jung`orlardan aziyat chekkan qozoqlarga qarshi; 6) Eronda yashayotgan qizilboshlarga qarshi;
A) 1,2,4 B) 2,3,5 C) 1,3,4 D) 2,5,6

3.Ubaydullaxon II dastlab qaysi shaharni bo'ysundirish yo'lini izladi?
A) Samarqandni B) Termizni
C) Shahrisabzni D) Balxni

4. Kimning davrida Balx Mahmudbiy otaliqqa tortiq etildi?
A) Abdulazizxon B) Subxonqulixon
C) Ubaydullaxon II D) Abulfayzxon

5. Kimning davrida Mahmudbiy Balxda hokimiyatni to'liq o'z qo'liga oladi va o'zini xon deb e'lon qiladi?
A) Abdulazizxon B) Subxonqulixon
C) Ubaydullaxon II D) Abulfayzxon

6. Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq qaysi qabila vakili bo'lgan?
A) kenegas B) qatag'on C) mang'it
D) nayman

7. Subonqulixon Balxni nima uchun Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa topshirgan?
A) o'g'illariga qarshi kurashda yordam bergani uchun
B) alohida xizmatlari uchun
C) ko'chmanchi qabilalarni haydab chiqargani uchun
D) hokimiyatni egallashda yordam bergani uchun

8. Mahmudbiy Balxda o'zini xon deb e'lon qilgan va Ubaydullaxon tomonidan Balxni egallagan yillarni aniqlang.
A) 1702-1704-y.y B) 1704-1706-y.y
C) 1706-1707-y.y D) 1708-1709-y.y

9. Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan Farg'ona vodiysida ham XVIII asr boshlarida ajralib chiqish harakati boshlanib, hokimiyat avval …qo'liga o'tadi.
A) Chust yaqinidagi Chodak xo'jalari
B) ming urug'i boshlig'i Shohruxbiy
C) Badaxshon hokimi Mahmudbiy
D) Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy

10. Ashtarxoniy Ubaydullaxonning taxtdan ketishi sababi va tafsilotini aniqlang.
A) 1711-yilda Balx uchun bo'lgan jangda u dustman tomonidan o'ldirilgan edi
B) Chodak xo'jalari tomonidan fitna uyushtirilib, o'ldirilgan edi
C) ijtimoiy-siyosiy parokandalik kuchayishi natjjasida unga qarshi fitna uyushtirilib, o'ldirilgan edi
D) ijtimoiy-siyosiy parokandalik kuchayishi natijasida u taxtdan voz kechishga majbur bo'lgan edi

11. Kimlar tomonidan Ubaydullaxonga qarshi fitna uyushtirildi va u 1711-yilda o'ldirildi?
A) Ukasi Abulfayzxon tarafdorlari
B) Mustaqillikka intilayotgan viloyat hokimlari
C) Jo'ybor shayhlari tomonidan
D) Chodak xo'jalari tomonidan

12. Qaysi xon kundan kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'lida bir qo'g'irchoq hukmdor edi?
A) Abdulazizxon B) Subxonqulixon
C) Ubaydullaxon II D) Abulfayzxon

13. Kimning davriga kelib, xonning ahvoli shu darajaga borib yetdiki, uning farmonlari saroy ostonasidan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldi?
A) Abdulazizxon B) Subxonqulixon
C) Ubaydullaxon II D) Abulfayzxon

14. Zamondosh tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, kim „Registon (ya'ni Saroyning oldi) tinch bo'lsa bo'lgani", degan gapni doimo takrorlab turgan?
A) Abdulazizxon B) Subxonqulixon
C) Ubaydullaxon II D) Abulfayzxon

15. Abulfayzxon hukmronligi davriga kelib, xonning farmonlari saroy ostonasidan nariga o'tmay qolishiga nima sabab bo'lgan?
A) muntazam qo'shinga ega emasligi
B) xonlik iqtisodiyotining nochorligi
C) amirlar va zodagonlar mavqeyining kun sayin oshib borishi
D) xon bilan amirlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar

16. Xon zarur bo'lganda qayerlardan qo'shin so'rar edi?
A) viloyatlardan B) ko'chmanchilardan
C) tumanlardan
D) qabilalar rahanamolaridan

17. Buxoro hukmdorlik taxtiga akasidan keyin o'tirgan hukmdorlarni aniqlang.
A) Boqi Muhammad, Imomqulixon, Abdulazizxon
B) Vali Muhammad, Ubaydullaxon, Abulfayzxon

C) Vali Muhammad, Subhonqulixon, Abulfayzxon
D) Imomqulixon, Subxonqulixon, Ubaydullaxon

18. Abdulfayzxon davrida kim katta nufuzga ega bo'lib,barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olingan?
A) Muhammad Rahimbiy
B) Muhammad Islom
C) Rajab Sulton
D) Muhammad Hakimbiy

19. Ibrohimbiy qachon Samarqandni egallab, kuyovi Rajab Sultonni taxtga otqazdi?
A)1721-yil B)1722-yil
C)1723-yil D)1725-yil

20. Buxoroda Ashtarxoniy Abulfayzxon hukmronligi davrida Shahrisabz hokimi kim bo'lgan?
A) Mahmudbiy B) Ibrohimbiy
C) Abdulkarimbiy
D) Muhammad Rahimbiy

21. XVIII asrda Ibrohimbiy tomonidan mustaqil Samarqand xonligi tashkil topgan davrda Xiva xonligini boshqargan hukmdorni aniqlang.
A) Abulg'ozi B) Shohniyoz C) Sherg'ozixon
D) Abu Muhammad

22. Ibrohimbiy Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga kirishib, qaysi hudud hokimlari bilan til biriktirgan?
A) Karmana va Kesh
B) G'uzor va Qarshi
C) Urgut va Miyonqol
D) Termiz va Chag'oniyon

23. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga talonchilik yurishlari uyushtirgan qozoqlar kimlarning bosqinidan katta talofot ko'rib, talangan va ocharchilikka mahkum etilgan edi?
A) qipchoq qabilalarining
B) Xiva lashkarlarining
C) Ural kazaklarining
D) jung'or, qalmoq ko'chmanchilarining

24. Abulfayzxon hukmronligi davrida amalda mustaqil bo'lib olgan hududlarni ko'rsating.
1)Samarqand; 2)Toshkent; 3)Qarshi; 4)Shahrisabz; 5)Balx; 6)Hisor; 7)Farg'ona; 8)Badaxshon.
A) 1,2,4,6,7 B) 1,2,3,5,8 C) 1,3,5,7,8
D) 2,4,6,7,8

25. Quyidagi qaysi xon vaqtini ko'ngilxushlikka sarflab, davlat ishlarini deyarli nazorat qilmay qo'ygan?
A) Vali Muhammad B) Nodir Muhammad
C) Abdulazizxon D) Abulfayzxon

26. Eron shohi Nodirshoh ... qarshi zafarli yurishlari-dan so'ng, 1736-yili Buxoro xonligiga qarshi katta qo'shinni safarbar etdi.
A) Kavkaz, Hindiston, Usmonli turklar saltanati va Afg'onistonga
B) Misr, Falastin, Usmonli turklar saltanati va Kavkazga
C) Eron, Shimoliy Iroq, Janubiy Ozarbayjon va Hindistonga
D) Eron, Janubiy Ozarbayjon, Afg'oniston va Hindistonga

27. 1736-yilda Eron shohi Nodirshoh qo'shin-lari kim boshchili-gida qamal qilgan?
A) Rizoqul boshchiligida
B) Alimqul boshchihgida
C) Nodirshoh boshchiligida
D) Amir Xudoydod boshchihgida

28. Eron shohi Nodirshoh Buxoroga yurish qilganda Xiva xoni kim edi?
A) Sherg'ozixon B) Shohniyoz
C) Elbarsxon D) Olloqulixon

29. Eron shohi Nodirshoh Abulfayzxonga Buxoro xonligining taslim bo'lishi shartlarini kim orqali jo'natgan?
A) Muhammad Rahimbiy
B) Muhammad Hakimbiy
C) Doniyolbiy Otaliq D) Rajab Sulton

30.Qaysi sabablar Eron shohi Nodirshohning Buxoroga bo'lgan yurishidagi g'alabani ta'minlagan?
1) muntazam qo'shinning yo'qligi;

2) xonlikdagi ichki nizolar; 3) Xiva xonining Buxoroga yordam bera olmaganligi
A) 1,2 B) 2,3 C) 1,3 D) 1,2,3

31. Nuqtalar o'rniga kerakli hududlar nomlrini to'g'ri qo'ying.
"Miyonqol" Samarqand atrofidagi Oqdaryo va Qoradaryo oralig'idagi hudud. Keyinchalik ... bilan ... oralig'idagi yerlar Miyonqol deb atalgan.
A) Samarqand, Karmana
B) Urgut, Jizzax
C) Samarqand, Xatirchi
D) Samarqand, Chelak

### 11- §. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

1.Ashtarxoniylar davrida davlat tizimi va boshqaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatdan ...
A) shayboniylar davridagidan butunlay farq qilgan.
B) konfederatsiya shaklida bo'lib, shayboniylarni takrorlamas edi.
C) harbiy holatga tortilgan bo'lib, temuriylar bosh-qaruvidan deyarli farq qilmagan
D) shayboniylar davridagidan deyarli farq qilmas edi.

2.Shayboniylar davrida xondan keyingi shaxs qaysi lavozim egasi bo'lgan?
A) devonbegi B) qushbegi C) otaliq
D) naqib

3.Ashtarxoniylar davrida xondan keyingi shaxs qaysi lavozim egasi bo'lgan?
A) devonbegi B) qushbegi
C) otaliq D) naqib

4. O'rta Osiyoda o'rta asrlarda davlatdagi quri-lishlar obodonlashtirish ishlari bilan shug'ullangan amaldor qanday atalgan?
A) Xojib B) Mirshab C) Xatib D) Qutvol

5. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan nimalarga bo'linib boshqarilgan?
A) viloyatlarga va tumanlarga
B) viloyatlarga va masjid qavmlariga
C) bekliklar va amlokliklarga
D) viloyatlarga va qishloqlarga

6. Ashtarxoniylar davrida eng yuqori davlat lavozimlariga kimlar tayinlangan?
A) shu sulolaning nufuzli vakillari
B) faqat xonning qarindoshlari
C) qudratli o'zbek qabilalarining boshliqlari
D) Muhammad (s.a.v) payg'ambar avlodlari

7. Ashtarxoniylar davrida qanday omillar Buxoro xonligining harbiy jihatdan o'ta zaiflashuviga olib kelgan?
1) Harbiy sohada doimiy qo'shinning yo`qligi; 2) markaziy harbiy qo'mondon-likning yo'qligi; 3) qo'shinning zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlanmaganligi; 4) doimiy o`zaro ichki urushlar; 5) qo`shni davlatlarning doimiy bosqini; 6) xonlarning qudratli o`zbek qabila boshliqlari qo`lida qo`g`irchoq bo`lganligi.
A) 1,2,3 B) 2,4,6 C) 1,3,6 D) 1,4,5

8. Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga qanday shaklida in'om qilardi?
A) suyurg`ol B) tanho
C) mulki hur D) jogir

9. Buxoro xonligida Ashtarxoniylar tomonidan davlat tasarrufidagi yerlar kimlarga "tanho" shaklida in'om qilinardi?
A) qabila boshliqlari va yirik diniy ulamolarga
B) harbiy sarkardalar va yirik qabila boshliqlariga
C) harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga
D) shahzodalar, yirik din ulamolari va sayyidlarga

10. Ashtarxoniylar davrida harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga in'om qilingan yerlar qanday atalgan?
A) tanho B) mulki huri xolis
C) suyurgol D) iqto

11. Ashtarxoniylar davrida davlat tasar-rufidagi yerlar harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga qanday shaklda in'om qihngan?
A) mulki sultoniy shakhda
B) tanho shaklida
C) suyurg'ol shakhda

D) mulki xoris shaklida

12. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida quyidagi yer egaligi shakllarining qaysi biri davlat soliqlaridan ozod etilmaganligini aniqlang.
A) mulki sultoniy B) vaqf mulklari
C) suyurg'ol mulklari D) mulki hurri xolis

13.Buxoroda Ashtarxoniylar hukmronligi davrida xon ayrim amaldorlarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun yer-mulk in`om qilib, bu mulklar soliqlardan ozod qilingan. Ushbu mulk shaklini toping.
A) mulki sultoniy B) tanho
C) mulki hurri xolis D) suyurg'ol

14. Ashtarxoniylar davrida diniy mahkamalarga berilgan yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar qanday yer hisobidan berilgan?
A) mulki sultoniy hisobidan
B) suyurg`ol hisobidan
C) tanho hisobidan D) mulki hur hisobidan

15. Ashtarxoniylar davrida barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, …
A) ularda erkin dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar.
B) ularda yersiz kambag'al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar.
C) ulardan tushgan barcha soliqlar xon xazinasiga keib tushgan.
D) ulardan foydalangan dehqonlar yer egasiga soliq to`lashdan tashqari uning yerida ishlab berish majburiyatini ham bajargan.

16.Ashtarxoniylar davrida mamlakat iqtisodiy hayotini, aholining moddiy turmushini ayanchli ahvolga tushirgan omilni aniqlang.
A) surunkasiga yetti yil qurg`oqchilk kelib, hosil kamaygan
B) shimoldan ko`chmanchilarning doimiy bosqinchilik yurishlari
C) qabila boshliqlari va amirlar o'rtasidagi ichki kurashlar
D) buyuk ipak yo`lida savdo qilish xavfli tusga kirib, dengiz savdosining kuchayishi

17. Ashtarxoniylar davrida mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil nima edi?
A) hunarmandchilik B) chorvachilik
C) savdo-sotiq D) dehqonchilik

18. Qaysi hukmdor davrida Qashqadaryodan Qarshi cho'liga suv chiqarish maqsadida kanal qazilgan?
A) Subhonqulixon B) Imomqulixon
C) Abdullaxon II D) Ubaydullaxon

19.Ashtarxoniylar davrida nechanchi yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga (1), Qo'shqo'rg'onda (2) kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan?
a) 1613-14-y.y; b) 1614-15-y.y;
c) 1622-23-y.y; d) 1633-34-y.y;
e) 1634-35-y.y.
A) 1-a, 2-c B) 1-b, 2-e C) 1-c, 2-d
D) 1-b, 2-d

20. XVII-XVIII asrlarning birinchi yarmida savdo-sotiq ishlari ham bir qadar o'sib bordi. Savdo-sotiq ishlarida qaysi shaharlarning mavqeyi baland edi?
1) Buxoro; 2) Samarqand; 3) Andijon;
4) Qo`qon; 5) Qarshi; 6) Toshkent;
7) Xo`jand; 8) Balx; 9) Marv.
A) 1,3,4,7,8 B) 1,2,5,6,8 C) 1,2,4,6,7,9
D) 1,4,5,7,8

21. XVII-XVIII asrlarning birinchi yarmida Buxoro xonligi tashqi savdoda qaysi mamlakatlar bilan aloqa bog`ladi?
1) Rossiya; 2) Afg`oniston; 3) Kavkaz;
4) Xitoy; 5) Hindiston; 6) Eron; 7) Qashqar;
8) Turkiya; 9) Mo`g`uliston.
A) 1,2,4,6,7 B) 1,4,5,7,8,9 C) 1,4,5,6,7,8
D) 1,3,4,6,8,9

22. XVII-XVIII asrlarning birinchi yarmida Buxorolik savdogarlarning qaysi hudud shaharlarida o'z savdo rastalari bo`lgan?
A) Kavkaz B) Sibir C) Xitoy D) Hindiston

23. Ashtarxoniylar davrida qayerdan shoyi matolar, chinni idishlar, dori-darmon, choy kabi mahsulotlar olib kelib sotilgan?
A) Rossiyadan B) Xitoydan C) Hindistondan
D) Erondan

24. Ashtarxoniylar davrida qayerdan qimmatbaho toshlar, matolar, oltin iplar olib kelib sotilgan?
A) Rossiyadan B) Xitoydan C) Hindistondan
D) Erondan

25.Ashtarxoniylar hukmronligi davrida asosiy soliq to'lovchi raiyatni aniqlang.
1) dehqonlar; 2) dindorlar; 3) kichik amirlar;
4) chorvadorlar; 5) madrasa mudarrislari;
6) hunarmandlar; 7) zargarlar; 8) savdogarlar.
A) 1, 3, 6, 7 B) 2, 5, 7, 8 C) 1, 4, 6, 8
D) 1, 2, 4, 7

26. Quyidagi qaysi Ashtarxoniy hukmdor davrida aholidan olinadigan soliqlar 7 yil uchun oldindan yig`ib olingan?
A) Ubaydullaxon II B) Imomqulixon
C) Abulfayzxon D) Subhonqulixon

27. Ubaydullaxon II davrida soliqlar necha barobar oshirilgan edi?
A) 4 barobar B) 3 barobar C) 2 barobar
D) 5 barobar

28. Tarkibida 9% kumush bo'lgan tanga pul zarb ettirgan hukmdorni aniqlang.
A) Ubaydulloxon II
B) Muhammad Shayboniy
C) Subxonqulixon D) Amir Shohmurod

29. 1708-yilda Ubaydullaxon II davrida aholining og'ir turmush tarzi natijasida qaysi shaharda qo'zg'olon ko'tarildi?
A) Samarqand B) Shahrizabzda
C) Balxda D) Buxoroda

30.Ubaydullaxon II davrida qaysi shaharlarda qo'zg'olon ko'tarildi?
1) Buxoro; 2) Samarqand; 3) Balx;
4) Toshkent; 5) Qarshi; 6) Karmana;
7) Marv; 8) Miyonqol; 9) Shahrisabz;
A) 1,2,4,6,8,9 B) 1,2,3,6,8,9 C) 1,3,4,5,7,8
D) 1,3,5,7,8

## 12- §. Ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayot

1.Ashtarxoniylar davrida qanday omillar ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotga salbiy ta'sir etdi?
1) xonlarning o`zaro urushlari; 2) avj olgan ichki ziddiyatlar; 3) tinimsiz urushlar;
4) ko`chmanchi qabilalarning bosqini;
5) siyosiy parokandalik;
6) ilmli kishilarning quvg`in qilinishi.
A) 1,2,3 B) 2,3,5 C) 1,3,6 D) 2,4,6

2. XVII—XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktab (maktabxona)lar faoliyat ko'rsatgan. O'g'il bolalar maktablari qayerlarda tashkil etilgan?
1) masjidlarda; 2) madrasalarda 3) badavlat kishilar uylarida; 4) shahar hokimi idorasida;
5) bozor yaqinidagi guzarlarda; 6) xo'jalik yurituvchi ustaxona-lar qoshida; 7) xususiy maktabdorlar xonadonlarida.
A) 1,3,4,6,7 B) 1,2,5,6 C) 1,2,6,7 D) 1,3,4,6

3. XVII—XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktab (maktabxona)lar faoliyat ko'rsatgan. Qiz bolalar maktablari qayerlarda tashkil etilgan?
1) madrasa qoshidagi hujralarda; 2) o'qituvchi ayollar uylarida; 3) badavlat kishilar uylarida; 4) bozor yaqinidagi guzarlarda;
5) xo'jalik yurituvchi ustaxonalar qoshida.
A) 1,3 B) 2,4 C) 1,5 D) 2,3

4. XVII—XVIII asrlarda bolalar necha yil davomida boshlang'ich ta'lim olganlar?
A) 6-7 yil B) 5-8 yil C) 7-12 yil D) 3-4 yil

5.XVII—XVIII asrlarda madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab necha yil davom etgan?
A) 6-7 yil B) 5-8 yil
C) 7-12 yil D) 8-10 yil

6.Ashtarxoniylar davrida maktab ta`limiga xos bo`lmagan javobni aniqlang.
A) O'quvchilarga avval harflar o'rgatilgan, keyin bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish o`rgatilgan
B) Hisob darsida sonlar, ularni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish amallari o'rgatilgan
C) Qizlar maktablarida uy-ro'zg'or tutish, pazandachilik, odob-axloq, pokizalik sirlarini o'rganishga ko'proq o'rin berilgan
D) Bolalar o'qishni o'zlashtirish bilan birga yozishni ham o`rganib so`ngra hisob kitobni ham o`rgangan

7.O`rta asr maktablarida o`qitilgan „Haftiyak"
kitobining ma'nosini aniqlang.
A) Qur'oni Karimning yettidan biri
B) Qur'oni Karimning to`rtdan biri
C) Yetti olam kitobi D) To`rt halifa o`gitlari

8. XVII—XVIII asrlarda maktablarda o'quvchilar kimlarning asarlarini o'qib saboq olganlar?
1) Navoiy; 2) Jomiy; 3) Fuzuliy; 4) Lutfiy;
5) Sanoiy; 6) Bedil; 7) Mashrab; 8) Rumiy;
9) Hofiz Sheroziy; 10) So'fi Olloyor.
A) 1,3,5,6,9 B) 1,3,6,7,9,10
C) 1,2,3,5,6,9,10 D) 1,4,5,6,8,9

9. XVII—XVIII asrlarda maktablarda nima bolalarni maktabni bitirganligiga guvoh bo'lgan?
A) maktablarda imtihonlar bo`lib, o'quvchilarga maktabni bitirgani to'g'risida hujjat berilishi
B) maktab mudarislariga ziyofat uyushtirib, uning qo`lidan maxsus qilqalam olishi
C) bolaning ravon o'qishi, to'g'ri yoza olishi, hisob-kitobni bilishi
D) maxsus imtixon komisiyasi taqdim etgan hujjat (shahodatnoma)ning berilishi

10.XVII—XVIII asrlarda madrasa ta`limiga xos bo`lmagan javobni aniqlang.
A) arab, fors tilida yozilgan kitoblar o`qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan.
B) madrasada dastlab "Haftiyak" so`ngra "Chor kitob" o`qitilgan.
C) madrasada o'qish "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan.
D) dastlab fors tilidagi o`quv qo`llanmasi, keyin arab tili grammatikasi o'qitilgan.

11. Qaysi javobda XVII-XVIII asrlarda O'rta Osiyo madrasalarida majburiy o'qitiladigan dars nomi keltirilgan?
A) fiqh B) mantiq
C) "Haftiyak" D) "Chor kitob"

12.Ashtarxoniylar davrida qanday omillar ilm-fan ravnaqiga salbiy ta`sir etdi?
A) Aniq fanlarga e'tiborning susayishi, olimlarning chet ellarga badarg'a qilinishi
B) Diniy mutaassiblik, xalq ommasidan ilm-fan diniy aqidalarga so'zsiz itoat etish talablarining kuchayishi
C) Vaqf mulklari nazorati davlat ixtiyoriga o`tkazilib, madrasalarga mablag`lar ajratish kamayishi
D) Xonlarning o`zlari madrasa mudarislarini imtixon qilib, yolg`onchiligi fosh qilinganlarni jazolashi

13."Bahr ul-asror" asari nechanchi yilda yozilgan?
A) 1636-yilda B) 1686-yilda
C) 1656-yilda D) 1556-yilda

14. Mahmud ibn Valining "Baxrul-asror" ("Sirlar dengizi") asarida geografiyaga oid ma'lumotlardan tashqari yana nimalar haqida so'z yuritilgan?
A) insonni ulug'lash haqida
B) Samarqand va Buxoroda yashagan olimlar xususida
C) falakiyot va kimyo ilmi haqida
D) yetti iqlim ajoyibotlari

15. Tibbiyot ilmiga katta e'tibor berib, Buxoroda shifoxona va tibbiyotga ixtisoslashgan madrasa qurdirgan Ashtarxoniy hukmdorni aniqlang.
A) Boqi Muhammad B) Imomqulixon
C) Subhonqulixon D) Nodir Muhammad

16. Ashtarxoniy hukmdor Subhonqulixon tashab-busi bilan "Dorul shifo"(davolash maskani) qurilib, bemorlarni davolash ishi yo`lga qo`yilgan shaharni aniqlang.
A) Samarqand B) Xiva
C) Buxoro D) Toshkent

17. Buxoroda qaysi ashtarxoniy hukmdor davrida tibbiyot ilmiga katta e'tibor berilib, shifoxona va tibbiyotga ixtisoslashgan madrasa qurilgan?
A) Boqi Muhammad B) Imomqulixon
C) Subhonqulixon D) Nodir Muhammad

18. Muhammad Sharif Buxoriyning qaysi asari makon va zamon masalalariga bag'ishlangan?
A) Xoqonga foydali maslahatlar
B) Axloqi Husayniy C) Muhit ut-tavorix

D) Davriylik haqida risola

19.Muhammad Sharif Buxoriy qalamiga mansub asar nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
A) "Ubaydullanoma" B) "Muhit ut-tavorix"
C) "Xoqonga foydali maslahatlar"
D) "Qipchoqxon tarixi"

20. Qaysi asarda shariat qonun-qoidalari, ijtimoiy hayot va axloqiy muammolarga oid ma'lumotlar, hukmdorlar to'g'risida qiziqarli lavhalar o'z ifodasini topgan?
A) Davriylik haqida risola
B) Hoqonga foydali maslahatlar
C) Sirlar dengizi D) Axloqi Husayniy

21. XVII asrda Mir Arab madrasasida mudarrislik qilib, falsafa, tasavvuf, tarix, fiqh, tilshunoslik, astronomiya sohasida 20 dan ortiq asarlar yozgan taniqli olimning yashagan yillarini aniqlang.
A) 1609-1697-yy. B) 1644-1721-yy.
C) 1649-1707-yy. D) 1607-1698-yy.

22.Astronomiyaga oid "Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati" nomli kitob muallifini aniqlang.
A) Muhammad Sharif Buxoriy
B) Mahmud ibn Ahmad Faroziy
C) Subxonqulixon
D) mavlono Kavkabiy

23.Qaysi javobda quyidagi tarixiy asarlar mualliflari to'g'ri ko'rsatilgan?
1) "Muhit ut-tavorix"; 2) "Xoqonga foydali maslahatlar"; 3) "Ubaydullanoma";
4) "Axloqi Husayniy";
a) Muhammad Sharif Buxoriy; b) Mahmud ibn Vali; c) Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriy; d) Muhammad Amin Buxoriy.
A) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b B) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c
C) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b D) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a

24. Quyidagi olimlarning qaysi birining asarida mamlakatlar, shaharlar , okean va dengizlar, hayvonot olami haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan?
A) Abu Hasan Hisoriy B) Mirobid
C) Mahmud ibn Vali D) Bedil

25. Quyidagi asarlarni ularni mualliflari bilan mos ravishda to'g'ri belgilang.
1) Muhammad Amin Buxoriy; 2) Mahmud ibn Vali; 3) Abdurahmon Tole;
4) Muhammad Yusuf Munshiy;
a) "Tarixi Muqimxoniy"; b) "Bahr ul-asror";
c) "Ubaydullanoma"; d) "Abulfayzxon tarixi".
A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d B) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a
C) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d D) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a

26. Quyidagi qatordan Bedilga oid bo'lgan tarjimai holni ko'rsating.
A) Kesh(Shahrisabz)lik, turkiy barlos urug'idan, Hindistonga ko'p marta safar qilgan, ona yurtida vafot etgan
B) Samarqandlik, turkiy barlos urug'idan, Hindistonga ko'p safar qilgan, Dehlida vafot etgan
C) kesh Shahrisabzlik turkiy barlos urug'idan, Hindistonga ko'p marta safar qilgan, Dehlida vafot etgan
D) Toshkentlik, turkiy barlos urug'idan, Hindistonga ko'p marta safar qilgan,Dehlida vafot etgan

27. Quyidagi qaysi doston "Bilim" deb tarjima qilinadi?
A) "Dor ul-ilm" B) "Bahr ul-asror"
C) "Irfon" D) "Kulliyot"

28. Bedilning "Irfon" dostonida ....
A) Oliyjanob insonlar xususida so'z yuritiladi
B) falsafa, tarix, ilohiyotning xilma-xil masalalari bayon etiladi
C) hajviy mazmundagi she'rlar o'rin olgan
D) Samarqandlik va Buxorolik 20 nafar olim haqida ma'lumot berilgan

29. Turkistonda " Abulma'oniy" ("Ma'nolar otasi") degan nom olgan shoirni belgilang.
A) Bedil B) Sayido Nasafiy C) Turdi
D) So'fi Olloyor

30.XVII—XVIII asr birinchi yarmidagi adabiy muhitida katta o'rin egallagan Mirzo Abdulqodir yashagan yillarni aniqlang.
A) 1609-1697-yy. B) 1644-1721-yy.
C) 1649-1707-yy. D) 1607-1698-yy.

31. Quyidagi qaysi asarda o'simliklar, hayvonlar va odamning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar bayon etilgan?
A) "Tarixlar dengizi" B) "Bahr ul-asror"
C) "To`rt unsur" D) "Irfon"

32. Quyidagi shaxslardan qaysi biri o`z she'rlarida
jamiyatdagi jabr-zulm, adolatsizlik kabi illatlarni qoralaydi?
A) shoir Mushfiqiy B) Ubaydiy
C) So`fi Olloyor D) Bedil

33. Zamondoshlari kimni „Buxoro shoirlari taxtida sulton" deb ulug'laganlar?
A) shoir Mushfiqiyni B) Sayido Nasafiyni
C) Bedilni D) Mashrabni

34. Quyidagi qaysi shoir Qarshi shahrida tug'ilgan?
A) Sayido Nasafiy B) Mirzo Abdulqodir
C) Turdi Farog'iy C) Abdurahmon Tole

35. Quyidagi qaysi asar orqali muallif yer egalari va amaldorlarning mehnatkash xalqqa yetkazgan jabr- zulmlarini, ularning adolatsizligini, poraxo'rligi va ma'naviy jihatdan pastkashliklarini fosh etadi?
A) "Irfon" B) "Hayvonotnoma"
C) "Bahr ul-aasror" D) "To'rt unsur"

36. "Hayvonotnoma" asarda mehnatkash xalq timsoli etib qaysi hayvon yoki hashorot olingan?
A) sher B) chumoli C) bo'ri D) asalari

37."Hayvonotnoma" asari muallifini aniqlang.
A) So'fi Olloyor B) Sayyido Nasafiy
C) Gulxaniy D) Uvaysiy

38.Subhonqulixonning xalqni og'ir ahvolga solgan soliqlarini ro'yi rost tanqid qila olgan jasoratli shoir kim bo'lgan?
A) Bedil B) Sayido Nasafiy
C) Turdi Farog'iy D) Mahmud ibn Vali

39. Turdi xalqning tilidan mamlakatni xonavayron qilgan nimani la'natlagan?
A) siyosiy tarqoqlikni
B) qirg'in–barot urushlarni
C) soliqlarni
D) doimo uyushtiriladigan tashqi hujumlarni

40. Quyidagi shaxslardan qaysi biri urug' oqsoqollarini va beklami bir yoqadan bosh chiqarishga chaqirgan?
A) So'fi Olloyor B) Sayyido Nasafiy
C) Turdi Farog`iy D) Uvaysiy

41. Ashtarxoniylar davrida ko'plab masjidlar, madrasalar, bozorlar, xonaqohlar, karvonsaroylar, hammomlar, sardobalar barpo etildi. Ularning bunyod etilishida ... davrida qurilgan me'moriy obidalar andaza bo'lib xizmat qilgan.
A) temuriylar B) shayboniylar
C) somoniylar D) arablar

42. Nechanchi asrga kelib Samarqanddagi Registon maydoni to'liq shakllandi?
A) XVI asr B) XV asr C) XVII asr
D) XIV asr

41. Quyidagi qaysi mahalliy hukmdor Sherdor va Tillakori madrasalarini bunyod ettishda tashab-buskorlik ko'rsatgan?
A) Imomqulixon B) Yalangto'shbiy
C) Normuhammadxon
D) Mahmudbiy qatag'on

42. Samarqand Registon maydonidagi Sherdor (1) va Tillaqori (2) madrasalarining bunyod etilgan vaqti to`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang.
a) 1620-1636-yy; b) 1619-1635-yy; c) 1633-1646-yy; d) 1646-1660-yy; e) 1640-1652-yy.
A) 1-b, 2-c B) 1-a, 2-e
C) 1-c, 2-d D) 1-b, 2-d

43. Quyidagi inshoatlardan qaysi biri Registon maydonida Ulug`bek madrasasi qarshisida qurilgan?
A) Sherdor B) Tillaqori C) Ko`kaldosh
D) Mir Arab

44. Samarqand Registonidagi qaysi inshoat madrasa-masjid vazifasini o`tagan?
A) Sherdor B) Tillaqori C) Ulug`bek
D) Mir Arab

45. Labihovuz atrofida bunyod etilgan me'morchilik obidalari nomlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Nodirdevonbegi madrasasi va xonaqohi, Ko'kaldosh va Ernazar elchi madrasalari
B) Xo'ja Qurbonbiy madrasasi, Muhammad Rahim madrasasi
C) Daxmai jahon ansambli, Modarixon daxmasi, Nodirdevonbegi madrasasi
D) Oxunddevonbegi madrasasi, Norbo'tabiy daxmasi, Nodirdevonbegi xonaqohi

46. Qaysi shaharda Ernazar elchi madrasasi bunyod etilgan?
A) Qarshi B) Xiva C) Buxoro D) Samarqand

47. Nodir devonbegi 1620-yilda bozor maydoni o'rtasida bo'yi .. metr, eni … metr, chuqurligi .. metr bo'lgan katta hovuz qurdirib, atrofini shag'al, marmar va toshlar bilan mustahkamlattiradi.
A) 42; 33; 3 B) 44; 35; 5 C) 45; 36; 5
D) 46; 35; 6

48. Buxoro shahrida Abdulazizxon qachon qo'sh imoratli madrasa qurdirgan?
A) 1620-yil B) 1642-yil C) 1644-yil
D) 1652-yil

49. XVII asrda Buxoro xonligi hududlarida …madrasa faoliyat yuritgan.
A) 100 dan ortiq B) 150 dan ortiq
C) 200 ga yaqin D) 250 ga yaqin

## III-bob. BUXORO AMIRLIGI.

### 13- §. Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmron-ligining o'rnatilishi

1. Nodirshohning oliy hukmdor, Buxoro xonligini esa Eronga mute davlat deb tan olish haqidagi shartnoma qayerda imzolangan?
A) Amudaryo bo'yida
B) Zarafshon daryosining bo'yida
C) Miyonqol atrofida D) Konigil mavzeida

2.Eron shohi Nodirshoh va Buxoro xonligi o'rtasidagi shartnomaga xos bo'lmagan javobni aniqlang.
A) Nodirshoh oliy hukmdor, Buxoro xonligi esa Eronga mute davlat deb tan olingan.
B) Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yilga yetadigan 200 ming xarvor bug'doy va arpa to'plab beriladi.
C) Buxorodagi turkman qabilasidan 10 ming nafarli qo'shin to'planib, Nodirshoh ixtiyoriga jo'natiladi.
D) Abulfayzxon amalda Eronga qaram qo'g'irchoq
hukmdorga aylandi

3. Eron shohi Nodirshoh va Buxoro xonligi o'rtasidagi shartnomadan so'ng Buxoroda butun hokimiyat amalda kimning qo'lida to'plandi?
A) Nodirshoh B) Abulfayzxon
C) Muhammad Hakimbiy
D) Muhammad Rahimbiy

4. Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek qabilalaridan qaysi birining nufuzi baland edi?
A) mang'itlarning B) qo'ng'irotlarning
C) yovmutlarning D) kenagaslarning

5. So'nggi ashtarxoniy Abulfayzxon nima sababdan Muhammad Rahimbiyga bosh vazirlik lavozimini berishga majbur bo'lgan edi?
A) Eron shohi Nodirshoh o'tkazgan tazyiq tufayli
B) ashtarxoniyiar sulolasidan taxtga o'tiradigan birorta ham voris qolmaganhgi sababh
C) Nodirshohdan madad olgan Muhammad Rahimbiy amalda butun xonlikni boshqarish imkoniga egaligi sababh
D) Muhammad Rahimbiy o'zining muntazam qo'shinga egaligidan foydalanib, alohida mavqega da'vogarlik qila boshlagani uchun

6. Bir yilda vafot etgan hukmdorlarni aniqlang.
A) Nodirshoh va Muhammad Hakimbiy
B) Nodirshoh va Abulfayzxon
C) Abulfayzxon va Ubaydullaxon
D) Abulfayzxon va Muhammad Rahimbiy

7.Quyidagi qaysi shaxs Abulfayzxondan so'ng Buxoro taxtiga o'tqazildi?
A) Muhammad Rahimbiy B) Ubaydullaxon
C) Doniyolbiy otaliq D) Abdulmo'min

8.… Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo'llab quvvatlashi bilan … -yilda hokimiyatni to'la egalladi?
A) Muhammad Hakimbiy; 1753
B) Muhammad Rahimbiy; 1756
C) Muhammad Hakimbiy ;1756
D) Muhammad Rahimbiy; 1753

9. Buxoro xonligi qachondan boshlab Buzoro amirligi deb yuritiladigan bo'ldi?
A) 1710-yildan B) 1753-yildan
C) 1756-yildan D) 1770-yildan

10. O'rta asrlar Buxoroda qaysi sulola vakillari diniy hukmdor hisoblangan?
A) Inoqlar B) Shayboniylar
C) Mang'itlar D) Ashtarxoniylar

11. Muhammad Rahim hokimiyat tepasiga kelishi bilan Buxoro xonligi amirlik deb atala boshlandi. Buning sababi nimada?
A) Bu davrda davlat bir qancha alohida amirliklarni birlashtirgan edi.
B) Muhamad Rahimni taxtga o`tirishini qo`llab-quvatlagan amilarning qarori shunday edi.
C) Muhamad Rahim Chingizxon avlodiga mansub emas edi, shu sababli u amir deb ataldi.
D) Amirlik deb atalish davlatning va hukmdorning qudratidan dalolat beradi

12. Buxoro amirligida mang`itlar sulolasi…
A) XVIII asrning boshlaridan XIX asrning 80-yillarigacha hukmronlik qildi.
B) XVIII asrdan - XIX asrning oxirigacha hukmronlik qildi.
C) XVIII aning boshidan XIX asrning birinchi yarmigacha davlatni boshqardi.
D) XVIII asrning o`rtalaridan 1920-yilgacha davlatni boshqardi.

13. Buxorodagi Mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimbiy mamlakatda markazlash-gan davlat barpo qilish uchun qat'iy kurash olib bor-gan. U bo'ysunishni istamagan qabilalarga nisbatan qanday chora qo'llagan?
A) ularni qirib tashlamoqchi bo'lgan
B) ularga qo'shimcha soliqlar solgan
C) qabila boshliqlari martabasini oshirishga va'da bergan
D) ularni yashab turgan yerlaridan ko'chirib yuborgan

14. Buxoro amiri Muhammad Rahimxon mustaqillikni da'vo qilgan Miyonqol, Nurota, Qobodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut bekliklarini
A) 4 yil davomida o'ziga bo'ysundirdi
B) bir-biriga qarshi qo'yib so'ngra bo'ysundirdi
C) shafqatsizlarcha talon-taroj qildi
D) o`zi bilan hamkorlik qilishga da`vat etdi

15. Mang'it hukmdori Muhammad Rahimxon o'z hukmronligi davrida yirik yer egalariga bo'lgan munosabatda qanday muvaffaqiyatga erishdi?
A) u yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlariga aralashuvini keskin kamaytirishga erishdi
B) u yirik yer egalaridan o'z mavqeini mustahkamlash yo'lida foydalanib, barcha bekliklarning markaziy hokimiyatni tan olishlariga erishdi
C) u yirik yer egalarining kuchayishidan qo'rqib, ularni maxsus nazorat ostiga oldi
D) u yirik yer egalari orasidan viloyat hokimlari tayinlab, ularni davlat ishlariga jalb etdi

16. Mang'it hukmdorlaridan qaysi biri mamlakatda o`zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki bosh-boshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi?
A) Muhammad Hakimbiy
B) Muhammad Rahimbiy
C) Doniyolbiy D) Amir Shohmurod

17. Muhammad Rahimbiy markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qaysi qabilalarni turgan joyidan ko'chirtirib yuborish siyosatini tutdi?
1) kenagas; 2) burqut; 3) qipchoq; 4) nayman; 5) bahrin; 6) qo`ng`irot; 7) yetti urug'va yuz; 8) xitoy; 9) saroy.
A) 1,2,4,6,7,9 B) 1,2,3,4,8 C) 1,2,3,5,7,9
D) 1,3,5,6,8,9

18 Doniyolbiy otaliq hukmronlik davrida yuz bergan voqealarni qayd eting.
1) o`z qo`shinlarini mustahkamlashga, unga tayanib ish ko`rishga harakat qildi; 2) barcha mang`it beklariga katta yer-mulkni tanho qilib berdi; 3) xalqdan olinadigan soliqlarni ko`paytirdi; 4) Balx, Hisor, Ko`lob, O`ratepa bekliklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi; 5) katta yer egalarining o`zboshimchaligini sindira olmadi; 6) yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirdi; 7) bo`ysunishni ustamagan, markaziy hokimiyatga bo`ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko`chirtirib yuborish siyosatini tutdi; 8) Miyonqol, Nurota, Qo`bodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut bekliklarni o`zigabo`ysundirdi.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5, 7 C) 2, 4, 6, 8
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

19. Amir Doniyolbiy davrida qaysi viloyatlarning mustaqillikka intilishlari kuchaygan?
A) Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa
B) Balx, Hisor, Boysun, Qarshi
C) Shahrisabz, Qarshi, Hisor, Urgut
D) Qarshi, Balx, Hisor, O'ratepa

20. Buxoro amirlaridan qaysi biri ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmronlikni o'z qo'lida saqlab qolgan?
A) Amir Shohmurod B) Amir Nasrullo
C) Muhammad Rahimbiy
D) Amir Doniyolbiy

21. Quyidagilardan Buxoro hukmdori Doniyolbiy otaliq davriga va uning faoliyatiga xos bo'lmagan xususiyatni aniqlang.
A) Shaharlarda rais mansabini va qo'shin tarkibida qozi askar lavozimini joriy qildi
B) Uning davrida Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa bekliklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi
C) Xalqdan olinadigan soliq ko'paytirildi, barcha mang'it beklariga katta yer-mulkni tanho qilib berdi
D) U o'z qo'shinlarini mustahkamlashga, unga tayanib ish ko'rishga harakat qildi

22. 1785-1800-yillar hukmronlik qilgan shaxsni aniqlang.
A) Doniyolbiy B) Abulg'oziy
C) Amir Shohmurod D) Amir Haydar

23. Doniyolbiyning o'g'illaridan biri Shohmurod darveshona hayot kechirar, shayx maslahati bilan …
A) bozorda yuk tashuvchilik qilardi.
B) pichoqqa qin yasab sotardi.
C) dehqonchilik bilan shug`ullanardi.
D) taxtdan voz kechgan edi.

24. Amir Shohmurodga xalq hurmat bilan qanday unvon bergan?
A) "amir al-mo`minin" B) "amiri ma'sum"
C) "amir ul-umaro" D) "amiri soniy"

25.Buxoro amiri Shohmurod o'z faoliyatida kimlarga tayanib ish tutgan?
A) saroy amaldorlariga
B) qabila boshliqlariga
C) ommaga D) ziyolilarga

26. Quyidagi hukmdorlarning qaysi biri ommaga tayanib ish tutish, adolat tamoyillariga qattiq amal qilish, o'ta kamtarin hayot kechirish xususiyatiga ega bo'lgan?
A) Shayboniyxonga B) To'xtamishga
C) Nodirshohga D) Shohmurodga

27. Amir Shohmurod faoliyati bilan bog`liq ma'lumotlarning to`g`risini aniqlang.
A) U bir yilda bir olacha chopon, ikkita bo'z ko'ylak kiygan. Boshiga yetti gazli bo'z salla, oyoglga echki terisidan tikilgan saxtiyon mahsi hamda kavush kiygan.
B) Amir Shohmurod Buxoro shahrida katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Shahar markazida olti qirrali chorsu qurilib, „Toqi musaddas" deb atalgan.
C) Buxoroning har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarrislami o'zi tayinlagan.
D) U talabalar va mudarrislarning maoshi uchun vaqf yerlari va mulklar ajratgan.

28.Quyidagi qaysi hukmdor tomonidan qo'shin tarkibida qozi askar lavozimi joriy qilingan?
A) Abulg'ozixon B) Umarxon
C) Amir Shohmurod D) Amir Nasrulla

29. Amir Shohmurod davrida qaysi mansablarning nufuzi ortgan?
A) qozikalon va muhtasib
B) mufti va sadrlar
C) rais va qozi askar D) qushbegi va mehtar

30.. Amir Shohmurod o'tkazgan qaysi tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi?
A) muvaffaqiyatli o'tkazilgan pul islohoti
B) kim mol-mulkka xiyonat qilsa, jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilishi
C) barcha soliqlarni kamaytirishi
D) qoziaskar lavozimining joriy qilinishi

31. Amir Shohmurodning soliq tizimida o'tkazgan islohoti to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) zakot solig'ini bir oz oshirdi
B) jizya solig'i bekor qilindi
C) ulamolardan olinadigan bar qanday soliq va yig'imlar bekor qilindi
D) boj va xirojdan tashqari barcha soliqlar kamaytirildi

32.Mamlakat iqtisodini yo'lga qo'yishda Shohmurod o'tkazgan qaysi islohati muhim ahamiyat kasb etdi?
A) soliq islohati B).pul islohati
C) sud islohati D) boshqaruv islohati

33.O'rta asrlarda xarbor — ...
A) ekin maydonining o'lchov birligi
B) bir eshakka yuk bo'ladigan og'irlik o'lchovi
C) urushda jasorat ko'rsatgan shaxslarga beriladigan yer
D) ziroatchidan olinadigan qo'shpuli

### 14- §. Amirlik davlat tuzumi va uning ma'muriy boshqariluvi.

1.XIX asr boshlarida Buxoro amirligi davlat tuzimiga xos bo'lmagan javobni aniqlang.
A) Buxoro davlat tuzumiga ko'ra monarxiya davlati edi.
B) Davlat tepasida amir, ya'ni yakka mustabid hukmdor turgan.
C) Hukmdor rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan.
D) Amir o'zi hech kim bilan xatto arkoni davlat bilan ham hisoblashmay ish tutgan.

2. Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga va tumanlarga bo'lingan. Chunonchi, amirlik davlati ... viloyat va tumanliklardan iborat edi.
A) 20 ta B) 30 ta C) 40 ta D) 50 ta

3. XIX asr boshlarida Buxoro amirlikning yer maydoni taxminan ... ming km$^2$, aho'isi esa ... min atrofida bo'lgan.
A) 220 ; 1,5 B) 270; 2 C) 300; 3 D) 320; 4

4. XIX asr boshlarida Buxoroda amir tayinlaydigan hokim boshqaradigan hudud nima deb atalgan?
A) viloyat B) tuman C) qishloq D) ovul

5. Buxoro amirligidagi eng quyi ma'muriy bo'linma to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
A) qishloq B) tuman C) amlokdorlik D) beklik

6. Qaysi atama „mulk egasi" degan ma'noni anglatadi?
A) Mushrif B) Amlokdor C) Amin
D) Mutavalli

7. Buxoro amirligida joylarda yetishtirilgan hosilning hisobini yuritish, soliqlar va boshqa tushumlarning belgilangan muddatda yig'ilishi uchun mas'ul bo'lgan amaldorni aniqlang.
A) mushrif B) zakotchi C) devonbegi
D) amlokdor

8.Qaysi atama arabchadan „ishonchli, halol odam" ma'nosini anglatadi?
A) Mushrif B) Amlokdor C) Amin
D) Mutavalli

9. Qaysi lavozimdagi shaxsning asosiy vazifasi soliq va boshqa tushumlami yiglish, aholi ustidan nazorat olib borish va ariqlardagi suvni ekin maydonlariga taqsimlash bo'lgan?
A) Mushrif B) Amlokdor
C) Amin D) Mirob

10.Buxoro amirligida amlokdor boshqaruv ishida kimlarga tayangan?
A) qishloq qosoqollari, qozi va tumanog'aga
B) amin, askarboshi va qishloq oqsoqollariga
C) amin, mirobboshi va sadrlarga
D) qishloq oqsoqollari, amin va miroblarga

11.Buxoro amirligida aminning asosiy vazifasi nimalardan iborat bo'lgan?
1) soliq va boshqa tushimlarni yig'ish;
2) tumanlardan askar to'plash;
3) aholi ustidan nazorat olib borish;
4) ariqlardagi suvni ekin maydonlariga taqsimlash;
5) suv inshootlari qurilishi va ta'mirlanishiga mas'ullik;
6) talim muassasalari faoliyatini nazorat qilish
A) 2,4,6 B) 1,5,6 C) 1,3,4 D) 1,2,5

12. Qaysi lavozimdagi shaxsning vazifasi suv inshootlarining o'z vaqtida ta'mirlanishini, qishloqlar uchun ajratilgan suvning ariqlar bo'yicha to'g'ri taqsimlanishini ta'minlagan?
A) amin B) amlokdor
C) qishloq oqsoqoli D) qishloq mirobi

13. Buxoro amirligida bir nechta katta-kichik qishloqlar birikmasi nima deb atalgan?
A) ulus B) amlokdorlik
C) oqsoqollik D) ovul

14. Buxoro amirligida xazina kimning mulki hisoblangan?
A) amirning B) qo'shbegining
C) devonbegining D) sadrning

15. XIX asr boshlarida Buxoro amirligining poytaxti Buxoro shahri va viloyatini … boshqargan.
A) amirning o`zi B) shahzoda C) qushbegi
D) shahar qutvoli

16. XIX asr boshlarida Buxoro amirligining davlat muassasalari qanday idoralardan iborat bo'lgan?
1) ma'muriy; 2) moliya; 3) soliq; 4) yer-suv; 5) qozilik; 6) mirshablik; 7) harbiy.
A) 1,2,3,6,7 B) 1,2,5,6,7 C) 1,3,4,6,7
D) 1.3,5.6

17. Buxoro amirligi saroyida qancha amaldor xizmat qilgan?
A) 30 ga yaqin B) 70 ga yaqin
C) 40 ga yaqin D) 50 ga yaqin

18. Buxoro amirligida viloyatlarning beklari (hokimlari) kim tomonidan tayinlangan?
A)xon B)qo'shbegi C)devonbegi
D)parvonachi

19. Buxoro amirligida davlatning barcha boshqaruv idoralari qaysi amaldorga bo'ysungan?
A) ko'kaldoshga B) mushrifga
C) devonbegiga D) qo'shbegiga

20. Buxoro amirligidagi eng katta davlat lavozimi bu qaysi lavozim bo'lgan?
A) Qushbegi B) Devonbegi
C) Ko'kaldosh D) Otaliq

21. Buxoro amirligida mavjud bo'lgan quyidagi lavozimlar ma'nosiga mos ravishda juftlangan javobni aniqlang.
1)devonbegi; 2)parvonachi; 3)mushrif; 4)sadr;
a)harbiy qo'shin bosh sarkardasi hisoblangan; b)moliya-xazina ishlarini boshqargan soliq undirishi ustidan nazorat olib borgan; c)vaqf mulklarini boshqargan; d)xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjumlarni ro'yxatga olgan, soliq tushumlarini yozib borgan.
A) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c
C) 1-b, 2-a, 3-b, 4-c D) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

22. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida faoliyat yuritgan amaldorlarning vazifalari mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.
1) devonbegi; 2) mushrif; 3) muhtasib; 4) mirzaboshi;
a) amirlik hujjatlarini yuritishga mas'ul hisoblangan; b) moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishini boshqargan; c) shariat qoidalarining bajarilishi va ularga amal qilinishi masalalari bilan shug'ullangan; d) soliqlarni o'z vaqtida yig'ish va ularni hisobga olib borish bilan shug'ullangan
A) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 – b
B) 1 - d; 2 - b; 3 - c; 4 - a
C) 1 - d; 2 - c; 3 - a; 4 – b
D) 1 - b; 2 - d; 3 - c; 4 - a

23.Buxoro amirligida harbiy qo'shin bosh sarkardasi qanday atalgan?
A) sohibi shurat B) amiri lashkar
C) sohibi askar D) parvonachi

24. Buxoro amirligida inoqning vazifasi nimadan iborat bo'lgan?
A) amirhk hududidagi do'stona yoki dushmanhk munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumot yig'ish
B) shahar fuqarolari arzlarini amirga yetkazish
C) amirga in 'om etilgan buyumlar va harbiy anjomlarni ro'yxatga ohsh
D) amir farmonlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazish

25. Buxoro amirligida amir aralashmaydigan barcha sud ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi nima deb atalgan?
A) Shayhulislom B) shariatpanoh C) muftiy
D) mutavalli

26.Qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib, fatvo chiqaruvchi shaxs qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?
A) shayxulislom B) shariatpanoh C) muftiy
D) mutavalli

### 15- §. Amirlikning xo'jalik hayoti.

1. XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligida yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud bo`lib, davlat yerlari qanday atalgan?
A) amlok B) xolisa C) mulk D) podshohi

2. Buxoro amirligida suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lash bilan birga yana qanday majburiyatni bajarishi lozim edi?
A) yiliga bir marotaba amir saroyida bazm uyushtirishi
B) amirlikdagi qurilishlar uchun o'z mablag'idan ulush ajratishi va mardikorlar yuborishi
C) ushbu yerlarda yashovchi aholini yangi kanallar qazish ishlariga safarbar etishi
D) oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi

3.Buxoro amirligida davlat yerlarining taqsim-lanishi va ulardan foydalanish qay tarzda bo'lgan?
1) suvsiz dasht va to'qayzorlar ko'chmanchilarga ijaraga berilgan va evaziga xiroj undirilgan;
2) hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga, lashkarboshilarga "suyurg'ol" shaklida in'om etilib, yerni boshqarish huquqi ham berilgan;
3) dasht va to'qayzorlar dehqonlarga suyurg'ol shaklida berilib, evaziga harbiy majburiyat yuklangan;
4) "tanho" shaklida in'om etilib, mansabiga qarab yerdan olinadigan soliqning ma'lum qismiga egalik qilgan;
5) "tanho" shaklida in'om etilib, tanhodorlar yerning katta-kichikligiga qarab hosilning bir qismiga egalık qılgan;
6) dehqonlarga ijaraga berilgan va olinadigan soliq xazina tushumining katta qismini tashkil qilgan
A) 1, 2, 5, 6 B) 2, 3, 4, 6
C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 2, 4, 6

4. Buxoro amirligida qanday yerlar sotilmasdi hamda ayirboshlanmas edi?
A) Amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli bo'lgan yerlar
B) Mulki hur yoki mulki hurri xolis yerlari
C) Masjid. mozor, xonaqoh, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar
D) Davlat yerlarining suvsiz, dasht va to'qayzor qismi

5. Amirlikda eng kichik tanho yerlar qanchani tashkil qilar edi?
A) 2-3 gektarni B) 4-6 gektarni
C) 5-8 gektarni D) 3-5 gektarni

6. Buxoro amirligida XVIII-XIX asrlarda xususiy shaxslar qanday yerlarga egalik qilar edilar?
A) vaqf B) mulk C) suyurg'ol D) tanho

7. Buxoro amirligida mulk yerlarining bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari...
A) qo'shbegi tomonidan qattiq nazoratga olingan.

B) yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga kelgan.
C) davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan.
D) shaxsan amir tomonidan qattiq nazorat qilingan.

8.Buxoro amirligida yerlarning bir qismi xususiy yerlar bo`lib, ular asosan, amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli bo'lgan. Bu yerlardan…
A) faqat 1/4 qism miqdorida xiroj olinardi
B) 1/10 qismi miqdorida o`lpon to`lanardi.
C) 1/5 qism miqdorida ushr to`lanardi
D) umuman soliq olinmasdi

9. Buxoro amirligida mulk yerlarining ikkinchi qismi ya'ni mulki hur yoki mulki huri xolisga xos bo`lmagan javobni aniqlang.
A) bunday yerlar davlat xizmati bilan bog`liq bo`lgan.
B) bunday yerlar urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan.
C) bunday yerga ega bo`lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilgan.
D) bunday yerga ega bo`lgan shaxslar 1/10 qismi miqdorida o`lpon to`lagan.

10. Buxoro amirligida vaqf yerlari — bu masjid, mozor, xonaqoh, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Bunday yerlar …
A) ko'chmanchilardan tortib olingan suvsiz dasht va yaylovlardan iborat bo`lib, asosan egasiz yotgan yerlar hisobiga vujudga kelgan.
B) musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilar edi.
C) amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli bo'lib, ular atrofdagi yerlarni qo`shib olishlari tufayli vujudga kelgan.
D) talaba va mudarislarga berilgan bo`lib, unda talabalar majburan ishlagan.

11.Buxoro amirligida vaqf mulklari kim tomonidan tasarruf etilgan?
A) mutavalli B) muftiy C) shayxulislom D) qozi

12. Amirlikda asosiy soliq … bo'lgan, u … ulushidan, asosan, mahsulot bilan to'lanardi, … asrdan boshlab uning bir qismi pul bilan to'lanadigan bo'ldi?
A) salg'ut; hosil; XVIII
B) zakot; hosil; XVIII
C) tanobona; yer; XIX D) xiroj; hosil; XIX

13. Buxoro amirligida xiroj solig'ining to'lanish tartibini aniqlang. (XIX asrgacha)
A) hosil ulushidan, mahsulot yoki ishlab berish orqali to'langan
B) mol-mulk hisobidan, asosan pul bilan to'langan
C) yer miqdoridan, asosan, mahsulot bilan to'langan
D) hosil ulushidan, asosan, mahsulot bilan to'langan

14. Buxoro amirligida to'lanadigan xiroj miqdorini aniqlashda …. o'z odamlari bilan dehqonchilik dalasiga chiqib, …. ishtirokida hosil miqdorini ko'z bilan chamalab aniqlab chiqqan.Nuqtalar o'rniga to'g'ri so'zni qo'ying.
A) qishloq oqsoqoli,amlokdor
B) amlokdor,qishloq oqsoqoli
C) qishloq oqsoqoli,mirob D) hokim,dehqon

15. Buxoro amirligida qanday soliq turlari faqat pul bilan olingan?
1) xiroj; 2) tanobona; 3) juz'ya;
4) zakot; 5) ushr; 6) qo'sh puli
A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6

16.Buxoro amirligida tanobona solig'ining miqdori nimaga asoslanib belgilangan?
A) ekinzorning bozorga uzoq-yaqinligiga
B) tanobona to'laydigan xo'jaliklarning soniga
C) ekinzor maydonining miqdoriga
D) ekinzordagi ekinning turiga

17. Quyidagi ma'lumotlardan qaysilari to'g'ri?
1)XVIII asrdan boshlab Buxoro amirligida hasharga keluvchilar oziq-ovqat, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishlari lozim bo'lgan.

2)Buxoro amirligida polizdan olinadigan tanobona solig'i yer haydashga yaroqli har bir juft ho'kiz hisobidan kelib chiqib belgilangan.
3)Buxoro amirligida XVIII asrda xirojning bir qismi pul bilan yig'iladigan bo'ldi.
4)Buxoro amirligida tanobona, zakot, qo'sh puli soliqlari faqat pul shaklida olingan.
A) 1,3 B) 2,3 C) 2,4 D) 1,4

18. Quyidagilardan zakot solig`iga xos bo`lmagan javobni aniqlang.
A) uning miqdori soliq solinadigan narsa qiymatining 2,5% ini tashkil etgan.
B) zakot solig`iga, asosan, chorva mollari egalari va savdogarlar tortilgan.
C) zakot solig`i esa faqat pul shaklida olingan.
D) zakot solig`i ko`chmanchi chorvadorlardan faqat mahsulot hisobida olingan

19. XVIII asrda Zarafshon daryosidan chiqarilgan (3-4 chaqirim uzunlikdagi) ariqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1)Xurmo: 2)Qozonariq; 3)Toyman; 4)Tug`uzariq; 5)Sarazm; 6)O'qariq.
A) 2,4 B) 1,5 C) 1,2 D) 3,6

20. Zarafshon daryosidan 3 chaqirim uzunlikda chiqarilgan sug'orish tarmog'i nomini aniqlang.
A) To'g'uzariq B) Sarazm
C) Xonobod D) Xurmo

21.. Urgut tumanini sug'organ kanalni aniqlang.
A) Qozonariq B) Sarazm C) Tog'uzariq
D) Toyman

22.Amir Shohmurod zamonida qazilgan 24 chaqirim uzunlikdagi sug`orish tarmog`ini aniqlang.
A) Qozonariq, To'g'uzariq
B) Toyman arig'i, To'g'uzariq
C) Oqdaryo, Qoradaryo
D) Xurmo, Sarazm

23. Buxoro amirligida chuqur ariqlardan suvni chiqarish uchun qanday moslamadan foydalanilgan?
A) tutqichli suv ayirg'ichlardan
B) chig'irlardan
C) sepoyalardan D) to'g'onlardan

24. Buxoro amirligida har bir dehqon xonadoni yiliga ... kundan ... kungacha sug'orish inshootlari qurish, kanal va ariqlarni tozalash, sozlash ishlarida qatnashishgan.
A) 30; 70 B) 40; 80 C) 50; 100 D) 60; 100

25. Buxoro amirligida deyarli har bir dehqon xo'jaligida o'z ehtiyoji va sotish uchun nima yetishtirgan?
A) bug`doy B) arpa C) paxta D) jo`xori

26. Buxoro amirligida qanday bog'lar chorbog' deb atalgan?
1) 4 qismdan iborat alohida reja asosida bunyod etilgan bog'lar.
2) tabiiy to`qayzorlar va changalzorlardan iborat bog'lar.
3) yovvoyi tabiyatni saqlab qolgan bog`lar.
4) bog' qismlarining har birini ariqlar ajratib turgan bog`lar.
5) saroyning 4 tomonida reja asosida qurilgan bog`lar.
A) 1,3 B) 2,4 C) 1,4 D) 2,5

27. O`rta asrlarda mashhur bo`lgan Jo'ybor va Kaykovus bog'lari qaysi shaharlarda bunyod etilgan?
A) Buxoro va Samarqand
B) Samarqand va Xiva
C) Buxoro va Toshkent D) Buxoro va Xiva

28. Mardona bu - ...
A) Qo'qon xonligida oddiy aholining hasharga safarbar etilishi.
B) Xiva xonligida 12 kunlik davlat majburiyati.
C) bo'yoq olinadigan o'simlik.
D) 8,33 sotixga teng bo'lgan yer o'lchov birligi.

33.O'rta asrlarda ekin maydonini o'lchash uchun qo'llaniladigan yuza oichov birligini aniqlang.
A) tanobona B) tanho C) chaqirim D) tanob

## 16- §. Amirlik shaharlari hayoti va savdo-sotiq ishlari.

1. Quyidagi qaysi shahar „Dunyoning husni“ deb ulug'langan?
A) Buxoro B) Samarqand C) Toshkent
D) Xiva

2. Qaysi javobda XVII asrda Samarqandda faoliyat ko'rsatgan yetti madrasa ko'rsatilgan?
1) Ulug'bek; 2) Sherdor; 3) Tillakori;
4) Safed; 5) Shayboniyxon; 6) Xo'ja Abdulg'ofur; 7) Mir-Arab; 8) Muhammad Amin; 9) Abdullaxon; 10) Abdulazizxon;
11) Qozi Soqiy.
A) 1,2,3,4,5,6,11 B) 1,2,3,5,6,7,10
C) 1,2,3,4,6,10,11 D) 1,2,3,5,8,9,11

3. Quyidagi qaysi shaharda XVII asrda Qozi Soqiy madrasasi faoliyat ko'rsatgan?
A) Samarqandda B) Qo'qonda
C) Marvda D) Xivada

4. XVII asrda Markaziy Osiyoning qaysi shahrida Safed madrasasi faoliyat ko'rsatgan?
A) Shoshda B) Samarqandda C) Buxoroda
D) Xivada

5. Quyidagi madrasalardan qaysi biri Samarqandda qurilmagan?
A) Abdulg'ofur B) Abdulazizxon
C) Qozi Soqiy D) Shayboniyxon

6.Qaysi Buxoro amiri davrida Samarqand deyarli qayta tiklangan?
A) Amir Shohmurod B) Amir Haydar
C) Amir Nasrullo D) Amir Abdulahad

7. XIX asr boshlarida Samarqand shahrining qanday nomdagi darvozalari bo'lgan?
1) Ohanin; 2) Shohizinda; 3) Qo'qon;
4) Qalandarxona; 5) Buxoro; 6) Paykabod
7) Kaykovus; 8) Afrosiyob; 9) So'zangaron;
10) Xoja Ahror; 11) Polvon;
12) Nomozgoh;
A) 1,2,4,6,8,9 B) 2,4,5,7,10,12
C) 2,4,5,6,9,10 D) 1,3,5,6,9,11

8.XIX asr boshlarida Samarqand shahri baland devor bilan o'ralgan bo'lib, oltita darvozasi mvjud edi. Ushbu darvozalar nomlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Urgut; 2) Buxoro; 3) Paykobod; 4) Qarshi;
5) Shohizinda; 6) Qalandarxona;
7) So'zangaron; 8) Xo'ja Ahror; 9) Registon
A) 2, 4, 5, 6, 7, 9 B) 1, 3, 4, 5, 6, 8
C) 1, 3, 5, 6, 8, 9 D) 2, 3, 5, 6, 7, 8

9. XIX asrda quyidagi qaysi shaharning Paykobod, Qalandarxona deb ataluvchi darvozalari bo'lgan?
A) Xiva B) Qo'qon
C) Samarqand D) Buxoro

10. Samarqand shahri ... boshlarida baland devor bilan o'rab olingan.
A) XVI asr B) XVII asr
C) XVIII asr D) XIX asr

11. Samarqand shahrida … ta hammom va … ta karvonsaroy bo'lgan?
A) 2 ta; 3 ta B) 3 ta; 4 ta C) 3 ta; 2 ta
D) 5 ta; 6 ta

12. Quyidagi qaysi shahar aholisi soni 25-30 ming kishini tashkil etgan?
A) Samarqand B) Buxoro
C) Xiva D) Qo'qon

13. Nechanchi yilda Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi nishonlangan?
A) 1997-yilda B) 2007-yilda
C) 2009-yilda D) 2008-yilda

14. XIX asr boshlarida Samarqand shahrida hunarmandchilikning qaysi sohalari juda rivojlangan?
1) shoyi to'qish; 2) qog'oz ishlab chiqarish;
3) teri oshlash; 4) kulolchilik;
5) mo'ynadozlik; 6) temirchilik;
7) novvoylik; 8) qandolatchilik;
9) kashtachilik; 10) chilangarlik.
A) 1,2,4,5,9,10 B) 1,3,5,6,7,8,10
C) 1,2,3,4,6,7,8 D) 1,2,4,6,7,8,9

15. Amirlik poytaxti Buxoro shahrida XIX asrning 40-yillarida … karvonsaroy bo'lib, ularda musofir va mahalliy savdogarlar istiqomat qilganlar.
A) 25 ta B) 32 ta C) 38 ta D) 44 ta

16. XIX asrlarga kelib Buxoroda ichki va shaharlararo savdo amalga oshilgan tim va chorsular soni nechta bo'lgan?
A) oltita B) o'n ikkita C) yettita D) to'qqizta

17. XIX asrning 40 yillarida Buxoro karvon-saroylariga har yili necha tuya mol keltirilgan?
A) 5 - 8 ming B) 12 - 15 ming
C) 8 - 11 ming D) 4 - 5 ming

18. XIX asrda Buxoro amirligidagi barcha savdo ishlarining boshqaruvchisi berilgan javobni aniqlang.
A) devonbegi B) xazinachi
C) tavochi D) karvonboshi

19. Kim amirlikdagi savdo ishlarining boshqaruvchisi hisoblangan?
A) Devonbegi B) Bozor oqsoqoli
C) Muhtasib D) Karvonboshi

20.XIX asrda Buxoro shahrida nechta madrasa (1), masjid (2) va hovuz (3) mavjud bo'lgan?
a) 43 ta; b) 83 ta; c) 101 ta; d) 103 ta;
e) 330 ta; i) 360 ta.
A) 1-a, 2-c, 3-e B) 1-d, 2-i, 3-b
C) 1-c, 2-e, 3-a D) 1-d, 2-i, 3-a

21. Shon-shavkati yetti olamni tutgan Buxoro shaharining 2500 yilligi qachon nishonlangan?
A) 1997-yilda B) 2007-yilda
C) 2002-yilda D) 2009-yilda

22. Buxoro amirligida Samarqandning qaysi to'qimachilik mahsuloti juda mashhur bo'lgan?
A) vadoriy gazlamalari
B) to'q qizil rangli baxmali
C) olacha shoyisi D) gul bosilgan chiti

23. XIX asr boshlarida Buxoro shahri hunarmandchilikning qaysi turlari bilan mashhur edi?
1) shohi suzanasi 2) olachasi; 3) bo'zi; 4) gul bosilgan chiti; 5) to'q qizil rangli baxmali; 6) shoyisi.
A) 1,2,4,5 B) 2,4,5,6 C) 1,3,4,6 D) 2,3,4,6

24. XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Buxoro amirligida nima uchun yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyoji vujudga kelmagan edi?
A) davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmagan
B) iste'mol ehtiyojlari asosan chet el mahsulotlari hisobiga qondirilar edi
C) iste'molchilarning huquqlari ishlab chiqarishga nisbatan ancha cheklab qo'yilgan edi
D) ishlab chiqaruvchilarga e'tibor past darajada edi

25. XIX asr boshlarida Buxoro amirligida nima uchun ichki bozorda odatdagi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o'rin egallagan?
A) chunki azaldan Buxoro o'zining qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchiligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan jahonda muhim o'rin tutgan edi.
B) chunki davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmaganidan yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanilmadi.
C) chunki hukmdorlar mahsulot sifati yomonlashadi deb manufaktura ishlab chiqarishga o'tishga ruxsat bermagan.
D) chunki islom dinida odamlarni kamtarlikka da'vat etib, hunarmandlar va dehqonlar kamtarona hayot kechirish tarafdori edi.

26.Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro bozorlari faqatgina xo'jalik vazifasini o'tab qolmagan. Ular ayni paytda...
1) o'ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham o'tagan; 2) bozorlarda hukmdorning farmonlari o'qib eshittirilgan; 3) aybdorlar jazolangan; 4) xalq majlislari o'tkazilgan; 5) bayram kunlari esa turli tomoshalar ko'rsatilgan; 6) chet el elchilari kutib olingan; 7) hukmdorlarni taxtga o'tkazish marosimi o'tkazilgan.
A) 1,3,5,6 B) 1,2,4,7
C) 1,2,3,5 D) 1,3,4,6

27.XIX asr boshlarida Buxoro Hindiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy bilan savdo

aloqalarini olib borgan. Bu davlatlarga xonlikda ishlab chiqarilgan qanday mahsulotlar ortilgan savdo karvonlari qatnab turardi.
1) ip gazlamalar; 2) baxmal; 3) gilam;
4) qog'oz; 5) egar-jabduqlar; 6) temir;
7) gugurt; 8) qurollarning ayrim turlari;
9) mevalar; 10) dori-darmonlar.
A) 1,2,3,4,6,8,10 B) 1,2,4,5,8,9
C) 1,3,4,6,7,9 D) 1,3,4,7,8,9,10

28. XIX asr boshlarida Buxoroda qaysi millat savdogarlari va sudxo'rlari yashaydigan alohida mahallalar ham bor edi?
A) yahudiylar B) arablar
C) xitoylar D) hindlar

29. XIX asr boshlarida Buxoroda qaysi millat savdogarlari uzlarining gazlamalari, bo'yoqlari, shifobaxsh va ziravor o'tlar, dori-darmonlar, qand-shakar bilan savdo qilardilar?
A) yahudiylar B) arablar
C) xitoylar D) hindlar

30. XIX asr boshlarida Buxoro bozorlarining eng xaridorgir mahsulotlari nima bo'lgan?
A) qo'y terisini turli ranglarga bo'yab tikkan kamzullari
B) qo'y junidan tayyorlangan gilam va namatlar
C) tuya junidan tayyorlangan gilam va namatlar
D) sopoldan yasalgan uy ro'zg'or idishlari

31.Buxoro aholisining qozoqlar bilan savdo aloqalarida kimlar vositachilik qilgan? (XIX asr)
A) tojiklar B) turkmanlar C) qirg'izlar
D) qoraqalpoqlar

32. Nechanchi yilda Buxoro amirligi savdogarlarining Orenburgda qarorgohi qurilib, unda 20 dan ortiq xonadon istiqomat qilgan?
A) 1804-yilda B) 1805-yilda C) 1826-yilda
D) 1825-yilda

33. Orenburgda Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda 20 dan ortiq xonadon istiqomat qilgan, oradan necha yil o'tib xonadonlar soni 25 taga yetdi ?
A) 15-yil o'tib B) 21 yil o'tib
C) 44-yil o'tib D) 32-yil o'tib

34.Orenburgda Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilgan yilda amirlikning ichki siyosiy hayotida quyidagi voqealardan qaysi biri yuz berganligini aniqlang.
A) Amir siyosatiga qarshi Miyonqo'lda qo'zg'olon ro'y berdi.
B) Amir Shohmurod hukmronligi nihoyasiga yetdi.
C) Amirlik taxtiga Amir Haydar o'tirdi.
D) Dinnosirbek hokimlik qilayotgan Marv viloyati aliolisi qo'zg'olon ko'tardi.

35. 1844 yilda Buxoro xonligining Markaziy Osiyo-Rossiya tashqi savdosidagi ulushi necha foizni tashkil etgan?
A) 25%ni B) 28%ni C) 32%ni D) 42%ni

36. Buxoro xonligining Markaziy Osiyo-Rossiya tashqi savdosidagi ulushi 1864 yilga kelib necha foizni tashkil etgan?
A) 25%ni B) 28%ni C) 32%ni D) 42%ni

37. Buxoro amirligi tashqi savdo aloqalariga oid quyidagi ma'lumotlardan qaysilari to'g'ri keltirilgan?
1) Orenburgda 1804-yilda Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda 200 ta xonadon istiqomat qilgan;
2) Buxoro amirligining qozoqlar bilan savdo aloqalarida qirg'izlar vositachilik qilgan;
3) 1844-yilda Buxoro amirligining Markaziy Osiyo-Rossiya tashqi savdosidagi ulushi 25 foizni tashkil etdi:
4) Orenburgda Buxoro amirligi savdogarlarining qaxorgohi qurilganidan 21 yil o'tib unda istiqomat qilayotgan xonadonlar soni 30 ta bo'ldi
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 4

### 17- §. Buxoro amirligi XIX asrning birinchi yarmida.

1. Tajribasizligi tufayli ayrim viloyatlar hukmdorlari markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka uringan amirning otasi kim edi?
A) Amir Nasrullo B) Amir Shohmurod

C) Amir Haydar D) Amir Doniyolbiy

2. Ayrim viloyatlarning mustaqilligi tugatilishi nimaga olib kelgan?
A) davlat yer zaxirasining ko'payishiga
B) markaziy hokimiyatning kuchayishiga
C) ijarachi dehqonlar sonining oshishiga
D) iqtisodiyotning tez suratlar bilan oshishiga

3. Quyidagi qaysi omil amirlik iqtisodiyotining tez suratlar bilan oshishiga xizmat qilgan?
A) davlat yer zaxirasining ko'payishiga
B) markaziy hokimiyatning kuchayishiga
C) ijarachi dehqonlar sonining oshishiga
D) ayrim viloyatlar mustaqilligining tugatilishiga

4. Buxoro amiri Amir Haydar davrida amirlik iqtisodiyotining tez suratlar bilan o'sishiga xizmat qilgan omilni aniqlang.
1) aksariyat viloyatlar mustaqilligi tugatildi;
2) davlat yerlari zahirasi ko'paytirildi;
3) davlat yerlarini ijaraga olib ishlovchilar soni oshdi;
4) mamlakatda o`zaro ichki urushlarga chek qo`yildi;
5) pul islohati o`tkazilib, tangadagi kumush miqdori oshirildi.
A) 1,2,3 B) 1,3,5 C) 2,4,5 D) 2,3,4

5. Quyidagi qaysi hukmdor davrida Buxoro amirligining ichki va tashqi savdosi ham o'sdi?
A) Amir Haydar B) Amir Shohmurod
C) Amir Nasrullo D) Dinnosirbek

6.O'z davrining eng bilimdon hukmdorlaridan biri bo'lgan amir?
A) Umarxon B) Amir Shohmurod
C) Amir Haydar D) Amir Nasrullo

7. Qur'oni Karimni yoddan bilgan hukmdor?
A) Ubaydullaxon B) Subxonqulixon
C) Amir Shohmurod D) Amir Haydar

8.Qaysi hukmdor madrasa talabalariga ma'ruzalar o'qigan?
A) Ubaydullaxon B) Umarxon
C) Amir Shohmurod D) Amir Haydar

9.Buxoro amirlaridan kim Qur'oni Karimni yoddan bilgan va o'zi ham madrasa talabalariga ma'ruzalar o'qib turgan?
A) Abdulahad B) Amir Haydar
C) Amir Muzaffar D) Doniyolbiy

10. Kimning davrida Buxoro madrasalariga chet davlatlardan o'qishga keluvchilar soni ortib borib,ular uchun qulay sharoit yaratish choralari ko'rilgan?
A) Ubaydullaxon B) Subxonqulixon
C) Amir Shohmurod D) Amir Xaydar

11. Amir Haydar ukasi Dinnosirbek boshliq qo'zg'olonchilarga qarshi kim boshchiligida qo'shin yuborgan?
A) Niyozbek parvonachini
B) Muhammad Niyoz to'pchiboshini
C) Muhammad Yoqub mehtarni
D) Mahmudbiy otaliqni

12. Nima sababdan Amir Haydar mamlakatda to'la osoyishtalikni ta'minlay olmagan?
A) jamiyatdagi adolatsizliklar tufayli
B) mustaqilligi uchun kurashayotgan beklar tufayli
C) Amir Haydarga bo'lgan hurmatsizlik sababli
D) A va B javoblar to'g'ri

13. Amir Haydarning ukasi Dinnosirbek qaysi hududga hokimlik qilayotgan edi?
A) Marvga B) Miyonqolga
C) Shahrisabzga D) Balxga

14. Amir Haydarga qarshi bo'lgan kuchlar Marv viloyati aholisi ko'targan nechanchi yildagi qo'zg'olondan foydalanib, Dinnosirbekni amirlik taxtiga o'tqazmoqchi bo'lganlar?
A) 1801-yilda B) 1804-yilda
C) 1821-yilda D) 1856-yilda

15.1804-yilda ko'tarilgan Dinnosirbek yetakchiligidagi qo'zg'olonni bostirish uchun Amir Haydar kim boshchiligida qo'shin jo'natgan?
A) Ibrohim Dodxoh
B) Muhammad Yoqub mushrif
C) Nazarbiy inoq D) Niyozbek parvonachi

16.. A.Haydar ukasi Dinnosirbek boshliq qo'zg'olonchilarga qarshi Niyozbek parvonachi boshchiligida qo`shin yuborgan. Niyozbek parvonachi buyrug`i bilan Marv vohasini suv bilan ta'minlab turgan qaysi suv to`g`oni buzib tashlandi?
A) Qo`rg`oshin nova
B) Sultonbandi to`g`oni
C) Nomozgoh to`g`oni
D) Turuqband to`g`oni

17.... oddiy mehnatkashlarning buningsiz ham og'ir ahvolini yanada og'irlashtirgan?
A) urushlar B) harbiy harakatlar C) soliqlar
D) qo'zg'olonlar

18. 1821-yili Miyonqolda qo`zg'olon ko'tarilishiga sabab nima bo'lgan?
A) soliq to'plovchilarning o'z mansablarini suistemol qilishi
B) qoracherikka safarbarlik va yer solig'ining muddatidan oldin yig'ib olinishi
C) har tanob yerdan bir tillodan soliq joriy etilib uni faqat pul bilan olinishi
D) to'rt yillik soliqni birdaniga yig'ish haqida farmon chiqarilishi

19. Miyonqolda qo'zg'olon ko'tarilgan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
A) Qo'qon xoni Umarxon vafot etdi.
B) Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egalladi.
C) Meksika mustaqillikka erishdi.
D) Rossiyada dekabristlar qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.

20. Amir Haydar vafot etgach, qisqa vaqt ichida uning nechta o'g'li fitna qurboni bo'lishgan?
A) 1 ta B) 3 ta D) 5 ta D) 2 ta

21. 1856 yilda Amir Nasrullo tomonidan bo'ysundirilgan joyni aniqlang.
A) Marv va Miyonqol
B) Qarshi va Kattaqo'rg'on
C) Shahrisabz va Kitob
D) Yangiqo'rg'on va Chelak

22.Buxoro amirligida amir Nasrulloga qadar mavjud qo'shin qanday nomlangan?
A) qoracherik B) navkariya
C) sarboz D) navkar

23.Qoracherik nima?
A)Muntazam qo'shin B)Madrasa nomi
C) Soliq turi D)Nomuntazam qo'shin

24. Amir Nasrullo davrida tuzilgan muntazam qo'shin qanday atalgan?
A)qoracherik B)qilquyruq C)navkariya
D)askariya

25. Amir Nasrullo qachon harbiy islohot o'tkazadi?
A) 1826-yilda B) 1836-yilda
C) 1837-yilda D) 1847-yilda

26. Buxoro amirligida muntazam qo'shinga ega bo'lishning qanday afzalliklari bor edi? 1) davlat yaxlitligini saqlashga xizmat qilardi; 2) mamlakatning tashqi siyosatdagi obro'sini oshirardi; 3) qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlardan qoracherikka safarbar etilayotganlar sonining keskin kamayishiga olib kelardi; 4) zarurat paytda viloyatlar yuborishi zarur bo'lgan qo'shinga umid bog'lashdan xalos etardi; 5) yaxshi harbiy ta'lim ko'rgan askarlar bilan jangga kirish urushlarda albatta qo'l kelardi.
A) 1,2,4 B) 1,3,5 C) 2,3,4 D) 1,3,4

27. Amir Nasrullo davrida 1837-yilda o'tkazilgan harbiy islohotga ko'ra dastlab 800 kishilik sarbozlar va keyinchalik necha kishilik to'pchilardan iborat muntazam qo'shin tuzilgan?
A) 150 kishilik B) 200 kishilik
C) 250 kishilik D) 300 kishilik

28.1837- yilda o'tkazilgan harbiy islohotga ko'ra, dastlab ... kishilik sarbozlar va ... kishilik to'pchilardan iborat muntazam qo'shin tuzilgan?
A) 800; 250 B) 700; 100 C) 1000; 500
D) 700; 350

29. Navkariya tarkibida bo'lgan qo'shin turlarini aniqlang.
1) piyoda qo'shin; 2) to'pchilar qo'shini; 3) otliq qo'shin; 4) keshik· 5) kamonchilar.
A) 1,2,3 B) 1,3,5 C) 1,3,4 D) 2,3,5

30. Buxoro amirlarining ko'proq vaqt hukmronlik qilganiga qarab ketma-ketlikda joylashtiring.
1) Shohmurod; 2) Nasrullo; 3) Amir Haydar; 4) Doniyolbiy; 5) Muhammad Rahimbiy
A) 3, 1, 2, 5, 4 B) 2, 3, 1, 5, 4
C) 2, 4, 3, 1, 5 D) 3, 2, 1, 4, 5

31. Buxoro amirligi hukmdorlaridan qaysi biri uzoq muddat hukmronlik qilgan?
A) Amir Abdulaxadxon
B) Amir Nasrulloxon
C) Amir Muzaffar D) Amir Haydar

32. Buxoroning mang'it hukmdorlari ichki siyosatidagi asosiy maqsadi nimadan iborat edi?
A) yirik zodagonlarning nufuzini oshiruvchi tayanch kuchlarni vujudga keltirish asosida markaziy hokimiyatni mustahkamlash
B) Qo'qon va Xiva xonliklari bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish
C) iqtisodiy islohotlar orqali markazlashgan davlat hokimiyatini mustahkamlash asosida xalq farovonligini ta'minlash
D) markaziy hokimiyatni mustahkamlash, xalq ommasini qattiq itoatda tutish

33.Berilgan voqealarning xronologik vaqti to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
1) Amir Nasrullo to'pchilar qo'shinini tuzdi; 2) Nasrullo Shahrisabz va Kitobni o'ziga bo'ysundirdi; 3) Myonqo'lda qo'zg'olon ko'tarildi; 4) Marv turkmanlari qo'zg'olon ko'tardi;
a) 1821-yil; b) 1800-yil; c) 1837-yil; d) 1856-yil
A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a
C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d D) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c

### 18- §. Buxoro amirligida madaniy hayot.

1.Quyidagi qaysi sulola hukmronligi davridan boshlab diniy mutaassiblik ijtimoiy-madaniy hayot rivojining qudratli to'sig'iga aylangan?
A) Shayboniylar B) Ashtarxoniylar
C) Mang'itlar D) Qo'ng'irotlar

2.Ashtarxoniylar davrida aniq tabiiy fanlarning rivojiga imkon bermagan omilni aniqlang.
A) diniy mutaasiblik
B) madaniy hayot darajasining pastligi
C) tshqi madaniy aloqalarning sustligi
D) iqtisodiy barqarorlik

3. Diniy mutaassiblik tufayli bu davrda asosiy asarlar qaysi sohalarda yaratilgan?
1) tarix; 2) adabiyot; 3) tibbiyot; 4) san'at; 5) me'morchilik.
A) 1,2,4,5 B) 1,2,3,4 C) 2,3,4,5 D) 1,2,3,5

4.. Ma'lumki, Buxoro amirligida yashab ijod etgan tarixchi olim Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy "Gulshan ul-muluk" nomli ikki qismli asar yaratgan bo'lib, bu asarning ikkinchi qismida nima bayon etilgan?
A) Markaziy Osiyoning XVIII-XIX asr boshlaridagi tarixi
B) Buxoro, Xo'jand va Koshg'ardagi ayrim voqea-hodisalar
C) Buxoro va Rossiya munosabatlarining boshlanishi
D) Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi

5."Gulshan ul muluk" tarixiy asarining muallifi Muhammad Yoqub ibn Doniyolbiy Buxoriy yashagan yillarni belgilang.
A) 1771-1831 B) 1782-1841
C) 1770-1842 D) 1748-1818

6.Shoir Vola qaysi yillarda yashab o'tgan?
A) 1737-1778-yillar B) 1770-1850-yillar
C) 1770-1842-yillar D) 1730-1800-yillar

7.Quyidagi qaysi asarda Buxoroning qadimgi tarixi,uning hukmdorlari shajarasi bayon etilgan?
A) "Jome'i voqeoti sultoniy"
B) "Gulshani davlat"
C) "Tarixi Abulhayzxon"
D) "Gulshan ul-mulk "

8. Quyidagi tarixchilarni asarlari bilan muvofiqlashtiring.
1) Mir Olim Buxoriy; 2) Muhammad Hakimxonning 3) Fazlulloh ibn Ro'zbexonning 4) Hofiz Tanish Buxoriyning
a) „Mehmonnomayi Buxoro" b) „Fathnomayi sultoniy" c) „Sharhnomayi shohiy"
d) „Yilnomalar to'plami"

A) 1-a;2-c;3-d;4-b; B) 1-b;2-c;3-a;4-d
C) 1-a;2-d;3-c;4-b D) 1-b;2-d;3-a;4-c;

9. XIX asrda yozilgan Mirzo Shams Buxoriyning kitobi ...
A) "Gulshani ul muluk"
B) „Fathnomayi sultoniy"
C) "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro,Ho'qand va Qoshg'ar"
D) „Yilnomalar to'plami"

10. Quyidagi asarlardan qaysi biri Mirzo Shams Buxoriy tomonidan yozilgan?
A) "Yilnomalar to'plami"
B) "Podshohlar gulshani"
C) "Buxoro, Qo'qon va Qoshg'arning ayrim voqea-hodisalari bayoni"
D) "Saralangan tarixlar"

11. Quyidagi tarixiy asarlar mualliflari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.
1) "Gulshan ul-mulk"; 2) "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar"; 3) "Fathnomayi Sultoniy"; 4) "Yilnomalar to'plami";
a) Mir Olim Buxoriy; b) Muhammad Hakimxon; c) Muhammad Yaqub ibn Doniyolbiy; d) Mirzo Shams Buxoriy
A) 1 - c; 2 - d; 3 - a; 4 – b
B) 1 - d; 2 - b; 3 - c; 4 - a
C) 1 - c; 2 - b; 3 - d; 4 – a
D) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 - b

12. Quyidagi asarlardan qaysi biri Mir Olim Buxoriy tomonidan yozilgan?
A) "Shohnomayi nusratpoyon"
B) "Fathnomayi sultoniy"
C) "Saralangan tarixlar"
D) "Buxoro, Qo'qon va Qoshg'arning ayrim voqea-hodisalari bayoni"

13. Quyidagi qaysi shoir o'rtacha, vaqti kelganda kambag'allik va sargardonlikda yashagan?
A) Muhammadniyoz Nishotiy
B) Mujrim-Obid
C) Vola
D) Muhammad Ya'qub ibn Buxoriy

14.Buxoro amirligida yashab ijod qilgan shoirlarni qayd eting.
A) Kavkabiy, Tojis-Saidiy, Sultonali Samarqandiy, Vola, Junaydulloh Hoziq
B) Abdurahmon Tole, Bedil, Turdi, So'fi Olloyor, Mashrab, Muhammadniyoz Nishotiy, Mujrim-Obid
C) Muhammadniyoz Nishotiy, Mujrim-Obid, Shavqiy, Joniy, Hiromiy, Vola, Junaydulloh Hoziq
D) Abdurahmon Tole, Bedil, Shavqiy, Joniy, Hiromiy, Vola va Junaydulloh Hoziq

15. Muhammadniyoz Nishotiy o'zining "Xusni Dil" dostonini nechanchi yilda yozgan edi?
A) 1778-yil B) 1756-yil C) 1771-yil
D) 1807-yil

16. Shoir Volaning bizgacha … she'ri yetib kelgan.
A) 20 ming B) 2 ming C) 12 ming
D) 3 ming

17. Muhammadniyoz Nishotiyning "Qushlar munozarasi" asarida nechta qush o'rtasida bo'lib o'tgan bahs jarayoni tasvirlangan?
A) 12 ta B) 20 ta C) 24 ta D) 14 ta

18. Mir Ma'sum Olamiyon qaysi hukmdor davrida ijod qilgan?
A) Shohmurod davrida
B) Amir Nasrullo davrida
C) Doniyolbiy davrida
D) Amir Haydar davrida

19. Mir Ma'sum Olamiyon qaysi hukmdor davrida ijod qilgan?
A) Muhammad Rahimxon II Feruz
B) Amir Muzaffar C) Amir Haydar
D) Amir Shohmurod

20. Quyidagi qaysi ijodkor Amir Haydar davrida ijod qilib "Axloqi Muhsiniy" kitobini hamda Sa'diyning she'riy asarlarini rasm bilan bezaydi?
A) Mirzo Sodiq Jondoriy
B) Mir Ma'sum Olamiyon
C) Ahmad Donish D) Mujrim Obid

21. Axloqi Muhsiniy" kitobini hamda Sa'diyning sheriy asarlarini rasm bilan bezagan rassomni belgilang.

A) Mirzo Sodiq Jondoriy
B) Mir Ma'sum Olamiyon
C) Ahmad Donish D) Mujrim Obid

22. Quyidagi tasviriy san'at ijodkorlaridan qaysi biri amir Nasrullo amirligi davrida Qo'lyozma kitoblarda lavhalar "Sad'iy va Hofiz" asarlarida turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan?
A) Mirzo Sodiq Jondoriy
B) Mir Ma'sum Olamiyon
C) Ahmad Donish D) Mujrim Obid

23. XIX asrda Buxoro amirligida yashab ijod qilgan Muhammad Hakimxon qalamiga mansub asar nomini belgilang.
A) "Yilnomalar to'plami"
B) "Fathnomayi sultoniy"
C) "Axloqi muhsiniy" D) "Gulshan ul mulk"

24.. Buxoro saroy kutubxouasida 20 yil mobaynida xattot va rassom bo'lib ishlagan faylasuf olimni aniqlang.
A) Muhammadniyoz Nishotiy
B) Ahmad Donish C) Mujrim Obid
D) Junaydulloh Hoziq

25. Qachon Buxoroda „Shaslimaqom" vujudga kelgan?
A) XVIII asr o`rtalarida B) XVIII asr oxirida
C) XIX asr boshlarida D) XIX asr o`rtalarida

## IV-bob. XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI. XVI-XVIII ASRNING BIRINCHI YARMIDA XONLIKNING IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI.

### 19- §. Xiva xonligining tashkil topishi.

1.Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm ...
A) mustaqil davlat edi.
B) temuriy Sulton Husayn Boyqaro tasarrufida edi.
C) Safaviylar tasarufida edi.
D) bir necha qismlarga bo`linib ketgan edi.

2.Xorazmga qo'ng'irot qabilasidan chiqqan Chin
So'fi hokim etib tayinlangan va u ...
A) rasman Husayn Boyqaro noibi hisoblanardi.
B) rasman Ismoil Safaviy noibi hisoblangan
C) rasman Oltin O`rda xonlariga bo`ysungan.
D) rasman Muhammad Shayboniyxonning vakili bo`lgan

3. Xorazm aholisi Eron safaviylariga qarshi kurashib, mamlakat taxtiga Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qilishadi. Bu paytda Elbarsxon qayerda edi?
A) Urganchda
B) Mang'ishloq yarim orolida
C) Shimoliy Erondagi Saraxsda
D) Dashti Qipchoqda

4. Quyidagi qaysi shaxs Xorazm aholisining Eron qo'shinlariga qarshi mustaqillik kurashiga (1511-1512-yillar) boshchilik qilgan?
A) Abdullaxon B) Anushaxon
C) Shohniyozxon
D) Elbarsxon

5. Qaysi hukmdor tomonidan Xiva xonligi poytaxti Urganch shahriga ko'chirildi?
A) Arab Muhammadxon B) Elbars Sulton
C) Elbarsxon D) Hojimxon

6. Elbarsxon davrida Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'pgina qabilalarning ko'chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada ...
A) xonlik hukmdorlarining ijtimoiy tayanchiga putur yeta boshladi
B) Xiva xonlarining mamlakat hududini qo'shni davlatlar hisobiga kengaytirish imkomyati yo'qola boshladi
C) xonlik hukmdorlarining ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi
D) xon saroyidagi ichki nizolar yanada avjiga chiqdi

7. Quyidagi sabablarning qaysilari XVI asrda Xiva xonligining iqtisodiy inqiroziga olib keldi?
1) Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirishi;
2) Xiva xonligining Buxoro xonligi tomonidan ikki marta bosib olinishi;
3) O'zaro qabilaviy urushlar va og'ir soliqlar;
4) Dashti Qipchoq xonlarining tinimsiz hujumi
A) 2, 3, 4 B) 1, 4 C) 1, 2, 3 D) 2, 4

8. XVI asrda tashkil topgan ikki davlat - Buxoro va Xiva xonligi o'rtasidagi dushmanlik munosa-batlari hukm surishiga asosiy sabab nima edi?
1) Xonliklarning bosqinchilik hisobiga o'z hududlarini kengaytirishga urinishi; 2) Xiva xonligining Eron safaviylari qo'lida ma'lum muddat qolganligi; 3) Eron safaviylarining har ikkala xonlikni bir-biriga qarshi gij-gijlashi; 4) Har ikkala xonlikdagi hukmron sulolalarning bir-biriga g'anim bo'lib qolgan xonadonlarga mansubligi
A) 1, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

9. Buxoro xoni Ubaydulloxon Xorazmga hujum qilgan paytda, Xiva xoni kim edi?
A) Avaneshxon B) Hojimxon
C) Elbarsxon D) Arab Muhammadxon

10. Shayboniy Ubaydullaxon tomonidan Xiva xonligi Buxoroga bo'ysundirilgan davrda o'ldirilgan Xiva xoni kim edi?
A) Elbarsxon B) Elto'zarxon
C) Avaneshxon D) Anushaxon

11. XVI asrda Xorazmni bosib olgan hukmdor-larni ularni bosib olgan yillari bilan mos ravishda ko'rsating.
1)1505-yilda; 2)1510-yilda; 3)1538-yilda; 4)1595-yilda.
a) Shayboniyxon; b) Ubaydullaxon; c) Ismoil Safaviy; d) Abdullaxon II.
A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d B) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d
C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d D) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d

12. XVI asrda Xorazmni bosib olgan hukmdorlarni aniqlang.
A) Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Ko'chkinchi-xon, Abdullaxon II
B) Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Ubaydullaxon, Abdullaxon II
C) Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Abdullaxon I
D) Shayboniyxon, Ko'chkinchixon, Ubaydulla-xon, Abdulmo'min

13. Xiva xoni Avaneshxon nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 1516-1525-yillar B) 1525-1538-yillar
C) 1522-1538-yillar D) 1540-1593-yillar

14. Arabchada o'rinbosar va yordamchi ma'nolarini aniglatuvchi atamani toping.
A) Amir B) Inoq C) Noib D) Hokim

15. Musulmon haq dini uchun kurashuvchilar qanday nomlangan?
A) Bog'iy B) Shahid C) G'ozi D) Saffor

## 20- §. XVII — XVIII asrning birinchi yarmida Xiva xonligidagi siyosiy ahvol.

1. XVII asrda Xiva xonligi siyosiy hayotidagi eng xarakterli xususiyatlarini aniqlang.
A) markaziy hukmron sulola ta'sirining pasayishi
B) qabila boshliqlari ta'sirining kuchayishi
C) yaxshi qushnichilikka asoslanish
D) A va B

2. XVII asrda Xiva xonligi siyosiy hayotida qanday xususiyat kuzatiladi?
A) hukmron sulola nufuzining pasayishi
B) qabila boshliqlari nufuzining pasayishi
C) hukmron sulola nufuzining oshib borishi
D) A va B

3. Quyidagi qaysi shaxs hukmronligi davrida (XVII asr boshlari) Xiva xonligida parokandalik eng yuqori nuqtasiga yetgan edi?
A) Arab Muhammadxon B) Nuralixon
C) Elbarsxon D) Olloqulixon

4. Xivadagi qaysi hukmdor davrida davlat parokandaligi kuchaydi?
A) Arab Muhammadxon (1602-1621)
B) Habash Sulton va Elbars Sulton (1621-1623)
C) Asfandiyorxon (1623-1643)
D) Abulg'ozixon (1644-1663)

5. Xiva xoni Arab Muhammad davri bilan bog'liq voqealarni aniqlang.
1) xonlikda parokandalik yuqori nuqtasiga yetgan; 2) Amudaryo o'zanining o'zgarishi va poytaxt Urganchdan Xivaga ko'chirildi; 3) Yoyiq kazaklari atamani Nechay, ko'p o'tmay Shamay Urganchga hujum qildilar, Xiva qo'shini ularni tor-mor qildi; 4) Xon o'g'illari ayrim qabilalarning boshliqlariga tayanib, otalariga qarshi isyon ko'tardilar;

5) Buxoro xonlari Boqi Muhammad bosqini kuchaydi; 6) Eron shohi Abbos I ning hujumlari avj oldi.
A) 1,2,3,6 B) 1,2,4,6
C) 1,3,4,5 D) 1,2,3,4

6. Arab Muhammadxon Xiva xonliga poytaxtini Urganchdan Xivaga ko'chirish majbur bo'lgan edi. Buning sababini aniqlang.
A) Buxoro amirliga bilan muqarrar bo'lgan urushning oldini olish maqsadida Arab Muhammadxon shunday yo'l tutgan edi.
B) Turkman qabilalarining tinimsiz hujumlari natijasida Aram Muhammadxon poytaxtni ko'chirishga majbur bo'lgan edi.
C) U qozoq biylarining tinimsiz Xiva shahriga bo'lgan da'volarini butunlay yo'qqa chiqarish
maqsadida shunday yo'l tutgan edi.
D) Amudaryo o'zanining o'zgarishi va natijada uning qurib borishi Arab Muhammadxonni poytaxtni ko'chirishga majbur bo'lgan edi.

7. Arab Muhammadxonning o'g'illari otalariga qarshi isyon ko'targan yillarda Buxoroda hukmronlik qilgan shaxsni ko'rsating.
A) Vali Muhammad B) Nodir Muhammad
C) Abdulazizxon D) Imomqulixon

8. Ma'lumki, 1616-yil Arab Muhammadxonga qarshi o'g'illari isyon ko'targan edi. Bu isyonni tinchitish maqsadida Arab Muhammad isyonkor o'g'illariga yon berib, qaysi shaharni ular boshqaruvidagi hududga qo'shib bergan?
A) Xonqa B) Urganch C) Hazorasp
D) Vazir

9. Habash va Elbars Sultonlar nechanchi yilda qatl qilindi?
A) 1621-yil B) 1627-yil C) 1623-yil
D) 1630-yil

10. Abulg'ozixon 1623 yil kim tomonidan Urganch hokimi etib tayinlangan?
A) Asfandiyorxon B) Sherg'ozixon
C) Arab Muhammadxon D) Elbarsxon

11. Eronda shoh Abbos hukmdorlik qilgan vaqtda undan yordam so'rab ko'rgan movarounnahr hukmdorlarini aniqlang.
A) Ubaydullaxon, Abulg'ozixon
B) Vali Muhammad, Asfandiyorxon
C) Imomqulixon, Asfandiyorxon
D) Abulfayzxon, Anushaxon

12. Eron shohi Abbos I yordami bilan Xiva taxtini egallagan hukmdor.
A) Anushaxon B) Avaneshxon
C) Asfandiyorxon D) Abulg'ozixon

13. Quyidagi qaysi Xiva xoni o'n yil Eronda tutqunlikda kun kechirgan?
A) Asfandiyorxon B) Anushaxon
C) Abulg'ozixon D) Avaneshxon

14. Abulg'oziy Bahodirxon nechanchi yillarda Eronda tutqinlikda bo'lgan?
A) 1629-1642-yillar
B) 1630-1639-yillar
C) 1633-1643-yillar
D) 1626-1635-yillar

15. Quyidagi qaysi tadbir orqali Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon qabila boshliqlarining markaziy hokimiyatga qarshi harakatlariga barham bermoqchi bo'lgan?
A) qabila boshliqlari faoliyati ustidan devonbegi nazoratini o'rnatish orqali
B) bo'ysunishni istamagan qabila boshliqlarini qabilasi bilan boshqa hududlarga ko'chirish orqali
C) qabila boshliqlarining nufuzini oshirish orqali
D) qabila boshliqlarining imtiyozlarini cheklash orqali

16. Xivada Abulg'ozixon hukmronlik qilgan davrda Ashtarxoniylar davlatini boshqargan shaxsni aniqlang.
A) Abdulaziz B) Abulfayzxon
C) Subhonqulixon D) Imomqulixon

17. Quyidagilardan qaysilari Xiva o'zbeklariga aloqador eng asosiy qabilalarga kiradi?
A) qo'ng'irot, nayman, qiyot, mang'it, qipchoq
B) barlos, saroy, qalmiq, toqchi, qipchoq

C) mang'it, nayman, no'g'oy, o'z, qovchin, qatag'on
D) qurama, shaybon, avaxli, nudichi, kenagas

18. Xonliklar davridagi qaysi hukmdor o'z davati hududidagi barcha qabilalarni to'rt guruhga bo'lgan edi?
A) Nasrulloxon B) Abulg'ozixon
C) Elbarsxon D) Arab Muhammad

19. 1685-yil Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasida jang qaryeda bo'lib o'tgan?
A) G'ijduvon yaqinida B) Hazoraspda
C) Urganch yaqinida D) Karmanada

20. Kimning davrida Xivada o'z tarafdorlaridan shunday fitnachi guruh uyushtira olgan ediki, buning oqibatida Xiva xonligining siyosiy hayoti yanada murakkablashdi?
A) Abdullaxon II B) Ubaydullaxon
C) Imomqulixon D) Subxonqulixon

21. Buxoro xoni Abulfayzxon Xiva xoni Sher-g'ozixon davrida orolliklarni Xiva xoniga qarshi gij-gijlaydi. Natijada…
A) Sherg'ozixon ularni boshqa hududlarga ko'chirib yubordi
B) Orolbo'yi aholisi Xiva, xonligidan ajralib chiqadi
C) Buxoro bilan urush boshlandi
D) Xiva xoni ularga yon bosishga majbur bo'ldi

22. Xivada qaysi xon hukmronlik qilib turgan davrda Buxoro xoni Abulfayzxon orolliklarni Xiva xoniga qarshi gijgijlay boshlagan edi?
A) Anushaxon B) Arab Muhammadxon
C) Sherg'ozixon D) Asfandiyorxon

23. Xiva xoni Sherg'ozixon hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
A) 1714- 1728-yillar B) 1715-1725-yillar
C) 1725-1738-yillar D) 1726-1740-yillar

24. Xiva xonligida qabilalar o'zaro kelisholmagach, endi taxtga Qozoq xonligidan chingiziy sultonlarni o'tqazish boshlandi.Xiva taxtiga o'tqazilgan xonlardan qaysi biri ularning birinchisi bo'lgan?
A) Abulg'ozixon B) Sherg'ozixon
C) Shohniyoz D) Elbarsxon

25. Ma'lumki, XVIII asrga kelib Xiva xonligida qabilalar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan so'ng Qozoq xonligidan chingiziy hukmdorlarni chiqarish boshlangan edi. Ulardan birinchi bo'lib kim va qachon Xiva taxtiga o'tirgan?
A) Eltuzar, 1713-yil
B) Muhammad Amin, 1761-yil
C) Tavakkal, 1720-yil
D) Elbarsxon, 1728-yil

26. Xiva xonligida moli omon solig'ini qaysi hukmdor yig'ib olgan?
A) Sherg'ozixon B) Elbarsxon
C) Nodirshoh D) Asfandiyorxon

27. 1740 yili Nodirshoh Xivani bosib olgach, aholiga qanday soliq joriy etgan?
A) oshlig1 B) solg'ut C) jizya D) moli omon

28. Xivada Nodirshohning boshqaruvi o'rnatilganidan keyin avj olgan o'zaro urushlarda qaysi qabilalar ustunlikka ega bo'lib turdi?
A) yovmutlar B) qo'ng'irotlar C) mang'itlar
D) chovdurlar

**29.Quyidagi qaysi Xiva xonlari majburiy ravishda taxtdan tushirilib, qatl etilgan?**
**1) Abulg'oziyxon; 2) Anushaxon;3) Arab Muhammad; 4) Elbars Sulton;**
**5) Avaneshxon; 6) Habash Sulton;**
**7) Asfandiyorxon; 8) Sherg'ozixon;**
**A) 1, 2, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7**
**C) 2, 3, 5, 8 D) 2, 3, 4, 5, 6**

30. O'z xohishi bilan hokimiyatni o'g'liga topshirgan Xiva va Buxoro hukmdorlarini aniqlang.
A) Arab Muhammad va ashtarxoniy Abduiazizxon
B) Asfandiyorxon va Amir Haydar
C) Sherg'ozixon va Boqi Muhammadxon
D) Abulg'oziyxon va Doniyolbiy otaliq

31. Xiva xonligida Eronga qaramlik davrida ham taxt uchun … ayovsiz kurash boshlanadi?
A) viloyatlararo B) bekliklararo

C) qabilalararo D) tumanlararo

32.Tarixga "xonlar o'yini" nomi bilan kirgan hodisa … sulolasi avlodiga mansub xonlarni o'tqazish va atayin tez-tez almashtirib turish natijasida yuz beradi?
A) temuriy B) chingiziy C) shayboniy
D) ashtarxoniylar

33. Xiva xonligidagi boshboshdoqlik davrida o'zaro ichki kurashlarda ma'lum muddat kimlarning qo'li baland keladi?
A) turkman yovmutlarining
B) turkman chovdurlarining
C) shayboniylarning
D) q'ong'irotlarning

34. O'rta Osiyoda XI-XVIII asrlarda hukm surgan sulolalar saltanatida "maslahatchi", "vazir" ma'nolarini anglatuvchi tarixiy atamani aniqlang.
A) inoq B) otaliq
C) dodxoh D) muhtasib

35. Turkiycha "inoq" atamasi qanday ma'noni anglatadi.
A) o'rinbosar B) ishonch
C) do'st D) yaqin

## 21- §. Xiva xonligining iqtisodiy va madaniy hayoti.

1.Xiva xonligidaga eng qadimiy shahar qaysi nom bilan mashhur hisoblanadi?
A) Dunyoning husni B) Ming gumbaz shahri
C) Islom madaniyati poytaxti
D) Yetti olam shon-shavkati

2. Xivada XIX asrning birinchi yarmida kelganda jami ... mavjud bo'lgan?
A) 2 xon saroyi, 17 masjid, 22 madrasa
B) 1 xon saroyi, 26 masjid, 11 madrasa
C) 2 xon saroyi, 34 masjid, 21 madrasa
D) 2 xon saroyi, 24 masjid, 9 madrasa

3. XIX asr birinchi yarmida Xivada faoliyat ko'rsatgan masjidlar miqdorini aniqlang.
A) 22 ta B) 19 ta C) 17 ta D) 34 ta

4. YUNESKO tashkiloti nechanchi yilda Xiva shahrining 2500 yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilgan edi?
A) 1995-yil B) 1997-yil
C) 1993-yil D) 1996-yil

5. Quyidagi qaysi shahar Buyuk ipak yo'lida joylashganligi tufayli tez sur'atlar bilan rivojlangan savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan?
A)Samarqand B)Buxoro C)Xiva
D)Yangi Urganch

6. Xiva shahri Xiva xonligining poytaxtiga aylangan vaqtni aniqlang.
A) XVII asr B) XVI asr
C) XV asr D) XIII asr

7. Qaysi davrdan boshlab Xiva shahri xonlikning poytaxtiga aylandi?
A) XVI asr oxirlaridan boshlab
B) XVII asr I choragidan boshlab
C) XVII asr oxirlaridan boshlab
D) XVIII asr o'rtalaridan boshlab

8. Yangi Urganchga qaysi asrda asos solingan?
A) XVII asr o'rtalarida B) XV asrda
C) XVI asr o'rtalarida D) XVIII asrda

9. Qaysi voqea Vazir shahri ahamiyatini butunlay yo'qotilishiga asos bo'lib xizmat qilgan?
A) Ubaydullaxon istilosi
B) Yangi Urganch shahriga asos solinishi
C) ko'chmanchi qozoqlar hujumi
D) N. Muravyov elchiligi

10.. ... yilda Urganch shahriga asos solingan.
A) 995-yil B) 1663-yil C) 1656-yil
D) 1646-yil

11. Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmand-chilikning … sohasi qayd etilgan?
A) 103 B) 212 C) 27 D) 82

12. XVII-XVIII asrlarda Xivada hunarmandlar uyushmasi boshlig'I …
A) xonning xazina siyosatini o'tkazuvchi shaxs hisoblangan
B) xonning eng yaqin kishisi bo'lgan
C) umumiy nizom asosida ish yuritgan

D) xonlikdagi barcha savdo ishlarini boshqarigan

13. Xiva xonligi yerlarining yarmidan ortig'iga qanday ekin ekilar edi?
A) sholi B) g'alla
C) paxta D) jo'xori

14. Noto'g'ri berilgan javobni toping.
A) 1646-yil Yangi Urganch shahriga asos solingan
B) Vazir shahri aholisi Ko`hna Urganchga ko`chirilgan
C) Xiva xonligi ekinzorlarining 1/5 qismida paxta yetishtirilgan
D) Bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun "tagjoy" solig'i olingan

15. Xiva elchisining 1620-yil … shahrida 670 kiyimlik mato sotganligi manbalarda qayd etilgan.
A) Orenburg B) Novgorod C) Qozon
D) Astraxan

16. Xiva xonligida bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun qanday soliq turi olingan?
A) ushr B) tagjoy C) tarozuyona
D) qo'riqbon puli

17. Ma'lumki, XVI asrning oxirlaridan boshlab Xivaning Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalari yo'lga qo'yila boshlandi. Xiva elchilari Rossiyaga asosan ...
A) metall va zargarlik buyumlari ohb borishgan.
B) zargarlik buyumlari va gazlamalar olib borishgan.
C) guruch va ziravorlar olib borishgan.
D) gazlama va to'qilgan buyumlar olib borishgan.

18. Xiva tarixshunosligi maktabiga kim tomonidan asos solindi?
A) Munis B) Abulg'ozixon C) Ogahiy
D) Muhammad Rizo Ohund

19. "Shajarayi turk" asarining 9-bobi qaysi tarixiy davrga bag'ishlangan?
A) Xiva xoni Abulg'ozixonning hayoti va faoliyatiga
B) Xiva xonligining Buxoro xonligi bilan munosabatlariga
C) Xorazmning 1512-1663-yillardagi ijtimoiy- siyosiy tarixiga
D) Turkiy xalqlarining kelib chiqishi va keyingi holatlariga

20. Jahon "Shajarayi Turk" nomli tarixiy asar uchun undan minnatdor edi.Abulg'ozi Bahodirxonga berilgan ushbu ta'rifning muallifi kim?
A) Veselovskiy B) J.Neru C) X.Vamberi
D) F.Benevini

21. Xiva xoni Abulg'ozi topshirig'i bilan "Dastur ul-amal" asari yozilgan bo'lib, ushbu asarda ..
A) "Shajarayi turk" asariga batafsil izoh berilgan.
B) Afrig'iylardan Abulg'ozixongacha bo'lgan Xiva hukmdorlari sulolasi sharhlangan.
C) Abulxayrxondan Abdulmo'mingacha bo'lgan shayboniylar shajarasi sharhlangan.
D) Sohibqiron Amir Temurdan Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlan-gan.

22. Amir Temurdan Mirzo Boburgacha bo'lgan temuriylar shajarasi haqida qisqacha sharhlar berilgan XVII asrda yaratilgan asar nomini aniqlang.
A) "Dastur ul-amal" B) "Shajarai tarokima"
C) "Shajarai turk" D) "Boburnoma"

23. Xiva xonlari kutubxonalarida qachondan xattotlik, husnixat maktabi shakllandi?
A) XVII asrda B) XIV asrda C) XV asrda
D) XVI asrda

24. Qaysi mashhur xattot 1556 yilda Eshmuhammadxonga "Shohnoma" ni miniaturalar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berdi?
A) Sanoiy B) Hamadoniy C) Yusuf Rojiy
D) Muhammad Rizo Oxund

25. Xattot Hamadoniy tomonidan Eshmuhammadxon uchun ko'chirib berilgan asar nomini aniqlang.
A) "Zafarnoma" B) "Boburnoma"
C) "Shohnoma" D) "Abdullanoma"

C) qabilalararo D) tumanlararo

32.Tarixga "xonlar o'yini" nomi bilan kirgan hodisa … sulolasi avlodiga mansub xonlarni o'tqazish va atayin tez-tez almashtirib turish natijasida yuz beradi?
A) temuriy B) chingiziy C) shayboniy
D) ashtarxoniylar

33. Xiva xonligidagi boshboshdoqlik davrida o'zaro ichki kurashlarda ma'lum muddat kimlarning qo'li baland keladi?
A) turkman yovmutlarining
B) turkman chovdurlarining
C) shayboniylarning
D) q'ong'irotlarning

34. O'rta Osiyoda XI-XVIII asrlarda hukm surgan sulolalar saltanatida "maslahatchi", "vazir" ma'nolarini anglatuvchi tarixiy atamani aniqlang.
A) inoq B) otaliq
C) dodxoh D) muhtasib

35. Turkiycha "inoq" atamasi qanday ma'noni anglatadi.
A) o'rinbosar B) ishonch
C) do'st D) yaqin

**21- §. Xiva xonligining iqtisodiy va madaniy hayoti.**

1.Xiva xonligidaga eng qadimiy shahar qaysi nom bilan mashhur hisoblanadi?
A) Dunyoning husni B) Ming gumbaz shahri
C) Islom madaniyati poytaxti
D) Yetti olam shon-shavkati

2. Xivada XIX asrning birinchi yarmida kelganda jami ... mavjud bo'lgan?
A) 2 xon saroyi, 17 masjid, 22 madrasa
B) 1 xon saroyi, 26 masjid, 11 madrasa
C) 2 xon saroyi, 34 masjid, 21 madrasa
D) 2 xon saroyi, 24 masjid, 9 madrasa

3. XIX asr birinchi yarmida Xivada faoliyat ko'rsatgan masjidlar miqdorini aniqlang.
A) 22 ta B) 19 ta C) 17 ta D) 34 ta

4. YUNESKO tashkiloti nechanchi yilda Xiva shahrining 2500 yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilgan edi?
A) 1995-yil B) 1997-yil
C) 1993-yil D) 1996-yil

5. Quyidagi qaysi shahar Buyuk ipak yo'lida joylashganligi tufayli tez sur'atlar bilan rivojlangan savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan?
A)Samarqand B)Buxoro C)Xiva
D)Yangi Urganch

6. Xiva shahri Xiva xonligining poytaxtiga aylangan vaqtni aniqlang.
A) XVII asr B) XVI asr
C) XV asr D) XIII asr

7. Qaysi davrdan boshlab Xiva shahri xonlikning poytaxtiga aylandi?
A) XVI asr oxirlaridan boshlab
B) XVII asr I choragidan boshlab
C) XVII asr oxirlaridan boshlab
D) XVIII asr o'rtalaridan boshlab

8. Yangi Urganchga qaysi asrda asos solingan?
A) XVII asr o'rtalarida B) XV asrda
C) XVI asr o'rtalarida D) XVIII asrda

9. Qaysi voqea Vazir shahri ahamiyatini butunlay yo'qotilishiga asos bo'lib xizmat qilgan?
A) Ubaydullaxon istilosi
B) Yangi Urganch shahriga asos solinishi
C) ko'chmanchi qozoqlar hujumi
D) N. Muravyov elchiligi

10.. ... yilda Urganch shahriga asos solingan.
A) 995-yil B) 1663-yil C) 1656-yil
D) 1646-yil

11. Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmand-chilikning … sohasi qayd etilgan?
A) 103 B) 212 C) 27 D) 82

12. XVII-XVIII asrlarda Xivada hunarmandlar uyushmasi boshlig'I …
A) xonning xazina siyosatini o'tkazuvchi shaxs hisoblangan
B) xonning eng yaqin kishisi bo'lgan
C) umumiy nizom asosida ish yuritgan

D) xonlikdagi barcha savdo ishlarini boshqarigan

13. Xiva xonligi yerlarining yarmidan ortig'iga qanday ekin ekilar edi?
A) sholi B) g'alla
C) paxta D) jo'xori

14. Noto'g'ri berilgan javobni toping.
A) 1646-yil Yangi Urganch shahriga asos solingan
B) Vazir shahri aholisi Ko`hna Urganchga ko`chirilgan
C) Xiva xonligi ekinzorlarining 1/5 qismida paxta yetishtirilgan
D) Bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun "tagjoy" solig'i olingan

15. Xiva elchisining 1620-yil … shahrida 670 kiyimlik mato sotganligi manbalarda qayd etilgan.
A) Orenburg B) Novgorod C) Qozon
D) Astraxan

16. Xiva xonligida bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun qanday soliq turi olingan?
A) ushr B) tagjoy C) tarozuyona
D) qo'riqbon puli

17. Ma'lumki, XVI asrning oxirlaridan boshlab Xivaning Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalari yo'lga qo'yila boshlandi. Xiva elchilari Rossiyaga asosan ...
A) metall va zargarlik buyumlari ohb borishgan.
B) zargarlik buyumlari va gazlamalar olib borishgan.
C) guruch va ziravorlar olib borishgan.
D) gazlama va to'qilgan buyumlar olib borishgan.

18. Xiva tarixshunosligi maktabiga kim tomonidan asos solindi?
A) Munis B) Abulg'ozixon C) Ogahiy
D) Muhammad Rizo Ohund

19. "Shajarayi turk" asarining 9-bobi qaysi tarixiy davrga bag'ishlangan?
A) Xiva xoni Abulg'ozixonning hayoti va faoliyatiga
B) Xiva xonligining Buxoro xonligi bilan munosabatlariga
C) Xorazmning 1512-1663-yillardagi ijtimoiy- siyosiy tarixiga
D) Turkiy xalqlarining kelib chiqishi va keyingi holatlariga

20. Jahon "Shajarayi Turk" nomli tarixiy asar uchun undan minnatdor edi.Abulg'ozi Bahodirxonga berilgan ushbu ta'rifning muallifi kim?
A) Veselovskiy B) J.Neru C) X.Vamberi
D) F.Benevini

21. Xiva xoni Abulg'ozi topshirig'i bilan "Dastur ul-amal" asari yozilgan bo'lib, ushbu asarda ..
A) "Shajarayi turk" asariga batafsil izoh berilgan.
B) Afrig'iylardan Abulg'ozixongacha bo'lgan Xiva hukmdorlari sulolasi sharhlangan.
C) Abulxayrxondan Abdulmo'mingacha bo'lgan shayboniylar shajarasi sharhlangan.
D) Sohibqiron Amir Temurdan Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlan-gan.

22. Amir Temurdan Mirzo Boburgacha bo'lgan temuriylar shajarasi haqida qisqacha sharhlar berilgan XVII asrda yaratilgan asar nomini aniqlang.
A) "Dastur ul-amal" B) "Shajarai tarokima"
C) "Shajarai turk" D) "Boburnoma"

23. Xiva xonlari kutubxonalarida qachondan xattotlik, husnixat maktabi shakllandi?
A) XVII asrda B) XIV asrda C) XV asrda
D) XVI asrda

24. Qaysi mashhur xattot 1556 yilda Eshmuhammadxonga "Shohnoma" ni miniaturalar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berdi?
A) Sanoiy B) Hamadoniy C) Yusuf Rojiy
D) Muhammad Rizo Oxund

25. Xattot Hamadoniy tomonidan Eshmuhammadxon uchun ko'chirib berilgan asar nomini aniqlang.
A) "Zafarnoma" B) "Boburnoma"
C) "Shohnoma" D) "Abdullanoma"

26.XVII-XVIII asrlarda Xivada Muhammad Yusuf Rojiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi shaxslar qaysi sohada ijod qilganlar?
A) adabiyot B) tasviriy san'at C) naqqoshlik
D) xattotlik

27. Quyidagi kitobni bezovchi ustalarni o'z vazifalari bilan muvofiqlashtiring.
1) lavvoh; 2) sahhof; 3) muzahhib;
a) muqovalovchi; b) sarlavha yozuvchi;
c) oltin suvini yurituvchi
A) l-b; 2-a; 3-c B) 1-a; 2-b; 3-e
C) 1-a; 2-c; 3-b D) l-c; 2-a; 3-b

28. Muzahhib bu -...
A) ekin dalalarini sug'oruvchi
B) xumdonda g'isht pishiruvchi
C) oltin suvni yurituvchi
D) imorat peshtoqiga bo'yoq bilan bezak beruvchi

## V-bob. XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA XIVA XONLIGI.

### 22- §. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi.

1. XVIII asrning 60-yillaridan boshlab Xiva xonligida...
A) hokimiyat butunlay qabila boshliqlari qo'liga o'tdi.
B) ichki qabilaviy urushlarga butunlay barham berildi.
C) hokimiyatni qo'ng'irot qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga ola boshladilar.
D) chetdan soxta xojq chaqirilishiga barham berildi.

2. Qo'ng'irotlar yetakchisi bo'lgan Muhammad Amin kimlarning madadiga tayanib 1761 yilda inoqlik lavozimiga ko'tarilgan?
A) yirik zodagonlar va ruhoniylar
B) Doniyolbiy va yirik zadogonlar
C) turkmanlarning takya va yovmud qabilalari
D) Orolbo'yi o'zbeklari

3. XVIII asming 60-yillarida Qo'ng'irotlar Xivada hokimiyat uchun kurash boshlagan davrda turkman qabilalari Xivani egallab, quyidagi qaysi shaharlarni xonavayron qildilar?
1) Hazorasp; 2) G'azovot; 3) Xonqa;
4) Urganch; 5) Vazir; 6) Kat; 7) Qo'ng'irot;
8) Shohobod.
A) 1, 3, 4, 6, 8 B) 2, 3, 4, 6, 7
C) 1, 2, 4, 6, 7 D) 1, 3, 4, 5, 7

4. XVIII asrning ikkinchi yarmida Turkman qabilalari Xorazmni egallab, aholiga tazyiq o'tkazadi. Natijada O'zbeklar ..
A) Xuroson va Afg'onistonga ketishga majbur bo'ladilar.
B) Eron va Kaspiy ortiga ketishga majbur bo'ladilar.
C) Orol va Buxoroga ketishga majbur bo'ladilar.
D) Kichik O'rda va Qoraqumga ketishga majbur bo'ladilar.

5. Muhammad Amin nechanchi yilda yovmitlarni Xorazmdan haydab chiqardi?
A) 1770-y. B) 1800-y. C) 1750-y. D) 1782-y.

6. Qaysi javobda qo'ng'irotlar yetakchisi Muhammad Amin inoqlik lavozimiga ko'tarilgan paytda kurash olib borgan qabilalar keltirilgan?
A) chovdur va takya B) yovmut va takya
C) yovmut va chovdur D) qipchoq va kenegas

7. Muhammad Amin hukmronligining so'nggi yillarida kimlarning madadiga tayanib, mamlakatda nisbatan osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi?
A) o'z qabilalarining faol qatlami, turk sarbozlari, Buxoro harbiylari
B) turkman sardori, ruhoniylar, harbiylar
C) harbiylar, ruhoniylar, hunarmandlar
D) o'z qabilasining faol qatlami, ruhoniylar, savdogarlar

8. Muhammad Amin inoq hukmronligining oxirlarida mamlakatda nisbatan osoyishtalik vaziyatini yaratdi. U bunga qanday erishdi?
A) o'z qabilasining faol qatlamiga, savdogarlar va ruhoniylar madadiga tayanib
B) savdogarlar, ruhoniylar va Orolbo'yi o'zbeklariga suyanib

C) turli turkman qabilalari o'rtasidagi nizolardan oqilona foydalanib va Doniyolbiydan yordam olib
D) turkmanlarning yovmud qabilasini tor-mor keltirib

9. Xivada qaysi hukmdor davrida chetdan soxta xon chaqirish to'xtatilgan edi?
A) Muhammad Amin inoq B) Avazxon
C) Muhammad Rahimxon I D) Eltuzar

10. Xiva xonligi taxtini Eltuzarxon vafotidan keyin kim egallagan?
A) Muhammad Aminxon B) Avaz
C) Muhammad Rahimxon I D) Olloqulixon

11. Xiva xonligida akasidan keyin o'tirgan hukmdorlarni aniqlang.
A) Asfandiyorxon, Abulg'ozixon, Muhammad Rahimxon I
B) Asfandiyorxon, Eltuzarxon, Muhammad Aminxon
C) Abulg`ozixon, Anushaxon,Muhammad Rahimxon I
D) Avaz Muhammad, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon II

12..Qo'ng'irot xonlaridan qaysi biri davrida xonlikda nisbiy barqarorlik ta`minlandi?
A) Elto'zar davrida
B) Muhammad Rahimxon I davrida
C) Bo'lakayxon davrida
D) Avaz Muhammad davrida

13. Yovmut qabilasi Xiva xonligi fuqarolari tarkibiga olingach ularga qanday majburiyatlar yuklandi?
A) soliq to'lash va xon qo'shiniga belgilangan miqdorda navkar yuborish
B) begor majburiyatini bajarish
C) soliq to'lash va begor majburiyatini bajarish
D) Buxoroga qarshi harbiy yurishda ishtirok etish

14.. Xiva hukmdorlariniug faoliyatiga mos keluvchi javoblarni belgilang.
1) Muhammad Amin inoq; 2) Avaz Muhammad inoq; 3) Eltuzar;4)Muhammad Rahimxon I; 5) Olloqulixon;
a) uning davrida turkmanlami bo'ysindirish masalasi yetakchi o'ringa chiqdi; b) uniug davrida Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan ancha mustahkam-landi; c) uning davrida qo'ngirotlar sulolasi Xiva xonligi taxtini rasman egalladi; d) Buxoroga 7 marta yurish qildi; e) u mamlakatda nisbatan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi
A) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a, 5-e
B) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d, 5-e
C) 1-e, 2-b, 3-c, 4-a, 5-d
D) 1- a, 2-e, 3-d, 4-c, 5-b

15. Ma'lumki, Muḥammad Rahimxon I davrida bo'ysunishni istamagan yovmut qabilasi Xurosonga ko'chib ketadi. Biroq, ma'lum sabablarga ko'ra ular yana Xiva xonligi hududlariga qaytib kelib, xon tomonidan ajratib berilgan hududga joylashishga majbur bo'ladilar. Shu davrdan boshlab ...
A) yovmut qabilasi taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog'lanadi va ular xonlik fuqarolari tarkibiga olinadi.
B) yovmut qabilalari sohqlardan ozod qihnadilar, ammo xonga ma'lum miqdorda navkar yuborishga majbur edilar.
C) yovmut qabilalari bilan o'zbek qabilalari o'rtasida hududlar uchun bo'lgan qonli kurashlar avj oldi.
D) yovmut qabilalari xonlikning tarkibiy qismiga aylangan bo'lsa-da, ularga hech qanday e'tibor berilmadi.

16. Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida Xiva xonligida ...
A) zulm va talonchilik girdobida qolgan xalq turmushi og'irlashib bordi.
B) siyosiy parokandalik keskinlashib, markazdan qochuvchi kuchlar faollashdi.
C) mamlakat siyosiy jihatdan birlashtirilib, nisbiy barqarorlik ta'minlandi.
D) siyosiy jihatdan qisman birlashtirilgan bo'lsa-da, qabilaviy kurashlar nihoyatda avjiga chiqqan edi.

17.Xiva xoni Muhammad Rahimxon I shahsi bilan bog'liq ma`lumotlarning noto'g'risini toping.
1) O'zbeklar va qoraqalpoqlardan „xon navkarlari" deb atalgan muntazam qo'shin tuzgan;

2) mamlakat obodonchiligiga ham alohida e'tibor berib, qator madrasalar va masjidlar qurdirdi.
3) Bir qancha kanallar qazdirib, ekin maydonlari-ga suv chiqartirdi. Mamlakatda ichkilik va bangi-likni taqiqladi.
4) Ilm ahliga homiylik ko'rsatib, o'zi ham madra-salarning birida dars berdi.
5) Afg'onistonda hokimiyat uchun kurashayotgan shoh Ismoilning ikkinchi marta hokimiyat tepasiga kelishida yordam ham bergan.
6) 1822-yilda Marvni Buxorodan qaytarib olgan. O'zaro urushlarga qaramay, Buxoro bilan savdo aloqalari to'xtab qolmagan.
7) uning davrida noyib me'moriy obida, xonlik ustalari yuksak mahoratining ko'zgularidan biri bo'lgan Karvonsaroy majmuasini bunyod ettilgan.
8) o'z hukmdorligi davrida davlat boshqaruvi tizimida islohot o'tkazgan. Unga ko'ra xon huzurida yuqori ma'muriy organ — Oliy Kengash ta'sis etilgan
A) 1,2,4,6 B) 1,4,5,7
C) 2,4,6,8 D) 2,3,7,8

18. "Xon navkarlari" deb atalgan muntazam qo'shinga tayanib yirik zodagonlar qarshiligini sindirish uchun shiddatli kurashda o'z raqiblarini birin-ketin bo'ysundira olgan hukmdor ...
A) Muhammad Amin inoq B) Eltuzarxon
C) Muhammad Rahimxon I D) Olloqulixon

19. Qaysi xon o`z hukmronligi davrida olimlar, shoir va donishmandlar bilan tez-tez suhbatlar o'tkazib turdi?
A) Muhammad Amin inoq B) Eltuzarxon
C) Muhammad Rahimxon I D) Olloqulixon

20. Xiva xonligida otliq askar ma'nosini beruvchi so'zni aniqlang.
A) cherik B) sarboz C) navkar D) harbiy

## 23- §. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining tashqi siyosati.

1. XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston va Turkiya kabi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va elchilik aloqalari rivojlanishiga sabab nima bo'lgan?
1) Xiva xonligi hududining o'rta osiyolik savdogarlar va Haj safariga boruvchilarning Kaspiy dengizi orqali muqaddas Makka va boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi
2) Xiva xonligining Rossiya bilan savdoda bir qancha to'siqlar mavjudligi va masofaning uzoqligi
3) chet davlatlar bilan savdo-sotiqni rivojlantirish davlat xazinasiga yaxshigina daromad keltirayotganligi
4) Osiyo davlatlari bilan din va til yaqinligi hamda tranzid yo'lida joylashganligi
A) 1,2 B) 1,3 C) 2,4 D) 2,3

2. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy va elchilik munosabatlarining rivojlanishi sabablarini aniqlang.
1) Xiva xonligi hududining o'rta osiyolik savdogarlar va haj safariga boruvchilar uchun Kaspiy dengizi orqali boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi; 2) Raim istehkomi-ning qurilishi; 3) turkmanlarning yovmut qabila-sining Xiva xonligiga bo'ysundirilishi; 4) savdoning rivojlanishi davlat xazinasiga katta daromad keltirayotganligi; 5) «Majburiyatlar akti»ning qabul qilinishi
A) 4, 5 B) 1, 2 C) 2, 3 D) 1, 4

3. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hjndiston, Turkiya kabi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va elchilik aloqalarining rivojlanish sabablarini toping.
1) Xiva xonligi hududining kengayib borishi;
2) xonlik hududining o'rta osiyolik savdogarlar va Haj safariga boruvchilarning Kaspiy dengizi orqali Makka va boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi;
3) chet davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalari davlat xazinasiga katta daromad keltirayotganligi; 4) xonlik hududining ushbu davlatlarning barchasi bilan chegaradosh bo'lishi
A) 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 1, 4

4. Buxorodan Xivaga elchi sifatida yuborilgan Avaz Murod qanday lavozimda bo'lgan?

A) parvonachi C) to`pchiboshi C) naqib
D) yasovulboshi

5. Quyidagilardan Xiva xonligidan Buxoroga yuborilgan elchini aniqlang.
A) O'rozboy Jo'ra B) Hasan Murod
C) Avaz Murod D) Husanbek otaliq

6. Qaysi shahar O'rta Osiyo davlatlarini Eron bilan bog'lovchi muhim savdo yo'li ustida joylashgani uchun ham XIX asr-ning 1 - yarmida Xiva Buxoro o'rtasida bir necha bor o'zaro urushlar yuz bergan?
A) Qobul B) Balx C) Hirot D) Marv

7.Quyidagilardan tarixiy xatolikka yo'l qo'yilgan javobni aniqang.
A) 1811-1812- yillarda Xivaga Buxorodan elchilar kelgan
B) Muhammad Rahim-xon I 1822-yilda Marvni Buxorodan qaytarib olgan.
C) 1812- yılda Xivaga Eron va qozoqlarning Kichik juz xonligidan elchilar kelishgan.
D) XIX asr boshlarida Xiva va Afg'oniston o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatilgan.

8.1811-1812-yillarda Xivaga Buxorodan tashrif buyurgan elchilar ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) Ibrohim Dodxoh va Shayx Abdulla
B) O'rozboy Jo'ra va Avaz Murod
C) Niyozbek parvonachi va Mirzo Qalandar
D) Avaz Murod va Hasan Murod

9.1843-1844-yillarda Xiva xonligi qaysi davlat bilan hamdo'stlik o'rnatishga va o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirishga kelishildi?
A) Buxoro amirligi B) Afg'oniston
C) Qo'qon xonligi D) Eron

10.Qanday jarayon Xiva savdogarlariga Qobul bozorlarida erkin savdo qilish huquqini berdi?
A) Afg'oniston va Buxoro o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarida keskinlikning kuchayganligi
B) afg'on savdogarlariga Xiva orqali boj to'lovlarisiz Rossiyaga o'tishlariga ruxsat berilganligi
C) Xivadan Hindistonga chiqariladigan mollarning bir qismini Afg'oniston bozorlarida sotilishiga ruxsat berilishi
D) Muhammad Rahimxon I ning shoh Mahmudni taxtga o'tirishiga ko'rsatgan yordami

11. Afg'onistonda hokimiyat uchun kurashayotgan Shoh Mahmudning ikkinchi marta hokimiyat tepasiga kelishiga yordam bergan Xiva xonini aniqlang.
A) Muhammad Rahimxon I B) Olloqulixon
C) Eltuzarxon D) Muhammad Rahimxon II

12. Afg'oniston qaysi davlat savdogarlariga Kobul bozorida erkin savdo qilish huquqini bergan?
A) Buxoro amirligi B) Qo'qon xonligi
C) Xiva xonligi D) Hindiston davlati

13. Quyidagi qaysi Afg'oniston hukmdori davrida Xiva savdogarlariga Kobul bozorida erkin savdo qilish huquqini berilgan?
A) Nodirshoh B) shoh Mahmud
C) Shohmurod D) shoh Muhammad

14. Qachon Xiva xoni Muhammad Rahim-xon I Marvni Buxorodan qaytarib olgan?
A) 1812-yilda B) 1822-yilda
C) 1811-yilda D) 1824-yilda

15. Quyidagi qaysi Xiva xoni Buxoro amirligi bilan elchilik aloqalarini qayta tiklashga va ikki davlat o'rtasida savdo-sotiqni rivojlantirishga harakat qilgan?
A) Abulg'oziyxon
B) Muhammad Rahimxon I
C) Ollohqulixon D) Eltuzarxon

16. Bir yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang. 1)Xiva xoni Muhammad Rahimxon I Marvni Buxorodan qaytarib oldi; 2) Xivaga Buxorodan O'razboy Jo'ra va Avaz Murod boshchiligida elchilar kelgan; 3)O'rta juz xonliklarida xonlik hokimiyati tugatilib ular Rossiyaga bo'ysundirildi; 4) Xivaga Eron va qozoqlarning Kichik juz xonligidan elchilar kelishgan; 5) Xivaga Qo'qon xonligi elchilarining kelgan.
A) 1,2 B) 1,3,4 C) 2,5 D) 1,3

17. Nechanchi asrdan boshlab Xiva va Afg'oniston o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatilgan?
A) XVIII asr oxirida B) XIX asr boshlarida
C) XIX asr o'rtalarida D) XIX asr oxirida

18. Qachon Xivaga Qo'qon xonligi elchilarining kelganligi ma'lum?
A)1811-1812-yillarda B)1812-yilda
C)1824-yilda D)1843-1844-yillarda

19. Karvonsaroy majmuasini bunyod ettirgan shaxsni aniqlang.
A)Abdullaxon II B)Amir Shohmurod
C)Olloqulixon D)Amir Olimxon

20. Karvonsaroy majmuasi tarkibiga kiruvchi karvon-saroyga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.
A) 14 gumbazli tim va omborxona
B) 3 qavatli 40 hujrali
C) 2 qavatli; 105 hujrali
D) 4 qavatli 150 hujrali

21.Xivada qaysi xon davrida 14 gumbazli tim, karvonsaroy va omborxonadan iborat majmua bunyod etilgan?
A) Muhammad Rahimxon I
B) Muhammad Aminxon
C) Muhammad Rahimxon II D) Olloqulixon

22.Xiva xonligining qaysi mevalariga chet ellik savdogarlar tan berishgan?
1) anor; 2) shaftoli; 3) uzum; 4) nok;
5) nashvati; 6) anjir; 7) o'rik; 8) gilos;
9) qovun
A) 1,2,3,4,5,6 B) 1,2,3,5,6,9
C) 1,3,4,5,6,7 D) 1,3,5,6,7,9

23. XIX asr birinchi yarmida Xivadan Rossiyaga qanday mahsulotlar olib borilgan?
A) paxta, ipak, bo'z, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari va quritilgan meva
B) paxta, ipak, to'qimachilik mahsulotlari, gilam, quritilgan meva
C) ipak, metal, rangli bo'yoqlar, qurol-aslaha
D) paxta, ipak, gilam, mo'yna, hunarmandchilik mahsulotlari

24.XVIII asrning 2-yarmi – XIX asrning 1-yarmida Xiva - Rossiya munosabatlarida muhim jihati nimada edi?
A) o`zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdorligi
B) savdo karvonlariga hujum qilish xavfining mavjudligi
C) har ikki taraf tomonidan Kichik juz qozoqlarini va qoraqalpoqlarni o`z fuqarolari deb hisoblashlari
D) har ikki tomonning o`zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasida bir to`xtamga kela olmaganliklari

25. Xiva xonligi bilan Rossiya o`rtasida yaxshi qo`shnichilik munosabatlarining qaror topishiga to`sqinlik qilgan omillarni qayd eting.
1) savdo karvonlariga hujum qilish xavfining mavjudligi; 2) har ikki taraf tomonidan Kichik juz qozoqlarini va qoraqalpoqlarni o`z fuqarolari deb hisoblashlari; 3) har ikki tomonning o`zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasida bir to`xtamga kela olmaganliklari; 4) o`zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdorligi
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 1, 2, 3

26.O'rta Osiyo davlatlariga, xususan, Xiva xonligiga turli bahonalarni ro'kach qilib,bosim o'tkazishni kuchaytirib borgan podsho Rossiyasining maqsadi nima bo'lgan?
A) O'rta Osiyoni egallash
B) O'rta Osiyoning tabiiy boyliklarini talash
C) Hindistonni egallashda qo'shin orqa tarafini xavfsizlantirish uchun
D) tashqi diplomatik aloqalar olib borish

27. Podsho Rossiyasining tajovuzkorligi … yilda Kichik juz, … yilda esa O'rta juz xonliklarida xonlik hokimiyatini tugatib, ularning Rossiyaga bo'ysun-dirilganida yaqqol ko'rildi?
A) 1824, 1821 B) 1841, 1843
C) 1822, 1824 D) 1824, 1822

28. XIX asrda Podsho Rossiyasining tajovuzkorligi kuchayotgan davrda Xiva xonligi va Rossiya o'rtasidagi bir birini ajratib turuvchi hudud deb Xiva xonligi qaysi joyni nazarda tutgan edi?
A) turkman yerlari B) qozoq cho'llari

C) Sirdaryo quyi oqimi
D) Amudaryo quyi oqimi

29. XIX asrning 20-yillarida Rossiya nima sababdan Xiva bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirishdan o'zini tiyishga majbur bo'lgan edi?
A) Romanovlar sulolasidagi ixtiloflar tufayli
B) Eron-Rossiya va Rossiya-Turkiya urushlari tufayli
C) Xivaning Buxoro bilan munosabatlari anchagina do'stona tus olganligi sababli
D) Xiva masalasida inglizlar bilan ixtilof paydo bo'lganligi sababli

30..Kimning ekspeditsiyasi Xiva xonini Peterburg bilan kelishuv yo'lini axtarishga majbur etdi?
A) G.Danievskiy B) N. Muravyov
C) V.Perovskiy D) S Sialkovskiy

31. Xiva va Rossiya o'rtasidagi "Majburiyatlar akti" kimning tashabbusi bilan imzolangan edi?
A) N. Muravyov B) Jeyms Abbot
C) S. Sialkovskiy D) G. Danilevskiy

32. 1842-yil Xiva-Rossiya o'rtasida tuzilgan "Majburiyatlar akti" ga muvofiq Xiva xoni qanday majburiyatlarni oldi?
1) rus asirlarini saqlamaslik; 2) xonlikdagi Rossiya fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash; 3) Rossiya tovarlaridan olinadigan bojning 7 % dan oshmasligi; 4) turkmanlarning yovmut qabilasi taqdirini Rus hukumatiga topshirish; 5) qozoq qabilalarining talanishiga yo'l qo'ymaslik; 6) Xiva xonligining ikkita bekligida rus savdogarlar ining bojsiz savdo qilishini ta'minlash; 7) Xivaning Rossiyaga dushmanlik kayfiyatda bo'lishidan voz kechishlik.
A) 1, 3, 4, 7 B) 1, 4, 6 C) 1, 2, 5, 7
D) 1, 3, 4, 6

33. "Majburiyatlar akti"ni Xiva tomonidan kim imzolagan?
A) Muhammad Rahimxon I B) Olloqulixon
C) Rahimqulixon D) Avaz Muhammadxon

34. Rossiyani Xiva bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirishidan o'zini tiyishga majbur etgan Eron-Rossiya urushi bo'lgan davrda Buxoro hukmdori bo'lgan shaxsni toping.
A) Amir Shohmurod B) Amir Haydar
C) Amir Nasrullo D) Amir Muzaffar

35. Xiva va Rossiya o'rtasida "Majburiyatlar akti" imzolangan yilda Qo'qon xoni bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Olimxon B) Umarxon C) Madalixon
D) Sheralixon

## 24- §. Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

1. XIX asr 20-yillari ma'lumotlariga ko'ra, Xiva xonligining aholisi qancha kishini tashkil qilgan?
A) 500 ming B) 300 ming C) 2 mln.
D) 800 ming

2. XIX asr o'rtalarida qaysi shaharda 20 mingdan ortiq aholi yashagan va 700 dan ortiq hunarmandchilik ustaxonasi, 200 dan ortiq savdo do'koni, 3 ta katta va 15 ta kichik bozorlar bo'lgan?
A)Samarqand B)Buxoro C)Xiva
D)Yangi Urganch

3. XIX asr o'rtalarida Xivada rivoj topgan hunarmandchilik turlari sonini aniqlang.
A) 65 ta B) 80 ga yaqin C) 32 ta
D) 50 dan ortiq

4. XIX asr o'rtalarida Xiva xonligi ma'muriy-hududiy jihatdan qanday qismlarga bo'lingan?
A) viloyat, tuman va shaharlarga
B) bekliklar, amloklar va ovullarga
C) viloyat, shahar va masjid qavmlarga
D) viloyat, shahar va ovullarga

5. Muhammad Rahimxon I hukmdorligi davrida tuzilgan Oliy Kengashga nomuvofiq javobni aniqlang.
A) Oliy Kengash davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vazifasini bajargan
B) Oliy Kengashga mehtar rahbarlik qilgan
C) Oliy Kengash majlisi haftada bir marta o'tkazilgan

D) unda davlatning ichki va tashqi siyosatiga oid eng muhim masalalar muhokama etilgan.

6.Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vazifalarini bajargan organni aniqlang.
A) Oliy Kengash B) Maslahat Kengashi
C) Nozirlar Kengashi D) Xon kotibiyati

7.Xiva xonligida xonlik huyotiga oid kundalik masalalar ... tomonidan ko'rib chiqilgan.
A) Nozirlar Kengashi B) inoq
C) xon kutvoli D) Kichik Kengash

8. XIX asrning I yarmida Xiva xonligining ichki va tashqi siyosatiga oid muhim masalalar qanday hal etilgan?
A) Maslahat Kengashi tomonidan
B) shaxsan xon tomonidan
C) Oliy Kengash majlislarida
D) Kichik Kengash majlislarida

9. Xiva xonligida faoliyat yuritgan Oliy Kengash majlislari qancha muddatda o'tkazilgan?
A) haftasiga bir marta B) oyiga ikki marta
C) oyiga bir marta D) oyiga uch marta

10.Xivada Oliy Kengash majlisida kimlar qatnashgan?
1) xonning yaqin qarindoshlari; 2) mehtar;
3) qo'sh-begi; 4) devonbegi; 5) naqib;
6) shayxulislom; 7) bosh qozi; 8) inoq;
9) otaliq;
A) 1,2,3,4,5,6,7,8,9 B) 1,2,3,4,5,6
C) 2,3,4,5,6 D) 5,6,7,8,9

11.Xiva xonligida ta'sis etilgan Kichik kengash ishida xondan tashqari kimlar qatnashganlar?
1) mehtar; 2) inoq; 3) qo'shbegi;
4) devonbegi; 5) naqib; 6) otaliq;
7) shayxulislom; 8) bosh qozi; 9) biy;
A) 1,3,4,5,7 B) 1,2,5,7,8 C) 2,3,4,6,8
D) 1,3,5,7,9

12.Xiva xonligida tashkil etilgan Kichik Kengash tarkibiga qaysi amaldorlar kiritilgan?
1) xon; 2) qozikalon: 3) mehtar; 4) qo'shbegi;
5) naqib; 6) devonbegi; 7) otaliq;
8) shayxulislom; 9) bey
A) 1, 3, 4, 6, 7, 8 B) 2, 3, 5, 7, 8, 9
C) 1, 3, 4, 5, 6, 8 D) 1, 2, 4, 5, 7, 9

13. XIX asrning I yarmida Xiva xonligida mavjud bo'lgan uchta devon qanday sohalar bilan shug'ullangan?
1) xo'jalik; 2) soliq va yig'imlar; 3) ijtimoiy-siyosiy ishlar; 4) yer masalalari; 5) harbiy ishlar; 6) chegaralar masalasi
A) 1, 2, 4 B) 3, 5, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5

14.XIX asrning I yarmida Xivada xon safarda bo'lgan vaqtlarda xonlikni kim boshqargan?
A) qushbegi B) mehtar C) ulusbegi
D) valiahd shahzoda

15.Xiva xonligida kimlar mamlakat miqyosida soliqlar yig'ilishiga javobgar bo'lganlar?
A)devonbegi va mehtar B)mehtar va oqsoqol
C)mehtar va amlokdor
D)mehtar va qo'shbegi

16. Xonlikda devonbegi rahbarlik qiluvchi nechta devon faoliyat ko'rsatgan?
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta

17. XIX asrda Xiva xonligida ... obro'li oqsoqollar, qozilar va miroblar tomonidan boshqarilgan.
A) shahar B) tuman C) amlokdorlik
D) masjid qavmlari

18. Quyidagilardan qo'shin qo'monlarini davlatlari bilan to'g'ri joylashtiring:
a)yasovulboshi, b)parvonachi, c)mingboshi;
1)Buxoro amirligi,2)Xiva xonligi,3)Qo'qon xonligi
A)1-a,2-b,3-c B)1-b,2-a,3-c
C)1-c,2-a,3-b D)1-a,2-c,3-b

19. Xiva xonligida sug'orilgan yerlar nima deb atalgan?
A) adra B) vaqf C) ax'ya D) amlok

20.Xiva xonligidagi asosiy soliq turini ko'rsatlng.
A) Salg'ut B) Chilik puli C) Algut
D) Mirobona

21.Xiva xonligida kimlar bevatan deb atalgan?
A) ko'chmanchi qozoq chorvadorlari
B) davlat yerlarini ijaraga oluvchilar
C) qoraqalpoqlar
D) Xurosondan qaytib kelgan turkman qabilalari

22. Xiva xonligida yerlarni ijaraga oluvchilar yer turiga qarab qanday atalgan?
1) davlat yerlarini ijaraga oluvchilar;
2) xususiy yerlarni ijaraga oluvchilar; 3) vaqf yerlarini ijaraga oluvchilar;
a) koranda; b) vaqfchi; c) bevatan
A) 1 - c; 2 - b; 3 - a, B) 1 - c; 2 - a; 3 - b
C) 1 - a; 2 - b; 3 - c D) 1 - a; 2 - c; 3 - b

23. Xiva xonligida kimlar soliqlardan ozod qilingan?
A) Oliy martabali ruhoniylar hamda xondan namunali xizmati uchun mukofot tariqasida yer o'lganlar
B) Xon saroyida xizmat qilayotgan mansabdorlar hamda xonlikda arab bosqini davridan boshlab yashab kelayotgan va o'z xususiy yerlariga ega bo'lgan
C) Xonlikdagi vaqf mulklarini boshqaruvchi mansabdorlar, diniy lavozimlarda xizmat
D) Xonning barcha qon-qarindoshlari, ruhoniylar, katta amaldorlar va tarxon yer olganlar

24.XIX asrning I yarmida Xiva xonligida xon va uning qarindoshlari, oliy martabali amaldorlar, ruhoniylar, savdo-sotiq tabaqalari barcha yerlarning qancha qismiga egalik qilishardi?
A) chorak qismiga B) deyarli yarmiga
C) uchdan ikki qismiga
D) uchdan bir qismiga

25. XIX asr boshlarida Xiva xonligi hududida barpo etilgan sug'orish tizimi - kanallar nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
A) Davkor, To'g'uzariq, Qilich Niyozbiy
B) Lavzan, To'g'uzariq, Katta Xonobod
C) Lavzan, Qilich Niyozbiy, Katta Xonobod
D) To'g'uzariq, Xurmo, Sarazm

26.Xiva xonligida XIX asr boshlarida barpo etilgan kanal nomini belgilang.
A) Tuyatortar B) Lavzan C) Afshona
D) To'g'uzariq

27. Qaysi javobda keltirilgan atama Xiva xonligida har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati anglatadi?
A) Hachi B) Otlanuv
C) Ichki va Obxo'ra qazu D) Begar

28. Quyida keltirilgan qaysi majburiyat Xiva xonligida yo'lga qo'yilgan bo'lib, "qazu" deb atalgan?
A) Xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish majburiyati
B) Himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati
C) Butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga safarbar etish majburiyati
D) Har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati

29. Xachi Xiva xonligida qanday majburiyat hisoblangan?
A) har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati
B) himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlash majburiyati
C) rasman 12 kunlik majburiyat
D) Uchun qishloq axolisini katta va kichik kanallarning bir qismini tozalashga safarbar etish majburiyati

30. Xiva xonligida otlanuv - ...
A) har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati.
B) butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga safarbar etish majburiyati.
C) Xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish majburiyati.
D) himoya dambalarini qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati.

**25- §. Xiva xonligida shaharlar hayoti.**

1.Qachon Xiva xonligida shaharlar hayotida uzoq davom etgan tushkunlik holati barham topdi?
A) XVIII asr o`rtalarida B) XVIII asr oxirida
C) XIX asr boshlarida C) XIX asr o`rtalarida

2. XVIII asr ikkinchi yanni - XIX asr boshlarida Xiva xonligi shaharlarida hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning o'sishiga sabab bo'lgan omilni aniqlang.
A) katta ko'lamdagi sug'orish inshootlarining tiklanishi hamda yangilarining bunyod etilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga sabab bo'lgan edi
B) "Majburiyatlar akti" shartnomasining imzolanishi shahar hayotiga ijobiy fca'sir etgan edi
C) Buxoro xonligi orqali Eron, Afg'oniston va Turkiya bilan olib borilgan savdo-sotiqning rivoji sabab bo 'lgan edi
D) yersiz qolgan qishloq aholisining shaharlarga borish imkoniyati katta bo'hb, ishlab chiqaruvchi kuchlar o'sishiga asos bo'lgan edi

3.Xiva xonligida ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
A) ishchilar sinfining shakllanishiga
B) shahar va qishloq o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga
C) shaharlarda hunarmandchilik hamda ichki va tashqi savdoning o'sishiga
D) shaharlarning kengayishi va sonining ortishiga

4. Qaysi yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallandi?
A) 1780-yilga B) 1765-yilga
C) 1782-yilga D) 1785-yilga

5. 1765 yil Xiva xonligida kimlarning nomidagi madrasalar bunyod etiladi?
A) Muhammad Yoqub va Qutlug Murod
B) Sherg'ozixon va Muhammad Amin
C) Olloqulixon va Muhammad Rahim
D) Arab Muhammad va Musa To'ra

6. Qachon Xiva xonligi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi?
A) XVIII asr o'rtalarida B) XVIII asr oxirida
C) XIX asr boshlarida C) XIX asr o`rtalarida

7. Ollohqulixon madrasasi qurib tugallangan yilni aniqlang.
A) 1842-yil B) 1851-yil C) 1824-yil
D) 1834-yil

8. Xivaning kichik qal`a devori bilan o'ralgan qismi ... deb ataladi.
A) Dishanqal`a B) Ichanqal`a C) Rabot
D) Shahriston

9.Ichan qal'a darvozalari nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
A) Polvon, Tosh, Dishan, Bog'
B) Bog'cha, Tosh, Polvon, Ota
C) Polvontosh, Ota, Ichan, Bog'cha
D) Bog'cha, Tosh, Ota, Dishan

10.Xivadagi Ollohqulixon karvonsaroyi Ichan qal`aning qaysi darvozasi yonida bunyod etilgan?
A) Polvon B) Ota C) Tosh D) Bogcha

11.Umumiy maydoni 26 gektar bo'lgan me'moriy yodgorlikda nechta tarixiy-me'moriy obida joylashgan?
A) 26 ta B) 30 ta C) 45 ta D) 54 ta

12.Guliston shahri vujudga kelgan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.
A) Ichan qal'a me'moriy yodgorlik sifatida alohida muhofazaga olingan
B) Muzey qo'riqxona Xiva "Ichan qal`a muzey qo`riqxonasi" deb ataladi
C) Umumiy majburiy sakkiz yillik ta'limga o'tish amalga oshirilgan
D) Jarqoq—Buxoro—Samarqand—Toshkent gaz quvuri qurilishi nihoyasiga yetgan

13. Nechanchi yilda Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklar ro'yxatiga kiritilgan?
A) 1961-yilda B) 1990-yilda
C) 1969-yilda D) 1999-yilda

14.Noyob me'morchilik obidasi bo'lgan Ichan qal'a nechanchi yilda alohida muhofazaga olingan va muzey-qo'riqxonaga aylantirilgan?
A) 1993-yil B) 1976-yil
C) 1961-yil D) 1990-yil

15. Qaysi hukmdorlar davrida XIX asrning birinchi yarmida Ichan Qal'ada keng ko'lamli qurilish ishlari olib borilgan?
1) Olloqulixon; 2) Muhammad Amin;
3) Muhammad Rahimxon; 4) Eltuzar;
5) Muhammad Aminxon

A) 1, 3, 4  B) 2, 3, 4
C) 1, 3, 5  D) 1, 2, 3

16. O'rta Osiyo me'morchiligidagi "qo'sh" usuli ..
A) binolarni alohida ansambl hoHda qurish usuHdir.
B) binolarni yonma-yon holda qurish usuhdır.
C) inshootlarni ro'parama-ro'para qurish usulidir.
D) inshootlarni alohida-alohida bunyod etish usuhdir.

17. Dishan qal'aning uzunligi va darvozalar soni to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) 4750 m, 7 ta  B) 6250 m, 10 ta
C) 2200 m, 8 ta  D) 5550 m, 10 ta

18. Qaysi javobda Xivadagi Ichan Qal'ada joylashgan me'moriy obidalar ko'rsatilgan?
1) Qutlug' Murod Inoq madrasasi
2) Abdullaxon madrasasi; 3) Katta Minor;
4) Mir Arab madrasasi. 5) Toshhovli saroyi;
6) Modarixon madrasasi, 7) Pahlavon Mahmud maqbarasi
A) 1, 3, 5, 6  B) 3, 4, 5, 7
C) 2, 4, 6, 7  D) 1, 3, 5, 7

19. Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida 6250 metrli devor barpo etgan hukmdorni aniqlang.
A) Olloqulixon  B) Arab Muhammadxon
C) Muhammad Aminxon
D) Abulg'ozi Bahodirxon

20. Ichan qal'aning g'arbiy qismida joylashgan Ko'hna ark yonidagi Katta Minor nomi bilan mashhur minorani kim qurdirgan?
A) Olloqulixon
B) Muhammad Aminxon
C) Muhammad Yoqub mehtar
D) Muhammad Rahimxon I

21. Nechanchi yilda Xivadagi Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan?
A) 1990y. B) 2000 y. C) 1985 y. D) 1991 y.

22. Ma'lumki, Xiva zargarlari isirg'alarni bezatishda feruza va marjonlarda foydalanishgan, bilakuzuklar esa ...
A) toshlar bilan bezatilgan
B) qahrabo bilan bezatilgan
C) olmos bilan bezatilgan
D) durlar bilan bezatılgan

23. Quyidagi qaysi shahar Xiva xonligida XX asr boshlariga qadar yagona shoyi to'qish markazi hisoblangan?
A) Xonqa  B) Qiyot  C) Xiva  D) Xazorasp

24. Quyidagi shaxslardan qaysi biri XIX asr o'rtalarida o'ymakori eshik va ustunlar ustasi sifatida shuhrat qozongan?
A) Muhammad Rizo Oxund
B) Mir Mas'am Olamıyon
C) Muhammadniyoz Nishotiy
D) Polvon Abdusattor o'g'li

25. XIX asrda Xivada matoga gul bosish san'atining Markaziy Osiyoning boshqa gul bosish markazlaridan farq qilib turadigan jihatini aniqlang.
A) kulrang uyg'unligi va mayda gullari bilan
B) ranglarning yorqinligi va siyrak gullari bilan
C) zangori uyg'unligi va mayda gullari bilan
D) pushti rang va mayda gullari bilan

## 26- §. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar.

1. Hasanbek Rumluning "Eng go'zal tarix" asari XVI asrning birinchi yarmidagi ... tarixiga bag'ishlangan edi.
A) Toshkent  B) Qo'qon  C) Xiva  D) Buxoro

2. Xiva xonligi, uning shaharlari haqida muhim ma'lumotlar beruvchi "Dili g'aroyib" asari (1831-1832-yy.) muallifini aniqlang.
A) Munis  B) Xudoyberdi Avaz Muhammad
C) Hasanbek Rumlu  D) Ogahiy

3. Xiva xonligi tarixi to'g'risidagi asarlar bilan bog'liq quyidagi ma'lumotlar orasidan to'g'rilarni belgilang.
1)XVIII asrda yashagan Hasanbek Rumluning "Eng go'zal tarix" asari XVI asrning I yarmidagi Xiva tarixiga bag'ishlangan,
2)Abulg'ozixon Bahodirning "Shajarayi turk"

asarining X bobi Xiva-Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan; 3)"Firdavs-ul iqbol" asari Xivaning XVI asrdan 1812-yilgacha bo'lgan tarixini qamrab olgan; 4)Xiva xonligining 1872-1911-yillardagi tarixi Yusufbek Bayoniy tomonidan yaratilgan.
A) 3,4 B) 1,2 C) 2,4 D) 1,3

4."Shajarayi turk" asarining IX bobi ...
1) Xivaning 1510-1673- yillar oralig'idagi ijtimoiy- siyosiy tarixiga bag'ishlangan;
2) Xivaning XVI asr davomidagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlangan; 3) Xiva-Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan;
4) Xivaning 1512-1663-yillar oralig'idagi ijtimoiy- siyosiy tarixiga bag'ishlangan;
5) Xiva-Qo'qon munosabatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarga bag'ishlangan;
A) 1,3 B) 1,2,5 C) 2,4 D) 3,4

5. Xiva xoni Eltuzarxonning 1806-yildagi topshirig'I bilan yozilgan tarixiy asarni belgilang.
A) "Firdavs ul-iqbol" B) "Shajarayi turk"
C) "Dili g'aroyib" D) "Shohidi iqbol"

6. Quyidagi qaysi tarixchi tomonidan Xiva xoni topshirig'iga asosan Xorazmning 1812-yilgacha bo'lgan tarixi yozib qoldirilgan?
A) Munis Xorazmiy B) Komil Xorazmiy
C) Sulton Murodbek D) Mir Ubaydulla

7. Munis vafot etgach, xonlik tarixini yo'zish ishini Ogahiy davom ettirdi va "Shohidi iqbol" deb atalgan tarixiy asar bitgan. Bu asar nechanchi yilgacha bo'lgan tarixni aks ettiradi?
A) 1873-yil B) 1874-yil C) 1872-yil
D) 1876-yil

8.Xiva xonligining 1872-1911-yillardagi tarixi kimning asarida bayon etilgan?
A) Yusufbek Bayoniy B) Ogahiy
C) Hasanbek Rumlu
D) Avaz Muhammad

9. Qaysi rus elchisi Rossiya va Xiva o'rtasidagi "Majburiyatlar akti" shartnomasining imzolanishiga [illegible]?
A) G. Danilevskiy B) N. Mu[illegible]
C) N. Ignatyev D) A. Jenkinson

10.Quyidagi qaysi davlatlar o'rtasida 1842-yilda "Majburiyatlar akti" imzolangan?
A) Rossiya va Xitoy B) Rossiya va Eron
C) Rossiya va Xiva xonligi
D) Rossiya va Buxoro amirligi

11."Xiva va xonlikning boshqa shahar qishloqlari savdo-sotig'i va sanoati" asarining mualliflaridan birini aniqlang.
A) Vasilevskiy B) R.Baziner
C) Vamberi D) I.Ignatyev

12.Vengr sharqshunos olimi X.Vamberi qalamiga mansub, Xiva xonligi tarixiga oid qimmatli manbalardan biri hisoblangan asarni aniqlang.
A) "O'zbeklar Xorazmda"
B) "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat"
C) "Qo'ng'irot sulolasi"
D) "Inoqlar hukmronligi"

13.Quyidagi mualliflardan qaysi biri o'z asarida o'zbeklarni "aql-idrokli, suhbati yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odati oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishidir" deb ta'riflagan?
A) N.Ignatyev B) N.Vasilevskiy
C) N.Muravyov
D) G.Danilevskiy

14. Quyidagi qaysi shaxs 1819-yilda Xivaga Rossiya hukumati tomonidan jo'natilgan ekspeditsiyaga boshchilik qilgan?
A) N. Muravyov B) G. Danilevskiy
C) S. Sialkovskiy D) V. Perovskiy

15. XIX asr boshlarida qaysi rus elchisi Xiva xonligi tarixi bo'yicha qimmatli manba hisoblangan "Esdaliklar" asarini yozib qoldirgan?
A) S. Jukovskiy B) N. Ignatyev
C) N. Muravyov D) N. Vasilyevskiy

16. N.I.Muravyov yozib qoldirgan "Esdaliklar" kitobi qaysi tillarga tarjima qilingan?
1) ingliz; 2) ispan; 3) italiyan; 4) fransuz; 5) portugal; 6) nemis; 7) shved; 8) polyak

A) 1, 4 B) 5, 7, 8 C) 2, 3 D) 4, 6

17. Rossiya elchisi N.I.Muravyov 1819 yilda Xiva xonligiga kelgan. U o'zining "Esdaliklar" kitobida Xiva haqida qanday ma'lumotlarni bayon etgan ?
A) Qadimiy obidalar,davlat boshqaruv tizimi, hunarmandchilik va savdo-sotiq to`g`risida batafsil ma'lumotlarni bayon etgan
B) Shaharning mudofaa devorlari, qo'shin qarorgohi, ularning ta'minoti, aholining xonga nisbatan munosabati to'g'risida bayon etgan
C) Xiva shahrining savdo do'konlari, boshqa davlat savdogarlarining qarorgohlar, shahardagi rus millatiga mansub aholining turmushi haqida yozilgan
D) Pul munosabatlari, soliq tizimi, aholining tarkibi va xristian ruhoniylarining ahvoli haqida batafsil to'xtalgan

18. Kim o'zbeklar haqida ta'rif berib, quyidagi fikrlarni bayon etgan; " aql-idrokli , suhbati yoqimli va o'tkir, qat'iyatli , matonatli, urf-odati oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay – tolmaydigan mard jasur kishilar"
A) Klavixo B) Vamberi
C) Jenkinson D) Muravyov

19.Quyidagi fikrlar kimning asaridan olingan? *"Xiva shahri keng maydonda bog'-rog' bilan o'ral-gan. Atrofi esa devor bilan o'ralgan. Amudaryodan suv quvuri o'tkazilgan.Xiva aholisi o'zining masha-qqatli mehnati bilan cho'li biyobonlarni hosildor o'lkaga aylantirgan.Atrof hammasi ekinzor. Bug'doyzor, sholipoya, uzumzor va shirin-shakar bog'.Chorvachilik ham rivojlangan".*
A) Klavixo B) Vamberi C) Jenkinson
D) Muravyov

20. Quyidagi voqealardan qaysi biri xronologik jihatdan xato ko'rsatilgan?
A) 1739-1740-yillarda Semekexon boshchiligidagi O'rta juz qozoqlari Rossiya tobeligiga o'tdi
B) Rossiya elchisi Ivan Xoxlov 1620-1622-yillarda Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati haqida qimmatli ma`lumotlar to'playdi
C) 1768-yilda Xiva xonligiga Ignatyev boshchiligida elchilik yetib kelgan
D) XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida rus sarmoyasi O'rta Osiyo bozorida yetakchi o'rnini egalladi

21. Xiva va Buxoroga 1858-yili yuborilgan diplo-matik missiya rahbari kim edi?
A) G. Danilevskiy B) N. Muravyev
C) N. Ignatyev D) A. Jenkinson

22.S. Jukovskiy qalamiga mansub asar nomi to'g'ri berilgan javobni toping.
A) "Inoqlar hukmronligi"
B) "Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdo- sotig'i va sanoati"
C) "Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi"
D) "Estaliklar"

23. Akademik I.Mo'minov boshchiligida "Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi" asari qachon yaratilgan?
A) 1962-yil B) 1976-yil C) 1997-yil
D) 2002-yil

24. Quyidagi asarlardan qaysi biri Xiva shahrining 2500 yilligi yubileyi munosabati bilan chop etilgan?
A) "O'zbeklar Xorazmda"
B) "Xorazmning qadimgi davridan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi"
C) "Xiva ming gumbaz shahri"
D) "Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari savdo-sotig'i va sanoati"

25.Tarixdan ma'lumki, Xiva xonlari arxivi 1873-yili Peterburgga olib ketilgan. U qachon O'zbekistonga qaytarildi?
A) 1992-yil B) 1962-yil C) 1997-yil
D) 2002-yil

## VI-bob. XVI-XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QORAQALPOQLAR

### 21-§. Qoraqalpoq xalqining shakllanishi va siyosiy hayoti.

1. Tarixiy manbalarda hozirgi Qoraqalpog'iston hudu-dida odamlar qaysi davridayoq yashaganligi qayd etiladi?

A) paleolit B) mezolit
C) neolit D) eneolit

2. Qachon Orolbo`yida bijanaklar va o`g`uzlar shakllangan?
A) VIII-X asrlarda B) II-VIII asrlarda
C) III-VIII asrlarda D) VI-X asrlarda

3.VIII - X asrlarda Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi... negizida boshlangan.
A) o'g'izlar B) bijanaklar C) qarluqlar
D) qipchoqlar

4.Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi jarayoni boshlangan davrni aniqlang.
A) II- VIII asrlar B) X-XIV asrlar
C) X-XV asrlar D) VIII-X asrlar

5.Qoraqalpoq xalqining nomi olingan atama quyidagi qaysi yilnomalarda tilga olingan?
A) yunon B) rim C) ingliz D) rus

6. XIII asr boshlarida Orolbo'yi qoraqalpoqlari-ning bir qismini Volga va Ural daryolari bo'ylariga, Sirdaryo vohalariga ko'chib ketishga majbur qilgan voqeani aniqlang.
A) No'g'ay xonligining tarkib topishi
B) Xorazmshohlar davlatining barham topishi
C) Chingizxon tomonidan Amudaryo to'g'oni buzdirib tashlangach, Amudaryo o'zani o'zgarib, bu yerlarning suvsiz qolishi
D) qipchoq qabilalarining beto'xtovsiz va ayovsiz hujumlari

7. Buxoro xoni Abdullaxon II ning qaysi yildagi yorlig'ida "qoraqalpoqlar" degan so'z qayd etilgan?
A) 1596-yil B) 1595-yil
C) 1598-yil D) 1583-yil

8.Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi nihoyasiga yetgan davrni ko'rsating.
A) XVIII asr B) XVII asr
C) XVI asr D) XV asr

9. Quyidagi qaysi xon yorlig'ida "qoraqalpoqlar" degan so'z qayd etilgan?
A) Ubaydullaxon B) Shayboniyxon
C) Abdullaxon II D) Pirmuhammad

10.Qoraqalpoqlarning alohida bir xalq bo'lganligi haqidagi manbalar nechanchi asrlarga to'g 'ri keladi?
A) XV asrning oxirlariga
B) XII asrning o'rtalariga
C) XVI asrning oxirlariga D) XIII asrlarga

11. Qaysi davrga kelib No'g'ay xonligi uch qismga bo'linib ketdi?
A) XVI asrning ikkinchi yarmi
B) XV asr o'rtalari
C) XV asr oxiri D) XVII asr boshi

12. Quyida keltirilgan voqiealarning ro'y berish vaqti to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) No'g'ay xonligi 3 qismga bo'linib ketdi; 2) no'g'aylar jung'orlar tomonidan tor-mor etildi; 3) No'g'ay xonligi tashkil topdi; 4) Eshimxon yetakchiligidagi qoraqalpoq xonligi tashkil topdi;
a) XIV asr oxiri; b) XVIII asr birinchi choragi; c) XVI asr ikkinchi yarmi: d) XVII asr boshlari
A) l-d, 2-c. 3-b, 4-a B) l-b, 2-a, 3-c, 4-d
C) l-c, 2-a, 3-d, 4-b D) l-c, 2-d, 3-a, 4-b

13. XIV asr oxirida tashkil topgan No'g'ay xonligi chegaralari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) Volga daryosidan Irtish daryosigacha; 2) Ural daryosidan Ili bo'ylarigacha; 3) Kaspiy va Orol dengizi bo'ylaridan Kama daryosigacha; 4) Volga daryosidan Issiqko'lgacha.; 5) Kaspiy va Orol dengizi bo'ylaridan Ural tog'larigacha
A) 4, 5 B) 2, 4 C) 3, 5 D) 1, 3

14. Qaysi javobda qoraqalpoqlar XV-XVI asrlarda ko'chib borib o'rnashgan hududlar kirgan davlat nomi keltirilgan?
A) No'g'ay xonligi B) Jungariya
C) Rossiya D) Xiva xonligi

15. No'g'ay va qoraqalpoq xalqlari ...
A) o'zaro siyosiy hamkorlikda, birlashmada yashaganlar
B) qipchoqlar va bijanaklardan kelib chiqqan
C) qozoq va bijanaklardan shakllangan
D) qozoqlarning katta juzi tarkibida bo'lgan

16. XVIII asr boshlariga kelib Sirdaryo bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar birlashishi jarayonida ...
A) Sig'noq va Jonkent singari qadimiy qo'rg'on-shaharlar tayanch bo'lgan
B) urug' qabila oqsoqollari yetakchi ro'l o'ynagan
C) Xiva xonligi tarkibida fuqorolikni qabul qilishgan
D) ijtimoiy tabaqalanish kuchaygan

17. XVII asr boshlarida qoraqalpoqlar Volga va Yoyiq daryosi bo'ylarida Orol va Sirdaryo bo'ylarida kelib o'rnashish sabablari ...
A) no'g'aylarning jung'orlar tomonidan tor-mor etilishi
B) qoraqalpoqlarning qipchoqlar tomonidan tor-mor etilishi
C) qoraqalpoqlar Nodirshoh tomonidan quvg'inga uchrashi
D) Buxoro xonligining bosqini

18. 1714-yilda Sirdaryo bo'yi qoraqalpoqlari davlatga birlashganda, kim xon qilib ko'tarilgan?
A) Taburchak sulton B) Tinohmad
C) Idigu D) Eshimxon

19. Qoraqalpoqlarning Eshmuhammad boshchiligida birlashgan davlati qaysi hududlar bilan chegaradosh bo'lgan?
1) Katta juz qozoq xonliklari; 2) Sirdaryoning quyi oqimi; 3) Amudaryoning quyi oqimi; 4) Volga bo'ylari jung'orlari; 5) Bulg'orlar davlati; 6) Boshqird ulusi; 7) Kichik juz qozoq xonliklari
A) 1, 2, 4, 5 B) 2, 4, 5, 7
C) 1, 3, 5, 7 D) 2, 4, 6, 7

20. Qoraqalpoq xonligi qaysi davlatlar bilan chegaradosh edi?
A) Volga bo'ylari jung'orlari, Boshqird ulusi, Kichik juz xonligi
B) Buxoro xonligi, Xazar xonligi, Jung'or xonligi
C) Ural bo'yi jung'orlari, O'rta juz xonligi, Boshqird ulusi
D) katta juz xonligi, Rossiya imperiyasi, Jung'or xonligi

21. Quyidagi javoblardan qoraqalpoqlar tarixi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar to'g'ri berilgan qatorni toping.
I. Tarixiy manbalarda hozirgi Qoraqalpog'iston xududida odamdar neolit davridayoq yashaganligi qayd etilgan.
II. XVII asrga kelib bir nechta urug'lardan iborat qoraqalpoq xalqiniug shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan.
III. Qoraqalpoqlarning birlashuvida Kuchukxon, Taburchak va G'oyib sultonlar muhim rol o'ynagan.
IV. XVIII asr boshlarida qoraqalpoqlar Qoraqalpoq xonligiga birlashtirilganidan 7 yil o'tib ikkiga bo'linib ketgan.
V. "Quyi qoraqalpoqlar" Sirdaryo bilan Amudaryo o'rtasida bo'sh yotgan yerlarda o'rnashib, bu yerlarga Quvondaryodan suv chiqarib dehqonchilik bilan shug'ullangan.
VI. XIX asrda qoraqalpoq hunarmandlari 10-12 yoshli bolalarni shogirdlikka qabul qilib, ularga hunar turlarini o'rgatgan.
A) I, II, IV B) II, III, V C) II, III, VI
D) I, III, V

22. 1723-yildagi jung'orlarning bostirib kelishi oqibatida, vujudga kelgan quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo va Amudaryo o'rtasida bo'sh yotgan yerlarda joylashib, bu yerda qaysi daryodan suv chiqarib dehqonchiljk bilan shug'ullanga,n?
A) Quvondaryo B) Ko'ko'zak C) Janadaryo
D) Aqshadaryo

23. XVIII asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning Rossiya bilan aloqalar o'rnatishga intilishlari sabablarini aniqlang.
1)jung'orlar bosqinlaridan himoyalanish; 2)o'zaro ichki nizolarga barham berish; 3)savdo-tijorat ishlarini yo'lga qo'yishdan manfaatdorlik; 4)Xitoy hujumidan himoyalanish.
A) 1,3 B) 2,4 C) 3,4 D) 1,2

24. Qaysi omil qoraqalpoqlarni Eron hukmdori Nodirshoh hujumidan saqlab qoldi?
A) Qoraqalpoqlarning Qo'qon xonligi fuqaroligiga qabul qilinishi
B) Qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi fuqaroligiga qabul qilinishi

C) Qoraqalpoqlarning Xiva xonligi fuqaroligiga qabul qilinishi
D) Qoraqalpoqlarning Buxoro xonligi fuqaroligiga qabul qilinishi

25. Tarixchi olimlar Yangidaryoda yaratilgan ajoyib sug'orish inshootlari tizimiga, . . . xalqi qahramona mehnatining ulug'vorligi xotirasidir, deb baho bergan.
A) Xiva xonligi  B) Qoraqalpoq
C) Buxoro amirligi  D) Qo'qon xonligi

26.Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlar Xiva xonligi hokimiyatini tan olgan vaqtda (1735-yil) quyidagi qaysi shaxs Xiva xoni edi?
A) Olloqulixon  B) Abulg'ozixon II
C) Sherg'ozixon  D) Elbarsxon

27. Amudaryo, Quvondaryo, Orol dengizi atrofida yashovchi qoraqalpoqlar Xiva xonligi tomonidan bo'ysundirilgan yilni toping.
A) 1812-yil  B) 1810-yil
C) 1811-yil  D) 1809-yil

28. Qoraqalpoqlarning Xiva xonligiga bo'ysundirilishi qaysi voqeadan keyin nihoyasiga yetkazildi?
A) 1812-yilda Quvondaryo atrofida yashovchi qoraqalpoqlar bo'ysundirilgach
B) 1813-yil Orol dengizi atrofida yashovchi qoraqalpoqlarning bo'ysundirilishi bilan
C) 1811-yilda Yangidaryo atrofida yashovchi qoraqalppqlar bo'ysundirilgach
D) 1810-yilda Orol bo'yi o'zbeklari va Jana qal'a zabt etilgach

29. Qoraqalpoqlarning Xiva xonligiga bo'ysundirilishi nechanchi yillarda amalga oshirildi?
A) 1715-1735-yy.  B) 1805-1812-yy
C) 1735-1811-yy.  D) 1792-1810-yy

30. Qaysi xiva xoni davrida esa ayrim qoraqalpoq qabilalari ixtiyoriy ravishda Xiva xonligi fuqaroligiga o'ta boshlagan?
A) Elbarsxon
B) Olloqulixon
C) Muhammad Amin inoq
D) Muhammad Rahimxon I

## 28- §. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

1. Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida qaysi holatlar ancha kuchli edi?
A) yerga egaliuk qiliush munosabatlari
B) qulchilik munosabatlari
C) urug`chilik, qabilachilik munosabatlari, aholining tabaqalarga bo`linishi
D) urug`chilik, qabilachilik munosabatlarining yemirilish jarayoni

2. Qoraqalpoqlarda urug` yoki qabilaga kim boshchilik qilardi?
A) botirlar  B) biylar  C) inoqlar
D) hokimlar

3. Qoraqalpoqlarda harbiy qismlarni kimlar boshqarardi?
A) biylar  B) inoqlar
C) navkarlar  D) botirlar

4. Qoraqalpoqlarda boshlang`ich ma'muriy bo`g`inni aniqlang.
A) qishloq  B) tuman
C) qo`rg`on  D) ovul

5.XIX asrda qoraqalpoqlarda boshlang'ich ma'muriy bo'g'in hisoblangan ovul hayotiga kim rahbarlik qilgan?
A) oqsoqollar kengashi
B) biylik kengashi
C) inoq
D) yuzboshi

6. Xiva xonligiga bo`ysundirilganga qadar biylik lavozimiga qayerda saylangan?
A) Oqsoqolar kengashida
B) urug` yig`inlarida
C) Davlat kengashida
D) Inoqlar yig`inida

7. XIX asrning boshlarida Qoraqalpoqlarning bosh ma'muriy markazlarini aniqlang.
A) Qo`ng`irot, Chimboy
B) Xo`jayli, Chimboy
C) Qo`ng`irot, Xo`jayli
D) Janaqal'a, Ko`ko`zakqal'a

8. Qoraqalpoqlar qadimdan qaysi mashg`ulot bilan shug`ullanib kelganlar?
A) chorvachilik  B) baliqchilik

C) dehqonchilik va chorvachilik
D) chorvachilik va baliqchilik

9. Qaysi dostonda qoraqalpoqlarning yerlar o'zlashtirib, suv inshootlari qurib, yer haydab g'alla yetishtirganligi, bog'lar yaratganligi haqida ma'lumotlar berilgan?
A) "Qirqqiz"da B) "Edigey"da
C) "Qublan"da D) "Mastposhsho"da

10. XVIII asr oxirlarida Amudaryoning quyi tarmoqlarida vujudga kelgan qoraqalpoqlarning dehqonchilik vohalarini aniqlang.
A) Xo'jayli va Mang'it
B) Chimboy va Qalliko'l
C) Qalliko'l va Kegayli
D) Chimboy va Qo'ng'irot

11. XIX asr o`rtalarida qoraqalpoqlarda qaysi dehqonchilik vohalari vujudga keldi?
A) Xo`jayli, Chimboy
B) Yangi (Jana) daryo va Quvondaryo
C) Qalliko`l, Kegayli
D) Chimboy, Qo`ng`irot

12. Qaysi havzalarida qoraqalpoqlar tomonidan barpo etilgan kanal va sug`orish inshootlari xo`jalikda deh-qonchilik tarmog`ining yetakchi o`rinda turganligidan guvohlik beradi?
A) Orolbo`yi B) Amudaryo va Sirdaryo
C) Yangi (Jana) daryo va Quvondaryo
D) Zarafshon va Sirdaryo

13. Qoraqalpoqlar hayotida hunarmandchilikning qaysi tarmoqlari rivojlanib boradi?
1) temirchilik; 2) duradgorlik; 3) kigiz bosuvchilik; 4) to`quvchilik; 5) bo`yoqchilik; 6) kulolchilik; 7) zargarlik
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 B) 1, 3, 5, 7
C) 2, 4, 6, D) 1, 3, 4, 6, 7

14. Qoraqalpoqlarning qaysi shaharlari yirik savdo markazlariga aylanadi?
A) G`azovot, Chordjo`y, Chimboy
B) Xo`jayli, Qo`ng`irot, Mang`it, Chimboy
C) Janaqal'a, Oydo`stqal'a, Mang`it, Chimboy
D) Ernazarqal'a, Ko`ko`zakqal'a, Eshonqal'a

15. Qoraqalpoq aholisidan qanday soliqlar undirilardi?
A) mushrifona, afanak, salg`ut, zakot
B) salg`ut, qo`riqbonga, mirobona
C) salg`ut, zakot, usur
D) salg`ut, qo`riqbonga, mirobona, zakot

16. Harbiy xavf yuz berganda qoraqalpoq xalqidan qanday soliq undirilar edi?
A) "favquloddagi soliq" B) "qozon"
C) "ixrojat" D) "miltiq puli"

17. Xiva xonligi zulmiga qarshi Oydo'stbiy boshchiligidagi qoraqalpoqlar qo'zg'oloni ko'tarilgan yilni aniqlang.
A) 1800-y. B) 1865-y. C) 1832-y. D) 1827-y.

18. Xiva xonligi tomonidan Oydo'stbiy boshchiligidagi qoraqalpoqlar qo'zg'olonini bostirish uchun jo'natilgan qo'shin qo'mondonini aniqlang.
A) Muhammad Nazarbiy inoq
B) Muhammad Yoqub Mushrif
C) Otamurodxon
D) Muhammadniyoz yasovulboshi

19.Qoraqalpoqlar Oydo'stbiy boshchiligida qo'zg'olon ko'targan vaqtda Qo'ng'irot hokimi kim edi?
A) G'oyib ibn Muhammad
B) Muhammad Nazarbiy
C) Muhammad Rizoquli
D) Muhammad Yoqub

20."Hamma bola-chaqasi bilan qo'zg'olonga yig'il-sin. Kimda kim bosh tortsa - u dushman hisoblanadi." Ushbu chaqiriqlar kimga tegishli?
A) Oydo'stbiyga B) Muhammad Aliga
C) Po'latxonga D) Mazdakka

21. Oydo`stbiy o`zining ikki o`g`li Rizo va To`rani 300 botirga bosh qilib, qaysi qo`rg`onga chopovulga yuboradi?
A) Chimboyga B) Xo`jayliga
C) Qo`ng`irotga D) Mang`itga

22. Oydo`stbiy boshchiligidagi qo`zg`oloni paytida kim Qo`ng`irot mudofaasini uyushtiradi?
A) Muhammad Yaqub mushrif

B) Eshmuhammad
C) Muhammad Nazar inoq
D) G`oyib sulton

23. Qaysi javobda qoraqalpoq qo'zg'oloni rahbari Oydo'stbiy o'limiga bag'ishlab marsiya yozgan xivalik tarixchi va shoir nomi keltirilgan?
A) Ogahiy B) Munis C) Berdaq D) Ajiniyoz

24. Qaysi Xiva xoni Oydo'stbiy boshchiligidagi qoraqalpoqlar qo'zg'olonini bostirish uchun maxsus qo'shin to'plab yuborgan?
A) Elto'zar B) Muhammad Amin
C) Muhammad Rahimxon I D) Olloqulixon

25. Bir shaxsning vafoti munosabati bilan uning xotirasiga bag'ishlab yozilgan motam she'ri qanday ataladi?
A) savkeli B) marsiya
C) jirov D) qo'biz

**29- §. Qoraqalpoq xalqi madaniyati.**

1.Qoraqalpoqlar qishlovni qayerlarda o'tkazganlar?
A) o'tovlarda B) daryo va dengiz bo'ylarida
C) ko'l va soy bo'ylarida
D) tog' yonbag'irlarda

2. Orol va Xiva oralig'idagi bojxona qaysi shaharda joylashgan?
A) Qo'ng'irot B) Chimboy C) Xo'jayli
D) Janaqal'a

3. Qoraqalpoqlar bunyod etgan yirik shaharlarni qayd eting.
A) G`azovot, Chorjo`y, Chimboy
B) Qo`ng`irot, Chimboy, Xo`jayli
C) Janaqal'a, Oydo`stqal'a, Mang`it, Chimboy
D) Ernazarqal'a, Ko`ko`zakqal'a, Eshonqal'a

4.Qaysi shaharlar qoraqalpoqlarning ma`muriy markazlari bo`lgan?
A) Sig`noq va Mang`it
B) Xo`jayli va Qo`ng`irot
C) G`azovot va Chimboy
D) Qo`ng`irot va Chimboy

5.Qoraqalpoqlarning ma'muriy markazlari bo'lgan Qo'ng'irot va Chimboy shaharlari qachon barpo etilgan?
A) XV asrning oxiri-XVI asrning boshlarida
B) XVIII asrning oxiri-XIX asrning boshlarida
C) XVII asrning oxiri-XVIII asrning boshlarida.
D) XVI asrning oxiri-XVII asrning boshlarida.

6.XIX asrda qoraqalpoq hunarmandlari necha yoshli bolalarni shogirdlikga qabul qilib, ularga hunar sirlarini o'rgatgan?
A) 14-15 yoshli B) 8-10 yoshli
C) 12-13 yoshli D) 7-8 yoshli

7. [illegible]dagi qaysi xalq to'qigan gilam va k[illegible]larga tushirilgan naqshli bezaklar suv ramzini aks ettiruvchi to'lqin ko'rinishida bo'lgan?
A) O'zbek B) Tojik
C) Qirg'iz D) Qoraqalpoq

8.Qoraqalpoq xalqi tomonidan bunyod etilgan qal'a shaklidagi shaharlarni aniqlang.
1)Oydo'stqal'a, Ernazarqal'a; 2)Jonbosqal'a, Tuproqqal'a; 3)Eshonqal'a;
4)Qo'yqirilganqal'a; 5)Janaqal'a, Ko'ko'zakqal'a.
A) 2,3,4 B) 2,4,5 C) 1,2,4 D) 1,3,5

9. XIX asr boshlarida qoraqalpoq shaharlarida nechta maktab mavjud edi?
A) 318 B) 215 C) 138 D) 418

10. Qoraqum eshon, Qalila oxun, Egambergan oxun, Oyimbet eshon mavzelarida, Eshonqal'ada … mavjud bo`lgan.
A) mashhur maktablar B) machitlar
C) madrasalar D) minoralar

11. Qoraqalpoq folklor namunalarining necha jildligi nashr etilgan?
A) 12 B) 26 C) 18 D) 20

12. Qoraqalpoqlarning qiziqchisi qaysi nom bilan atalgan?
A) Aldar ko`sa B) O`mirbek laqqisi
C) Afandi D) Afandi laqqisi

13. Qoraqalpoqlarning qahramonlik dostonlarini qayd eting.
A) "Qirqqiz", "Alpomis", "Qo`blan", "Mastposhsho", "Edigey"
B) "Hoy yigitlar, yigitlar", "Xayr endi, do`stlar", "Yuragimda ko`p dog`im"
C) "Tohir va Zuhra", "Bo`zyigit", "Mastposhsho", "Edigey"
D) "Alpomis", "Go`ro`g`li", "Kuntug`mish", "Shirin va Shakar"

14. Qoraqalpoqlarning qaysi dostonida Amir Temur, To`xtamish faoliyati bilan bog`liq voqealar bayon etilgan?
A) "Mastposhsho" B) "Qirqqiz"
C) "Edigey" D) "Qo`blan"

15. "Qirqqiz" dostonida qaysi voqealar tasvirlangan?
A) qozoq xoni Abulxayrga qarshi olib borilgan urushda qoraqalpoqlarning yengilishi
B) hukmron tabaqalarning kirdikorlarini, xalqqa o`tkazgan jabr-zulmlari
C) Amir Temur, To`xtamish faoliyati bilan bog`liq voqealar
D) qoraqalpoq xalqining XVIII asrda jung`or qalmoqlariga qarshi ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi

16. Qoraqalpoqlarning xalq qo`shiqlarida kimlar ulug`lanadi?
A) Maman botir, Kuchukxon, Taburchak, Oydo`stbiy, Ernazarbiy
B) Idigu, Taburchak, G`oyib sulton, Oydo`stbiy, Ernazarbiy
C) Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo`stbiy, Ernazarbiy
D) Kuchukxon, Taburchak va G`oyib sulton

17. "Qoraqalpoqlar sahrodagi birinchi shoir ham qo'shiqchilardir, shundan keyin qirg'izlar va turkmanlar", degan so'zlar kimga tegishli?
A) Ch.Valixonovga B) I.Xoxlovga
C) Ignatyevga D) M.Tevkelevga

18. Qaysi xalqni Qozoq ma'rifatparvar shoiri Ch.Valixonov "sahrodagi birinchi shoir hamda qo'shiqchilar" deya ta'riflaydi?
A) Qirg'izlarni B) Qozoqlarni
C) Qoraqalpoqlarni D) Turkmanlarni

19. Amir Temur va To'xtamish faoliyati bilan bog'liq voqealar bayon etilgan dostonni belgilang.
A) «Qirqqiz» B) «Alpomish» C) «Qublon»
D) «Edigey»

20. Qoraqalpoq adabiyotida alohida o'rin tutgan "Qirq qiz" dostoni qaysi asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirilgan?
A) XVIII-XIX asrlardagi
B) XVII-XVIII asrlardagi
C) XVI-XVII asrlardagi
D) XIV-XVI asrlardagi

21. Arslon, Sarvinoz, Oltinoy obrazlari qaysi dostonda uchraydi?
A) "Edigey" B) "Manas" C) "Qirqqiz"
D) "Mastposhsho"

22. "Qirqqiz" dostoni qanday g`oyalar bilan sug`orilgan?
A) vafodorlik, so`zga sadoqat
B) erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik
C) dushmanga nafrat, sevgi vafodarlik va muhabbat
D) do`stlik va insonparvarlik

23. Savkeli nima?
A) gilam turi B) qo'shiq
C) qoraqalpoq dostonlaridan biri
D) bosh kiyim

24. Qoraqalpoq qo'shiqchiligi mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
A) xalq, tarixiy, marosim
B) xalq, to'y, marosim
C) tarixiy, qahramonlik, marosim
D) A va B

25. Jirovlar qahramonlik dostonlarini nima jo`rligida?
A) dutor B) g'ijjak C) qo'biz D) A va B

26. Quyidagi qaysi doston ijrochilari dutor va g`ijjak jo'rligida ijro etganlar?
A) jirov B) baxshi C) qissaxon
D) marsiyachi

### 30- §. XVIII—XIX asrlarda qoraqalpoq adabiyoti ravnaqi.

1. Qoraqalpoqlarda yozma adabiyot shakllanib, rivojlana boshlagan davrni aniqlang.
A) XVIII asr B) XVII asr boshlari
C) XVI asr D) XVI asr o'rtalari

2. Mashhur baxshi Jiyen Jirov qaysi yillarda yashab o`tgan?
A) 1827-1900-yillarda
B) 1824-1878-yillarda
C) 1799-1880-yillarda
D) 1730-1784-yillarda

3. Jiyen Jirov tomonidan yozilgan she'rlarni qayd eting?
A) "Darbadar el", "O`roqchilar", "Oq qamish", "Cho`ponlar"
B) "Hoy yigitlar, yigitlar", "Xayr endi, do`stlar", "Yuragimda ko`p dog`im", "Tuyani ber", "Hoy xonimiz, xonimiz", "Xon yonida to`ralar"
C) "El bilan", "Boy bolasi", "Mening bolam", "Unutmasman", "Tuya ekansan"
D) "Kerak", "Bo`ladi", "Bo`lmasa", "Yaxshi", "Yigitlar"

4. XVIII-asrda Sirdaryo bo'ylarida yashagan qoraqalpoqlarning har yoqqa tarqab ketishiga sabab bo'lgan voqeani aniqlang.
A) Qozoq xoni Abulxayrdan yengilishi
B) Qipchoq lashkarboshisi Qoraboyxondan yengilishi
C) Xiva xoni Muhammad Amindan yengilishi
D) Sirdaryoning suvi kamayishi natijasida yuz bergan hosilsizlik

5. Qozoq xoni Abulxayrxonga qarshi olib borilgan urushda qoraqalpoqlar yengilib qolgandan keyin, Sirdaryo bo`yidagi qoraqalpoqlar har yerga tarqab ketganlar. Bu haqda kimning qanday dostonini bilasiz?
A) Berdaqning " Xalq uchun" she'ri
B) Kunxo`ja Ibrohim o`g`lining " El bilan" asari
C) Ajiniyoz Qosiboy o`g`lining " Bo`zatov" dostoni
D) Jiyen jirovning " Darbadar el" dostoni

6. Quyidagi qaysi shaxs qoraqalpoqlarning mashaqqatli davri tarixini bayon etuvchi "Darbadar el" dostoni muallifi hisoblanadi?
A) Kunxo'ja B) Ajiniyoz C) Jiyen Jirov
D) Berdaq

7. 1799-1880-yillarda qaysi qoraqalpoq adabiyotining ko`zga ko`ringan vakillaridan biri yashab o`tgan?
A) Kunxo`ja Ibrohim B) Jiyen Jirov
C) Ajiniyoz Qo`siboy o`g`li D) Berdaq

8. Kunxo`ja Ibrohimning qaysi she'rlarida qoraqalpoq xalqining Xiva xonligi tobeligiga tushib qolgan davrdagi og`ir ahvoli, erksiz [illegible] o`z ifodasini topgan?
A) "Unutmasman", "Tuya ekansan"
B) "El bilan", "Boy bolasi", "Mening bolam"
C) "O`roqchilar", "Oq qamish", "Cho`ponlar"
D) "Kerak", "Bo`ladi", "Bo`lmasa", "Yaxshi", "Yigitlar"

9. Ajiniyoz Qo`siboy o`g`li qaysi yillarda yashab o`tgan?
A) 1827-1900-yillarda
B) 1799-1880-yillarda
C) 1824-1878-yillarda
D) 1730-1784-yillarda

10. Taxallusi Zevar bo`lgan shoirni qayd eting.
A) Ajiniyoz Qo`siboy o`g`li
B) Kunxo`ja Ibrohim
C) Berdimurod Qarg`aboy o`g`li
D) Qurbonboy baxshi Tojiboy o`gli

11. Qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko'chib ketishiga majbur etilganligi Ajiniyoz Qosiboy o'g'lining qaysi asarida katta mahorat bilan tasvirlan-gan?
A) "Qiz Mengam bilan aytishuv"
B) "Xon yonida to'ralar" C) "Bo'zatov"
D) "O'roqchilar"

12. Mamlakatimizda nechanchi yilda qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandasi Ajiniyoz Qosiboy o'g'li tavalludining 175 yilligi keng nishonlandi?
A) 1997-yil B) 2000-yil
C) 1999-yil D) 1998-yil

13. O'zbekistonda Berdaq tavalludining 170 yilligi nechanchi yilda keng nishonlandi?
A) 1999-yilda B) 1998-yilda
C) 1997-yilda D) 1996-yilda

14. Quyidagilardan qay biri qoraqalpoq xalqi adabiyoti asoschisi edi?
A) Berdaq B) Ajiniyoz Qo`siboy o`g`li
C) Kunxo`ja Ibrohim D) Jien Jirov

15. Berdimurod Qarg`aboy o`g`li qaysi yillarda yashab o`tgan?
A) 1799-1880-yillar B) 1824-1878-yillar
C) 1730-1784-yillar D) 1827-1900-yillar

16. Qoraqalpoq shoirlardan kim 25 yoshida iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi?
A) Ajiniyoz Qo`siboy o`g`li
B) Kunxo`ja Ibrohim C) Bedil D) Berdaq

17. Berdaqning qaysi she'rlarida mehnatkash xalqning og`ir hayoti o`z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan?
A) "Kerak", "Bo`ladi", "Bo`lmasa", "Yaxshi", "Yigitlar"
B) "Bo`lgan emas", "Umrim", "Yordam ber"
C) "O`roqchilar", "Oq qamish", "Cho`ponlar"
D) "O`g`limga", "Ahmoq bo`lma"

18. Berdaq o'zining qaysi she'rlarida yoshlarni Vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi.
A)"O'g'limga" , "Ahmoq bo'lma"
B) "Avlodlar", "O'g'limga"
C)"O'g'limga", "Xalq uchun"
D) "Bo'lgan emas", "Umrim"

19.Berdaq o'zining qaysi she'rlari orqali yoshlarni Vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi?
1) "Hoy yigitlar, yigitlar"; 2) "El bilan"; 3) "O'g'limga"; 4) "Umrim"; 5) "Ahmoq bo'lma"; 6) "Xalq uchun"; 7) "Bor, bolam bor"
A) 1, 6 B) 4, 6 C) 2, 7 D) 3, 5

20. Berdaq qaysi she'rida yoshlarni mehnatkash xalq uchun jonini ayamaslikka da'vat etadi?
A) "Yordam ber" B) "Avlodlar"
C) "Fidoyi bol" D) "Xalq uchun"

21.Quyidagi qaysi dostonda Xiva xonligi zulmiga qarshi ko'tarilgan isyon aks ettirilgan?
A) "Bo'zatov" B) "Omongeldi"
C) "Ernazarbiy" D) "Xalq uchun"

22.Quyidagi qaysi shaharda qoraqalpoq adabiyoti-ning yirik vakillaridan biri Berdaqning byusti o'rnatilgan?
A) Toshkentda B) Chimboyda
C) Urganchda D) Xo'jaylida

23. Ushbu fikrlar kimga tegishli:*Bo'ri hech vaqt o 'z dardini bildirmas, Yaxshi odam dushmanini kuldirmas. Qo'ldan kelsa unga davron surdirmas, Er yigitning joni qurbon xalq uchun.*
A)Berdaq B)Ajiniyoz C)Jiyen Jirov
D)Kunxo'ja Ibrohim

24.Qaysi asarda xalqlarning kelib chiqishi, qoraqalpoq xalqining boshqa turkiy xalqlar bilan aloqasi, ularning hayotidagi umumiylik kabi jihatlar bayon etilgan?
A) "Bo'zatov" B) "Xalq uchun"
C) "Avlodlar" D) "Umrim"

25."Soliq" she'ri qaysi qoraqalpoq shoiri qalamiga mansub hisoblanadi?
A) Jiyen Jirov B) Berdaq C) Ajiniyoz
D) Kunxo'ja Ibrohim

26.Quyidagi mualliflar va ularning asarlari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini aniqlang.
1) Ajiniyoz; 2) Berdaq; 3) Jiyen Jirov
a) "Bo'zatov"; b) "Darbadar el";
c) "Avlodlar".
A) 1-a,2-c,3-b B) 1-a, 2-b, 3-c
C) 1-b,2-a,3-c D) 1-c, 2-a, 3-b

## VII-bob. XVIII - XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI.

### 31- §.Qo'qon xonligining tashkil topishi.

1. XVIII asrda o'z hukmronligini o'rnatgan sulolalarni aniqlang.
1) Ashtarxoniylar; 2) Mang'itlar; 3) Minglar; 4) Qo'ng'irotlar; 5) Romanovlar.
A) 1, 3, 4 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 4 D) 2, 3, 5

2.XVIII asrning birinchi yarmida Farg'ona mulki ...
A) asosan qipchoq qabilalari qo'l ostida edi
B) ichki g'alayonlar markaziga aylandi
C) Buxoro xonligi tarkibidan ajralib chiqdi
D) bir necha mulklarga bo'linib, parchalanib ketdi

3.XVIII asr boshlarida Qo'qon xonligida minglar sulolasi hokimiyat tepasiga kelmasdan avval...
A) Sharqiy Turkiston o'zbeklari bilan qonh urushlar olib borilgan.
B) hokimiyatni Dashti Ashtdagi qipchoq qabilalari egallaganlar.
C) siyosiy parokandalikka barham berilib, tinch rivojlanish pallasi boshlangan.
D) hokimiyat Chust yaqinidagi Chodak xo'jalari qo'liga o'tdi.

4. Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'liga olgan Shohruhbiy qayerni o'zi uchun qarorgoh qilib belgilaydi?
A) Qo'qonni B) Tepaqo'rg'onni
C) Chodakni D) Qizil O'rdani

5. Abdurahimbiy davrida quyidagi voqealardan qay biri ro`y bermagan?
1) Xo`jand, O`ratepa viloyatlari qo`shib olindi; 2) hozirgi Qo`qon shahriga asos solindi; 3) poytaxt Tepaqo`rg`ondan Qo`qon shahriga ko`chirildi; 4) Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent, Sayram va Turkistonni o`ziga bo`ysundirdi; 5) Shahrisabz ostonalariga qo`shin tortib bordi va uning hokimi bilan Qo`qonga tobelik haqida bitim tuzishga erishadi; 6) Samarqandni va Jizzaxni egallaydi.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 4
D) 2, 4, 6

6. Qo'qon xoni Erdona hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
A) 1733-1750-y. B) 1751-1762-y.
C) 1721-1733-y. D) 1763-1798-y.

7. Qo'qon xonligiga Erdona hukmronligi davrida bo'ysundirilgan hududlarni aniqlang.
A) Turkiston va Chimkent
B) Ko'lob va Darvoz
C) Chust va Namangan D) O'sh va O'zgan

8. O'z hukmronliklari davrida davlat poytaxtini boshqa joyga ko'chirgan hukmdorlar nomi keltirilgan javobni aniqlang.
A) Ubaydullaxon, Elbarsxon, Arab Muhammadxon, Abdukarimbiy
B) Ubaydullaxon II, Elbarsxon, Arab Muhammadxon, Abdukarimbiy
C) Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Arab Muhammadxon, Abdukarimbiy
D) Ubaydullaxon, Elbarsxon, Imomqulixon, Norbo'tabiy

9. Nisbatan uzoq muddat hukmronlik qilgan Qo'qon xonini aniqlang.
A) Abdurahimbiy B) Norbo'tabiy
C) Abdulkarimbiy D) Olimxon

10. Qo'qon xonligida qaysi hukmdorlar hukmronligi davrida xonlikning qudrati ortdi?
A) Erdona, Norbo'tabiy, Olimxon
B) Mallaxon, Xudoyorxon, Murodxon
C) Muhammad Alixon, Murodxon, Olimxon
D) Xudoyorxon, Muhammad Alixon, Mallaxon

11. Quyidagi hukmdorlardan qaysi birining davrida Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida birinchi marta savdo aloqalari o'rnatilgan?
A) Norbo'tabiy B) Erdonabiy C) Olimxon
D) Umarxon

12. Quyidagilar orasidan taxtni nisbatan uzoqroq boshqargan hukmdorni aniqlang.
A) Shohjahon B) Avrangzeb
C) Norbo'tabiy D) Amir Temur

13. Olimxon faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqealarni aniqlang.
1) Rossiyaga boruvchi savdo karvon yo'llarini bo'ysundiradi; 2) mamlakatda ilm-fan taraqqiy etadi; 3) harbiy islohot o'tkazib, "askariya" deb atalauvchi muntazam qo'shinni sipoh, sarboz va to'pchi kabi qismlarga ajratadi.
A) 1,2,3 B) 1,2 C) 1,3 D) 2,3

14. Qo'qon xoni Olimxon davrida harbiy islohat o'tkazilgan bo'lib, unga ko'ra tuzilgan muntazam qo'shin nima deb atalgan?
A) tunqator B) askariya C) qilquyruq

D) lashkari sipoh

15.Kimning davrida Rossiya bilan birinchi marta savdo aloqalari o'rnatilgan?
A) Erdona B) Olimxon C) Umarxon
D) Xudoyorxon

16.Qaysi Qo'qon xoni davrida, xonlikning siyosiy mavqeyi yanada kuchayib, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Sayram, Rossiyaga boruvchi savdo karvon yo'llari bo'ysundirildi?
A) Yunusxo'ja B) Erdonabiy
C) Norbo'tabiy D) Olimbek

17. Buxoro va Qo'qon xonliklarining qaysi hukmdorlari harbiy islohot o'tkazganlar?
A) Muhammad Ali va Amir Haydar
B) Xudoyorxon va Doniyolbiy otaliq
C) Olimxon va Nasrullo
D) Sheralixon va Muhammad Rahimxon

18. Qo'qon xonligida "qilquyruq" atamasi nimani anglatgan?
A) xonning kamonchilar bo'limi askarlarini
B) doimiy piyoda askarlarni
C) nomuntazam qo'shinni
D) ko'chmanchilardan tuzilgan doimiy lashkarni

19. Qo'qon xoni Olimxon davrida harbiy islohat o'tkazilgan bo'lib, unga ko'ra tuzilgan muntazam qo'shin nima deb atalgan?
A) tunqator B) askariya C) qilquyruq
D) lashkari sipoh

20. Qo'qon xoni Olimxon davrida muntazam qo'shin tuzilishidan keyin ham nomuntazam qo'shindan foydalanish davom etgan va u nima deb atalgan?
A) tunqator B) qilquyruq
C) sipoh D) askariya

21. Qaysi voqeadan so'ng,Olimxon 1805-yilda o'z davlatini rasman Qo'qon xonligi deb, o'zini esa xon deb e'lon qildi?
A) Buxoro amirligi ga qarshi tura olishiga ishonch hosil qilgach
B) Xitoy bilan tengma-teng davlatga aylangandan so'ng
C) Rossiya bilan savdo aloqalari o'rnatgach
D) ming qabilasi vakillari chingiziylarga borib taqalgani isbotlangach

22. Mulla Olim Toshkandiyning "Tarixi Turkiston" asari nechanchi yilda qayerda nashr etilgan?
A) 1905-yilda, Qo'qonda
B) 1907-yilda, Farg'onada
C) 1915-yil, Toshkentda
D) 1917-yilda, Qozonda

23. Kimning asarida Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan?
A) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy, "Shohnomayi nusratpayotu "
B) Mulla Olim Maxmudxo'ja, "Tarixi Turkiston"
C) Mulla Ali Qori Qunduziy, "Tavorixi manzuma"
D) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy, "Tarixi Shohruxiy"

24. Mulla Olim Mahmudxo'janing"Tarixi Turkiston" asarida Qo'qon xonligidagi mansablar haqida ta'rif berilib , unga ko'ra 1) Mingboshi, 2) Qo'shbegi mansablari haqida qanday ma'lumotlar berilgan?
a) xondan keyingi o'rinda turgan, u bosh vazir bo'lgan; b) u qo'shinning bosh qo'mondoni hisoblangan; c) xonning maslahatchisi bo'lgan; d) ayni paytda katta shaharlardan biriga hokim etib tayinlangan; e) o'z nufuzi jihatidan qushbegi vakolatiga teng bo'lgan;
A) 1-a,e; 2-b,c B) 1-a,b; 2-c,d
C) 1-b,e; 2-a,d D) 1-b,c; 2-a,d

25. Qo'qon xonligida qaysi mansabdor shaxs nufuzi jihatidan bora-bora birinchi o'ringa chiqib, xonlikda bosh vazir hisoblangan?
A) devonbegi B) qushbegi C) parvonachi
D) mingboshi

26.Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan qaysi asarda ta'kidlanishicha xonlikda xondan keyingi o'rinda mingboshi turgan?
A) "Tarixi Rashidiy" B) "Tarixi Turkiston"
C) "Tarixi Toshqand"
D) "Saralangan tarixlar"

27. Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan "Tarixi Turkiston" asari qayerda nashr etilgan?
A) Namanganda B) Marg'ilonda C) Qo'qonda
D) Toshkentda

28. Qo'qon xonligida hukmdorga taom tortishdan avval o'zi tatib ko'ruvchi bosh oshpaz qanday atalgan?
A) mehmondor B) parvonachi
C) bakovulboshi D) tunqator

29. Qo'qon xonligida quyidagi qaysi mansab o'z nufuzi jihatidan qo'shbegi vakolatiga teng bo'lgan?
A) parvonachi B) mehtar C) hudaychi
D) naqib

30.Qo'qon xonligida bosh vazir hisoblangan mansabdor qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) inoq B) mingboshi
C) mehtar D) otaliq

31.Qaysi lavozim Saroy dasturxonchilari boshlig'i, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi tatib ko'ruvchi bosh oshpaz hisoblangan?
A) beklarbegi B) bakovulboshi
C) xonsolor D) dasturxonchi

32.Farg'onada o'zbeklarning ming urug'i qachon Qo'qon xonligiga asos solishadi?
A) 1711-yilda B) 1709-yilda
C) 1753-yilda D) 1770-yilda

**32- §. XVIII asrning ikkinchi yarmi — XIX asr boshlarida Toshkent.**

1.Toshkent bekligida Yunusxo'ja huzurida tuzilgan xon kengashı tarkibiga kimlar kirgan?
A) 4 daha qozıları B) 4 daha mingboshilari
C) Yunusxo'janing ishonchli saroy a'yonlari
D) 4 daha hokimlari

2. Quyidagilarda kimga "Hazrati eshon" unvoni berilgan?
A) Yunusxo'jaga
B) Xoja Ahmad Yassaviyga
C) Yusufbekka D) Sultonxo'jaga

3.Yunusxoja hokim etib tayinlangan kengash qanday nom bilan yuritilgan?
A) devon kengashi B) davlat kengashi
C) hokimlar kengashi D) xon kengashi

4. Yunusxo'ja qo'shinida asosiy kuchni tashkil qilgan qabilani aniqlang.
A) Kattajuz B) Ming C) Kenagas
D) Qipchoq

5. Toshkent hokimi Yunusxoja bilan yaqin aloqada bo'lgan Bukey Sulton qaysi bo'lis hokimi bo'lgan?
A) Qorasuv B) Qorakesak C) Qurama
D) Sayram

6. Qachon Qurama tumani Toshkentga qo'shib olingan?
A) 1799 yilda B) 1795 yilda
C) 1996 yilda D) 1800 yilda

7. Toshkent hokimligida Boshchixo'janing vazifasini aniqlang.
A) shahar nazorati va soliq yig'ish
B) hokim nomiga yozilgan arizalarni qabul qilish
C) davlat xazinasiga tushadigan mahsulotlami
D) mansabdorlar ishi ustidan nazorat qilish

8. Toshkent hokimligida shahar savdosi ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan mansablarni aniqlang.
A) daftardor va sarkor
B) rais va shayxulislom
C) qozi va devonbegi
D) shig'ovul va muxtasib

9. 1799-yilga kelib Toshkent hokimligiga qo'shib olingan hududlarni aniqlang.
A) Turkiston va uning atroflaridan Chu daryosigacha bo'lgan yerlar
B) Tosbkent atrofari va Chimkent, Sirdaryo bo'ylarigacha bo'lgan yerlar
C) Xo'jand va O'ratepa viloyatlari atrofidagi bududlar
D) Chimkent, Sayram va Qo'qon xonligigacha bo'lgan bududlar

10. Ma'lumki, 1799-yil Qo'qon xoni Olimxon tomonidan Toshkent ustiga qo'shin

jo'natilgan edi. Ushbu jang qayerda bo'lgan edi?
A) Chirchiq bo'yidagi Qorasuv mavzeida
B) Ko'krev daryosi bo'yida
C) Chinoz va Toshkent oralig'ida
D) Sirdaryoning chap sohilida

11. 1799-yil Qo'qon xonligi qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratgan Yunusxoja qaysi hududni o'z bekligi-ga qo'shib oladi?
A) Sayram va uning atrofidagi qishloqlarni
B) Qurama mavzeini
C) Qorakesak bo'lisi va Qorasuv mavzeini
D) Turkiston va Tarozni

12. Mustaqil Toshkent bekligini tugatish maqsadida Qo'qon xonligi 1800 yil kuzida qayerda jang qilgan?
A) G'urumsaroyda B) Qorako'l mavzesida
C) Qurama mavzesida D) O'ratepada

13. Ma'lumki, Toshkent xoni Yunusxoja tomonidan ikki turdagi pul muomalaga chiqarilgan bo'lib, ular ...
A) dinor va dirham deb atalgan
B) rupiya va tanga deb atalgan
C) rupiya va fals-chaqa deb atalgan
D) katta dinor va kichik dirham deb atalgan

14. Argentinada mustaqillik uchun qurolli kurash boshlanga davrda yuz bergan voqeani aniqlang.
A) Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofida ishovchi qoraqalpoqlar xonlikka bo'ysundirildi.
B) Yangidaryo (Janadaryo) atrofida yashovchi qoraqalpoqlar tobe etildi.
C) AQSHda erkinlikka erishgan qora tanli qullarni Afrikaga joylashtirish harakati boshlandi.
D) Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olinadi.

15. Mustaqil Toshkent hokimligi tarixiga doir quyidagi voqealardan qaysilari bir yilda sodir bo'lgan?
1) Qorako'l mavzesining Toshkentga qo'shib olinishi; 2) Qoqon xoni Olimxon qo'shinining Toshkentni egallash maqsadida yurish boshlashi (Yunusxo'jaga qarshi); 3) Yunusxo'janing Mahmudxo'ja va Azizxo'ja boshliq Toshkent savdo karvoni orqali Sibir ma'muriyati nomiga maktub jo'natishi; 4) Sibir ma'muriyati elchilari A. F. Beznosikov va N.S.Burnashevlarning Toshkentga jo'natilishi; 5) Sirdaryo bo'yidagi G'urum-saroy yaqinida Toshkent hokimligi qo'shini bilan Qoqon xoni qo'shini o'rtasida asosiy jang bo'lishi.
A) 1,2 B) 1,5 C) 1,3 D) 3,4

16. Mustaqil Toshkent hokimligi tarixiga doir quyidagi voqealar orasidan bir yilda yuz berganlarini toping.
1) Chimkent va Sayramning Toshkentga qo'shib olinishi;
2) Turkiston va uning atroflaridan Chu daryosigacha boflgan yerlar Toshkentga qo'shib olinishi;
3) Toshkent elchilari Sankt-Peterburgda Aleksandr I qabulida boſldi;
4) 24 kishidan iborat Toshkent savdo karvonining Semipalatinsk shahriga kelishi;
5) Sibir ma'muriyati ikkinchi bor yuborgan elchilarining Toshkentga yetib kelishi
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 5 D) 2, 5

17. Toshkent hokimligining Katta qozoq juzi ustidan nazoratni kuchaytirishi qaysi davlatning iqtisodiy va siyosiy mavqeyini chegaralab qo'ydi?
A) Qo'qon xonligining
B) Buxoro amirligining
C) Sibir ma'muriyatining
D) Xiva xonligining

18. Yunusxo'ja bilan yaqin aloqada bo'lgan qozoq sultoni Bukey qaysi bo'lisning sultoni edi?
A) Tabin B) Qorakesak
C) Sarmat D) Qoraqo'l

19. XVIII asrning 90 yillarida qaysi karvonboshi rahbarligidagi bir guruh Toshkent savdogarlari o'z karvonlari bilan doimo Petropavlovskka qatnab turgan?
A) B.Ismoilov va Azizxo'jalar
B) Rahmatilla karvonboshi
C) Muhammadxo'ja boshliq
D) Azizxo'ja boshliq

20. Bir yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang?
1)Toshkent elchilari Sankt-Peterburgga borib, imperator Aleksandr I qabulida bo'ldi;
2)Yunusxo'ja kasallanib vafot etdi; 3) Qoqon xoni Olimxon qo'shinining Toshkentni egallash maqsadida yurish boshlashi;
4) Sirdaryo bo'yidagi G'urumsaroy yaqinida Toshkent hokimligi qo'shini bilan Qoqon xoni qo'shini o'rtasida asosiy jang bo'lishi.
A) 1,2 B) 1,3 C) 2,4 D) 3,4

21.Toshkent hokimligi elchilari Sankt-Peterburgga borib, Imperator Aleksandr I qabulida bo'lgan yilda ....
A) Toshkent hokimligi taxtiga Sultonxoja o'tirdi
B) Toshkent hokimligi Qo'qon xonligi tarkibiga qo'shib olindi
C) Qo'qon xoni lashkarlari bilan Toshkent hokimligi lashkari o'rtasida G'urumsaroy yaqinida jang bo'ldi
D) Turkiston va uning atrodaridan Chu daryosigacha bo'lgan yerlar Toshkent hokimligiga qo'shib olindi

22.Toshkent elchilari Sankt-Peterburgga borib, imperator Aleksandr I qabulida bo'lgan yilda bo'lib o'tgan voqeani belgilang.
A) Yunusxo'ja kasalga chalinib, vafot etdi.
B) Qo'qon va Toshkent qo'shinlari G'urumsaroyda to'qnashdi.
C) Sibir ma'muriyati ikkinchi bor yuborgan elchilar Toshkentga yetib keldi.
D) Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olindi.

23. XVIII asr oxirlari - XIX asr boshida mavjud bo'lgan Toshkent hokimligida Yunusxo'ja hukmronligi davrida qanday pul birliklari muomalaga kiritilgan?
A) dirham, fulus B) rupiya, tanga
C) fulus, tanga D) dirham, rupiya

24. Manbalarda yozilishicha, 1787-yil Toshkentga qayerdan 27773 so'mlik rus va chet el mollari keltirilgan?
A) Irbitdan B) Sibirdan C) Troiskdan
D) Petropavlovskdan

25. 1792-yil Muhammadxoja va Azizxoja boshliq Toshkent savdo karvoni Rossiyaning qaysi hududga jo'natilgan edi?
A) Irbitga B) Sibirga C) Troiskga
D) Petropavlovskga

26. Sibir ma'muriyati tomonidan A. T. Beznosi-kov va T. S. Burnashevlar Toshkentga jo'natil-ganidan 80 yil avval qaysi Xiva xoni taxtga chiqqan edi?
A) Shohniyoz B) Eltuzarxon
C) Sherg'ozixon D) Elbarsxon

27.Quyidagi qaysi Qo'qon xoni 1809-yilda Toshkent bekligini Qo'qon xonligiga bo'ysundirgan?
A) Muhammad Aiixon B) Olimxon
C) Norbo'tabiy D) Umarxon

28. XVIII-asr oxirlarida Toshkent bekligining Katta qozoq juzi ustidan o'z ta'sirini kuchaytirishi qanday oqibatlarni keltirib chiqargani ni aniqlang.
A) Savdo aloqalarining kengayishiga olib keldi
B) Xiva va Buxoro savdo aloqalariga ta'sir ko'rsatdi
C) Qoqon xonligining iqtisodiy va siyosiy mavqeini chegaralab qo'ydi
D) Buxoro bilan munosabatlarining yaxshilanishiga olib keldi

29. Nechanchi yillarda mustaqil Toshkent hokimligi mavjud bodgan?
A) 1789-1805-yy. B) 1786-1808-yy.
C) 1784-1803-yy. D) 1784-1809-yy.

30. Ma'lumki, 1800-yilning kuzida Qo'qon va Toshkent qo'shinlari G'urumsaroyda to'qnashgan edi. Bu hudud hozirda qaysi viloyatda joylashgan?
A) Chimkent viloyati
B) Toshkent viloyati
C) Namangan viloyati
D) Sirdaryo viloyati

### 33- §. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli.

1. "Eshon" diniy unvonini bekor qilgan, slmningdek, kambag'allarga va qalandarlarga yer maydoni va chorva mollari berib, ularni mehnat qilishga jalb etgan Qo'qon xonini aniqlang.
A) Umarxon B) Olimxon C) Xudoyorxon

D) Muhammad Alixon

2. O'z hokimiyatini markazlashtirish maqsadida "eshon" diniy unvonini bekor qilgan Qo'qon xonini aniqlang.
A) Muhammad Alixon B) Olimxon
C) Umarxon D) Norbo'tabiy

3. Qo'qon xonligida kambag'allar va qalandarlarga yer maydonlari va chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb qilgan xonni aniqlang.
A) Umarxon B) Norbo'tabiy
C) Erdonabiy D) Olimxon

4. Qo'qon xonligi tarixiga oid voqealarni hukmdorlar bilan birga belgilang?
a) O'sh va O'zgan xonlikka bo'ysundirildi;
b) Xonlik g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib bora oladigan davlatga aylandi; c) Chust va Namangan hokimlarining isyonini bostirdi; d) Xo'jandni qayta bo'ysundirdi,bozorlarda narx-navo arzonlashdi; e) Rossiya bilan birinchi marta savdo aloqalari o'rnatilgan; i) Qo'qon qo'shinlari Farg'onaning janubida joylashgan tojik o'troq aholisi yashaydigan va o'z hokimlari bo'lgan Qorategin. Darboz va Ko'lobga yurish qildi va egalladi.
1)Abdurahimbiy; 2) Erdonabiy;
3) Norbo'tabiy; 4) Olimxon; 5) Umarxon;
6) Muhammad Ali.
A) a-1; b-2; c-3; d-5; e-4; i-6
B) a,c-1; b-2; d-4; e,i-6
C) a,b,-2; c,d-3; e-4; i-6
D) a-2; b-1; c,i-4; e,d-5

5. Qo'qon xonligi tarixiga oid voqealarni hukmdorlar bilan birga belgilang?
a) Sirdaryo bo'yidagi Yangiqo'rg'on, Julek, Qamish-qo'rg'on, Oqmasjid, Qo'shqo'rg'on nomli harbiy istehkomlar qurildi va Turkiston shahrini o'z tasarrufiga oldi b) ruhoniylar xonni turli axloqsizlik va shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab,unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi c) xonlik tarkibiga Xo'jand, O'ratepa viloyatlari qo'shib olindi;
d) Samarqand va Jizzax egallandi
1)Abdurahimbiy; 2) Erdonabiy;
3) Norbo'tabiy; 4) Olimxon; 5) Umarxon;
6) Muhammad Ali.
A) a-4; b-5; c-1; d-3 B) a-5; b-6; c,d-1
C) a-2; b-3; c-4; d-6 D) a-2; b-1; c,d-4

6. Olimxonning quyidagi qaysi harakatlari ayrim qabila boshliqlarining undan noroziligini kuchaytirgan?
A) o'tkazgan harbiy islohoti
B) markazlashgan kuchli hokimiyat yo'lidagi harakatlari
C) davlat lavozimlariga qabila boshliqlarining qo'yilmayotganligi
D) ayrim qabila boshliqlari mulklarining dehqonlarga bo'lib berilganligi

7. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon va Buxoro orasidagi do'stona munosabatlarning to'xtashiga nima sabab bo'ldi?
A) Qo'qon qo'shinlarining Qorategin va Dorbozga hujumi
B) Buxoro amirligi tomonidan So'zakiya va Turkistonning bosib olinishi
C) Qo'qon xonligi tomonidan Yangiqo'rg'on va Julep qal'alarining qurilishi
D) Jizzax va O'ratepa uchun doimiy kurashlar

8. Umarxondan so'ng taxtni egallagan Madalixonning hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
A) 1822-1841-yillar B) 1810-1822-yillar
C) 1822-1842-yillar D) 1822-1845-yillar

9. Umarxon hukmronligi davrini eng yaxshi podsholik davrlaridan biri sifatida tasvirlagan farg'onalik tarixchini aniqlang.
A) Muhammad Hakim B) Muhammad Latif
C) Avaz Muhammad D) Muhammad Solih

10. Katta va qisman kichik juz o'rdalari qaysi Qo'qon xoni davrida bo'ysundirildi?
A) Umarxon B) Erdona C) Olimxon
D) Norbo'tabiy

11. Qo'qon xonligi qo'shinlarining ko'chmanchi qozoq va qirg'iz elatlariga qarshi muvaffaqiyatli yurishlari natijasida xonlikka bo'ysundirilgan hududlarni belgilang.
A) Katta va qisman Kichik juz o'rdalarini o'z ichiga oluvchi keng hududlar
B) Kichik juz o'rdasidan Enasoyning o'rta oqimigacha bo'lgan yerlar

C) Katta, O'rta,va Kichik juz o'rdalari joylashgan hududlar
D) Katta va qisman O'rta juz o'rdalarini o'z ichiga oluvchi hududlar

12. Muhammad Alixon davrida Qo'qon xonlari qo`shinlari Farg'onaning janubida joylashgan qaysi hududlarni egalladi?
A) Qirg'iz ko'chmanchi qabilalari yashaydigan O'sh, O'zgan va Qorategin hududlariga yurish qildi
B) Tojik o`troq aholisi yashaydigan va Qorategin, Darboz va Ko'lobga yurish qilib bu hududlarni egallaydi
C) Uyg'ur aholisi yashaydigan Sharqiy Turkiston va Qashg`ardagi Yorkent, Ko'lob va Qorateginni bosib oldi
D) Issiqko'l atrofidagi ko'chmanchi turkiy qabilalar va Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bir qancha shaharlarni egalladi

13. Qo'qon xonlaridan qaysi bin Qorategin, Darboz va Ko'lobga yurish qilib, u yerlarni egallaydi?
A) Norbo'tabek B) Ohmxon
C) Umarxon D) Muhammad Alixon

14. Qachon va kim foydasiga Madalixon taxtdan voz kechadi?
A) 1842-yil; Xudoyorxon foydasiga
B) 1841-yil; o'z o'g'li Sulton Mahmudxon foydasiga
C) 1842-yil; o'z jiyani Sulton Murodbek foydasiga
D) 1841-yil; o'z ukasi Sulton Mahmudxon foydasiga

15. Madalixon o'z ukasi Sulton Mahmudxon foydasiga taxtdan voz kechgan sana?
A) 1841-yil B) 1842-yil C) 1844-yil
D) 1845-yil

16. Sheralixon Qo'qon xonligini necha yil boshqargan?
A) 2 yil B) 3 yil C) 1 yil D) 6 yil

17. Nima sababdan butun Qo`qon xonligi hududida 1842-yili katta qo`zg`olon ko`tariladi?
A) amirning Qo`qondagi noibi Qo`qon xonligi aholisini avval undirib kelingan soliqqa qo`shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni to`lashga majbur qilganligi
B) amirning Qo`qondagi noibi Qo`qon xonligi aholisini Buxoroning jamoat ishlariga jalb qilganligi
C) amirning Qo`qondagi noibining Qo`qon xonligini davlat sifatida tugatilganlini e'lon qilinishi
D) Amir Nasrullo buyrug`iga binoan Madalixon va Nodirabegimning qatl etilishi

18. Buxoro xonligidan mustaqil bo'lishlari uchun 1842 yilda qo'qonliklarga kim yordam berganligini aniqlang.
A) Toshkent bekligi B) uyg'ur qabilalari
C) qipchoqlar
D) Muhammad Aminxon

19. Amir Nasrulloning Qo'qon xonligiga qilgan ikkinchi yurishi nima sababdan muvaffaqiyatsiz tugadi?
A) Xiva xoni Ollohqulixonning Buxoroga qilgan yurishi
B) Qishning erta kelishi va amir qo'shinlarining yurishdan bosh tortishi
C) Qo'qon xonligiga Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlarning yordamga kelishi
D) Buxoroda amirga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon

20. Nechanchi yil Mingboshi Musulmonqul qo'shin bilan O'sh qo'zg'olonini bostirish uchun yuborildi?
A) 1853-yil B) 1842-yil
C) 1845-yil D) 1848-yil

21. Soliqlarning haddan tashqari ko'pligidan norozi bo'lgan O'sh aholisi qo'zg'olon ko'targan vaqtda (1845-yil) Namangan hokimi bo`lib turgan shaxsni aniqlang.
A) Murodxon B) Xudoyorxon
C) Sheralixon D) Musulmonqul

22. Xudoyorxon dastlab Qo'qon taxtiga o'tirguniga qadar qanday lavozimni egallagan?
A) Namangan shahri hokimi edi
B) Andijon shahri hokimi edi
C) poytaxtda harbiy tarbiya olayotgan edi
D) Marg'ilon shahri hokimi edi

23. 1852-yilda qipchoqlarning hukmronligiga xotima bergan Qo'qon xoni 13 yoshida qaysi shahar hokimi bo'lgan?
A) Andijonda B) Namanganda
C) Namanganda D) Ushda

24. Qo'qon xoni Sheralixon davrida davlatda muhim lavozimlarni egallab olgan qipchoqlar davlat ishlarida o'z hukmronligini o'tkazishiga va quyidagilardan qaysilarini mamalakat hayotidagi ta'sirini kamaytirish-ga urindi?
A) o'zbek, qirg'iz va tojiklarni
B) qozoqlarning Katta va Kichik juzlarini
C) ming urug`iga mansub xon avlodlarini
D) Chodak xojalari va sayyidlar avlodlarini

25.Musulmonqul Qo'qonga kelib, … -yilda o'z kuyovi … ni taxtga o'tqazadi?
A) 1842-yilda; Sulton Mahmudxonni
B) 1843-yilda; Sulton Murodbekni
C) 1845-yilda ; Xudoyorxonni
D) 1843-yilda ; Xudoyorxonni

26.Qo'qon xonligi tarixiga doir bir yilda sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.
A) Qo'qon xonligi taxtiga Xudoyorxon o'tqazildi; Rossiya qo'shinlari tomonidan Oqmasjid egallandi
B) Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olindi; Qo'qon xoni Olimxon fitnachilar tomonidan o'ldirildi
C) Amir Nasrullo o'z qo'shinlarini Qo'qonga qarshi safarbar etdi; Qo'qon xonligi hududida katta qo'zg'olon ko'tarildi
D) Amir Nasrullo tomonidan Qo'qon xonligi bosib olindi; qipchoqlardan bo'lgan Musulmonqul Amir Nasrullo tomonidan taxtga o'tqazildi

27.Buxoro amiri Nasrulloning Qo'qon xonligidagi noibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Hasan dodxoh B) Iskandar
C) Ibrohim dodxoh D) Musulmonqul

28.1845-yilda qaysi shahar aholisi soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qo'zg'olon ko'targan?
A) Isfara B) Ko'krev
C) O'sh D) Namangan

29.Musulmonqul o'z mavqeini yo'qotmaslik yo'lida ruslar bilan aloqa o'rnatishga intilib rus qo'mondonligi vakillaridan kim bilan maxfiy ravishda uchrashadi?
A) N.S.Mixaylov B) A.T.Besnosikov
C) V.V.Velyaminov-Zernov
D) A.V.Voskovoynikov

30. Qaysi javobda Qo'qon xonlarining hukmronlik davrlari to'g'ri ketma-ketlikda berilgan?
1) Muhammad Alixon; 2) Umarxon;
3) Olimxon; 4) Sheralixon.
A) 3, 2, 4, 1 B) 3, 2, 1, 4 C) 2, 3, 1, 4
D) 1, 3, 4, 2

31. Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.
1) Olimxon; 2) Erdonabiy; 3) Umarxon;
4) Norbo'tabiy
A) 1, 2, 3, 4 B) 4, 2, 1, 3
C) 1, 3, 2, 4 D) 2, 4, 1, 3

32. Qo'qon xonligida akasidan keyin o'tirgan hukmdorlarni aniqlang.
A) Abdukarimbiy, Umarxon, Sultonali Mahmud
B) Abdurahimbiy, Olimxon, Umarxon
C) Norbo`tabiy, Umarxon, Muhammad Ali
D) Umarxon, Sheralixon, Xudoyorxon

33. Eshimxon boshchiligida qoraqalpoqlar davlati tashkil topgan vaqtda Qo'qon hukmdori bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Olimxon B) Erdonabiy
C) Abdukarimbiy D) Shohruxbiy

34. Qoraqalpoqlarning Xiva xonligi zulmiga qarshi Oydo'stbiy boshchiligida qo'zg'oloni ko'tarilgan davrda Qo'qon xoni kim bo'lganligini aniqlang.
A) Xudoyorxon B) Olimxon C) Umarxon
D) Muhammad Ali

35.Qo'ng'irot qabilasining yo'lboshchisi Muhammad Amin inoqlik lavozimiga ko'tarilgan vaqtda Qo'qon xonligi taxtini boshqargan hukmdorni aniqlang.
A) Olimxon B) Abdukarimbiy
C) Erdonabiy D) Norbo'tabiy

36. Buyuk Britaniyaning "Ost-Indiya" kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini bosib olgan vaqtda Qo'qon xonligida hukmronlik qilib turgan shaxsni aniqlang.
A) Xudoyorxon B) Muhammad Alixon
C) Sheralixon D) Sulton Mahmudxon

37. Angliyaning "Ost-Indiya"kompaniyasi vakillari Ch.Stoddart va A.Konnoli Buxoro amiri tomonidan qatl ettirilgan vaqtda Qo'qon xoni kim edi?
A) Sheralixon B) Muhammad Alixon
C) Xudoyorxon D) Nasriddinbek

38. Xiva va Qo'qon taxtiga bir yilda kelgan hukdorlarni aniqlang.
A) Olloqulixon, Muhammad Ali
B) Muhammad Rahimxon I, Umarxon
C) Rahimqulixon, Sheralixon
D) Amuhammad Aminxon, Olimxon

**34- §. Qo'qon xonligida iqtisodiy hayo ti.**

1.Qo'qon xonligida asosiy qishloq xo'jaligi ekini nima bo'lgan ?
A) paxta B) bug'doy C) makkajo'xori
D) sholi

2. Chorvachilikda quyidagi qaysi o'simliklar yetakchi o'rinda turgan?
A) bug'doy va beda
B) makkajo'xori va bug'doy
C) makkajo'xori va beda D) arpa va tariq

3. Qo'qon xonligida yer egaligi munosabatlariga oid ma'lumotlar orasidan to'g'rilarını toping.
1) Qo'qon xonligida yer egaligining 3 ta shakli mavjud bo'lgan.
2) Xonlikda mulklar, asosan, 20 sotixdan 40 sotixgacha bo'lgan.
3) Xonlikda xon yerlarida ishlash uchun majburan safarbar etilganlar soni 10 ming nafargacha yetar edi va ular mardikorlar deb atalardi.
4) Xonlikda xususiy yerlarda yersiz, ot-ulovsiz kambag'allar hosilning 1/2 qişmi uchun yollanib ishlardi va ular korandalar deb atalardi
5) Xonlikda hosilning 1/4-1 2 qismi evaziga yerlarni ijaraga olib, o'z mehnat qurollari bilan yollanib ishlovchilar chorikorlar deb atalardi.
6) Xonlikda xususiy yer egalari shu yerdan olinadigan mahsulotga va shu yerda qurilgan imoratlarga egalik qilish bilan birgalikda yerning o'ziga ham egalik qilar edi.
A) 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 3, 4

4. Qo'qon xonligida xususiy yer egalari nima uchun aslida yerga emas, balki undan olinadigan mahsulot hamda shu yerlarda qurilgan imoratlarga egalik qilardilar?
A) yerga egalik qilish biroz cheklangan edi
B) yerlar faqat xon va wring atroBdagi saroy amaldorlariga tegishli edi
C) mamlakatdagi butun yerlar davlatniki edi
D) yer egaligini asosan Chodak xo'jalari boshqarar edi

5.Qo'qon xonligida hosilning 1/4 qismi uchun yollanib ishlovchi yersiz, ot-ulovsiz tabaqa ...
A) mardikorlar deb atalardi.
B) korandalar deb atalardi.
C) chorikorlar deb atalardi.
D) qo'shchilar deb atalardi.

6. Qo'qon xonligida ko'chmanchi xalqlardan qanaqa zakotlar olinardi?
A) "soliq", "chorva puli", "moli omon"
B) "ko'chuv puli", "qo'ra boshi", "xiroj"
C) "qo'ra boshi", "tutun haqi", "yig'im soliq"
D) "tutun haqi", "ulov puli", "yaylov haqi"

7. Qaysi javobda Qo'qon xonligidagi soliqlarga berilgan ta'riflar to'g'ri belgilangan?
1)"qo'raboshi"; 2)"tutun haqi"; 3)"yig'im soliq";
a) bahor kelganda yangi yaylovlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq; b) ko'chmanchi chorvadorlardan mol boshiga va qo'rasiga qarab. qishda mollar qo'ralarda turganida yig'ib olinadigan soliq; c) zakot to'lamaydigan boylar va ularning qarindoshlari bekka beradigan 9 buyumdan iborat in'omlar
A) 1-a, 2-b, 3-c B) 1-a, 2-c, 3-b
C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-c, 2-b, 3-a

8. Nima uchun Qo'qon xonligida mehnatkash xalq deyarli hamma narsa uchun soliq to'lar edi?
A) chunki, bu davlatda Buxoro xonligida mavjud bo'lgan barcha soliqlarning joriy etilishi tufayli
B) chunki, hamma qo'riq yerlar, chakalakzorlar, to'qaylar, daraxtzorlar, ko'llar, barcha yaylovlar xonning ixtiyorida edi
C) chunki, mehnatkash aholi o'z yerlari daxlsizligini ta'minlash maqsadida shunday qilishga majbur bo'lgan
D) chunki, bu davrda Qo'qon xonligining davlat xazinasi bo'shab qolgan edi

9. Qo'qon xonligining qaysi hududlaridan oltin ma'dani qazib olingan?
1) Ko'krev daryosi; 2)Oqdaryo sohili; 3) Kosonsoy; 4) Norin tumani; 5) Pomir tog'i; 6) Chirchiq daryosi bo'ylari; 7) Chotqol daryosi yuqori oqimi; 8) Oloy tog'i etagi.
A) 1, 2, 3, 8 B) 1, 3, 6, 7 C) 2, 4, 5, 8
D) 3, 5, 6, 7, 8

10.Qo'qon xonligida oltin ma'dani qazib olingan joy nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) Bobotog'ning shimoli
B) Zarafshon daryosi quyi oqimi
C) Qorasuvning janubi D) Ko'krev daryosi

11.Qo'qon shahrining Mo'yi muborak darvozasi bilan bog'liq javobni aniqlang.
A) uning qarshisida Mingoyim madrasasi bunyod etilgan
B) uning yaqinida Xudoyorxon saroyi joylashgan
C) uning orqasida qog'oz ishlab chiqaruvchi juvozxona joylashgan
D) bu yerdagi karvonsaroyda Musulmonqul rus qo'mondonligi vakili V. Velyaminov-Zernov bilan maxfiy tarzda, uchrashgan

12.Quyidagi qaysi hudud bilan olib borilgan savdo-sotiq faqat Qo'qon orqali bo'lar edi?
A) Qashqar B) Eron C) Hindiston
D) Afg'oniston

## 35- §. Qo'qon xonligi shaharlari.

1.Qo'qon xonligida katta shaharlar hokimligiga kimlar tayinlanar edi?
A) shaharning eng boy va obro'-etiborli amaldorlari
B) xonlikdagi yirik qabila boshliqlari
C) xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari
D) xon oldidagi xizmatlari evaziga loyiq deb topilgan amaldorlar

2.Ma'lumotlarda qaysi shaharni nomi „go'zal", „yoqimli", „xushmanzara", „shamol shahri" degan ma'noni anglatadi?
A) Qo'qon B) Namangan C) Marg'ilon
D) Andijon

3. Tarixiy manbalarda Qo'qonga oid ma'lumotlar nechanchi asrdan boshlab uchraydi?
A) V asr B) IX asr
C) X asr D) XV asr

4. Qo'qon shahrining darvozalari nima sababdan 12 tani tashkil etgan?
A) shaharga 12 ta ariqdan suv kirishi sababli
B) shahardan 12 ta savdo yo'lining o'tganligi sababli
C) shaharning ma'muriy jihatdan 12 ta dahaga bo'linganligi sababli
D) shahar aholisi 12 ta o'zbek urug'idan iborat bo'lganligi sababli

5.XIX asr o'rtalarida Qo'qondagi madrasalar ichida qaysi madrasalari alohida ajralib turadi?
A) Madrasayi Miyon hazrat, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Hakim To'ra
B) Madrasayi Tunqotar, Madrasayi Haqquli mingboshi. Madrasayi Xonxoja eshon
C) Norbo'tabiy madrasasi, Madalixon madrasasi. Madrasayi Kamol qozi
D) Madalixon, Norbo'tabek, Jome, Hojimoyim, Xoja dodxoh, Mingoyim

6.Quyidagi qaysi shaharga bundan 2000 yil avval asos solingan?
A) Marg'ilon B) Shahrisabz C) Andijon
D) Kesh

7. Olimlar qaysi shaharning nomini „Maysazor", „O'tzor" degan m a'noni anglatadi, deb taxmin qiladilar?
A) Marg'ilon B) Shahrisabz C) Andijon
D) Kesh

8. "Boburnoma" asarida Marg'ilon Farg'onadagi nechta shaharning biri ekanligi haqida so'z yuritilgan?
A) 7 ta B) 8 ta C) 9 ta D) 10 ta

9."Boburnoma" da quyidagi qaysi shaharning „donayi kalon" deb ataluvchi anori va „subhoniy" navli o'rigi maqtalgan?
A) Marg'ilon B) Andijon C) Qo'qon
D) Toshkent

10. Marg'ilon shahrida hunarmandchilikning qaysi turi nihoyatda rivojlangan?
A) ipak ishlab chiqarish B) atlas to'qish
C) kulolchilik D) pillachilik

11.Qachon Marg'ilon shahrining 2000 yilligi nishonlangan?
A) 2002-yilda B) 2007-yilda
C) 2009-yilda D) 1997-yilda

12.Zahriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" da "Oshligi vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur" deb qaysi shahar haqida ma'lumot bergan?
A) Andijon B) Qobul
C) Agra D) Samarqand

13. XV asrdan boshlab Farg'ona vodiysining markazi bo'lgan shaharni aniqlang.
A) Marg'ilon B) Andijon
C) Qo'qon D) Axsikat

14. "Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo`rg`onidin, so`ngra mundin ulug`roq qo`rg`on yo`qtur". Ushbu ta'rif qaysi o`rta asr shahri haqida?
A) Toshkent B) Buxoro C) Termiz
D) Andijon

15. Boburning "Boburnoma" asarida yozilishicha Andijon shahrining nechta darvozasi bo'lgan?
A) 9 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 7 ta

16. Andijon shahri XVI asrdan boshlab Farg`ona vodiysining markazi bo`lganligini bilasiz. U qaysi davrdan boshlab o`zining avvalgi mavqeini yo`qotganligini aniqlang.
A) Ashtarxoniylar hukmronligi davridan boshlab
B) Qo`qon xonligi tashkil topgan davrdan boshlab
C) Toshkent shahri Qo`qon xonligiga qo`shib olingan davrdan boshlab
D) Qo`qon xonligi Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingan davrdan boshlab

17.XVIII asrda Namangan shahri ...
A) baland devor bilan o'rab olingan
B) Qo'qon xonligi hududiga kirgan
C) Toshkent bekligi tomonidan bosib olingan
D) Qattiq zilzila oqibatida vayron bo'lgan

18.Qo'qon xonligida Yangiariq kanali nechanchi yillarda qazilgan?
A) 1842-1845-yillar B) 1819-1823-yillar
C) 1837-1839-yillar D) 1819-1822-yillar

19. 1842-1845-yillarda Qo'qon xonligidagi qaysi shahar baland devor bilan o'rab olingan?
A) Marg'ilon B) Andijon C) Qo'qon
D) Namangan

20. Quyidagi Qo'qon xonligi shahrlariga oid tariflarning qaysi biri xato berilgan?
A) Andijon shahri XV asrdan boshlab Farg'ona vodiysining markazi bo'lgan
B) Namangan shahrining nomi manbalarda XVII asrdan boshlab uchraydi
C) Sulton Murodbek saroyi Marg'ilon shahrida joylashgan
D) 1842-1845 yillarda Andijon shahri baland devor bilan o'rab olingan

21. 2009-yilda Respublikamizda 2200 yilligi nishonlangan shaharni ko'rsating.
A) Marg'ilon B) Urganch C) Toshkent
D) Shahrisabz

22. Toshkent qadimda ...nomlari bilan atalib kelingan shahar?
1) Tosh; 2) Choch; 3) Shosh; 4) Tunkat; 5) Binkat; 6) Pishpak .
A) 1,2,4 B) 2,3,5 C) 1,4,6 D) 2,4,5

23. Qachondan boshlab Toshkent shahri hozirgi nomi bilan atala boshladi?
A) X asrdan B) XI asrdan C) XII asrdan
D) XV asrdan

24 Toshkent necha yil ko'chmanchi jung'orlarga qaram bo'l'gan?
A) 18 yil B) 25 yil C) 30 yil D) 35 yil

25.Qaysi davrda shayx Zayniddin bobo xotirasi uchun yangi maqbara bunyod etilgan?
A)Ashtarxoniylar davrida
B)Shayboniylar davrida
C)Toshkent hokimligi davrida
D)Qo'qon xonligi davrida

26. Quyidagi qaysi me'moriy obida XVI asrda shahardagi kata bunyodkorlik ishlari natijasida qurilgan?
1) Baroqxon; 2) shayx Zayniddin bobo maqbarasi; 3) Mo'yi Muborak;
4) Ko'kaldosh; 5)Shoshiy maqbarasi;
A) 1,3 B) 2,3 C) 3,5 D) 1,4

27. Toshkent nima sababdan hunarmandchilikning turli sohalari yuksak darajada rivojlangan?
A) Buyuk Ipak yo'li ustida joylashganligi tufayli
B) xalqaro savdo yo'li chorrahasida joylashgani tufayli
C) savdo qilish qulay bo'lgan yerda joylashgani tufayli
D) hunarmandchilik xomashyolariga boy bo'laganl;igi sababli

28.Toshkent shahri hayotining markazi … bo'lgan?
A) hunarmandchilik mavzelari B) Chorsu
C) oqsoqollar kengashi binosi
D) pilla sotiluvchi asosiy bozor

29. Toshkent shahri qaysi asrdan boshlab hozirgi nomi bilan atala boshladi?
A) IX asrdan B) X asrdan C) XI asrdan
D) VIII asrdan

30. 1723-yilda Toshkentni ko'chmanchi jung'orlar egallab oladi va bu qaramlik qachongacha davom etadi?
A) 1785-yilgacha B) 1784-yilgacha
C) 1756-yilgacha D) 1758-yilgacha

## 36- §. Qo'qon xonligida madaniy hayoti.

1.XVIII-XIX asrning 1-yarmida Qo'qonda … maktab, … madrasa va masjid, Marg'ilonda … maktab, …madrasa va masjidning faoliyat yuritgan.
A) 40 ta, 120 ta, 80 ta, 10 ta
B) 80 ta, 40 ta, 120 ta, 10 ta
C) 120 ta, 80 ta, 40 ta, 10 ta
D) 120 ta, 40 ta, 80 ta, 10 ta

2. Quyidagi qaysi shaxsning sayi-harakatlari natijasida XIX asr boshlarida Qo'qonda o'ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga kelgan?
A) Umarxon B) Xudoyorxon
C) Muhammad Alixon D) Shohruxbiy

3. O'zbek shoirasi, ma'rifatparvar davlat arbobi Nodira kimlarning g'azallariga muxammaslar yozgan?
1)Maqtumquli; 2)Mashrab; 3)Bedil;
4)Fuzuliy; 5) Mirzo Latif; 6) Navoyi;
7)Jomiy.
A) 5,6,7 B) 2,3,4 C) 3,4,6 D) 1,4,6

4. Qo'qon xonligida qachon ilm-ma'rifat olamida mashhur ijodkorlar yetishib chiqqan?
A) XVII-XIX asr o'rtalarida
B) XVIII-XIX asr boshlarida
C) XVIII-XIX asr oxirlarida
D) XVIII-XIX asr birinchi yarmida

5. Amiriyning g'azallar devoni 1882-yilda qayerda nashr qilingan?
A) Istanbulda B) Bombeyda
C) Toshkentda D) Anqarada

6. Maxmur Qo'qondagi qaysi madrasada o'qigan?
A) Madrasai Oxund devonbegi
B) Madrasai Jome
C) Madrasai Mohlaroyim D) Madrasai Mir

7. Muhammad Sharif Gulxaniy qachon va qayerda tavallud topgan?
A) 1770-yil Tavildara tumanida
B) 1778-yil Oloy tumanida
C) 1781-yil O'sh viloyatida
D) 1783-yil Rishton tumanida

8. "Zarbulmasal" asariga kirgan masallarni aniqlang.
A) "Tulki bilan Qarg'a", "Ayiq bilan Bola", "Ilon va Qarg'a"
B) "Maymun va Najjor", "Tuya bilan Bo'taloq", "Toshbaqa bilan Chayon"
C) "Muymun bilan Butaloq", "Ilon bilan Chayon", "Bo'ri bilan Qo'zichoq"
D) "Tulki bilan Qarg'a", "Maymun va Najjor", "Ilon bilan Chayon"

9. Qo'qon adabiy muhitining shakllanishiga o'zining benihoya kata hissasini qo'shgan Jahon otin Uvaysiy qaysi yillarda yashab ijod qilgan?
A) 1779-1845-yillar B) 1780-1841-yillar
C) 1780-1845-yillar D) 1778-1843-yillar

10. Quyidagi misralar kimning she'ridan olingan?
*Bu na gumbazdir, eshigi, tuynigidan yo'q nishon,*
*Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur makon.*
*Tuynigin ochib, alarning holidan olsam xabar,*
*Yuzlarida parda tortug'liq tururlar, bag'riqon.*
A) Nodira B) Uvaysiy C) Maxmur
D) Gulxaniy

11. Uvaysiydan bizga qolgan adabiy meros...
A) 4 ta lirik devon, 3 ta doston
B) 10 ta lirik devon, 19 ta muhammas
C) 5 ta devon, 12 ta katta devon
D) 33 ta muhammas, 180 ta she'r

12.Olimxon hukmronligi davrida Andijon hokimi bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Umarxon B) Muhammad Alixon
C) Rahmonqulibiy D) Musulmonqul

13. Amir Umarxon nechanchi yillarda Marg'ilon hokimi bo'lgan edi?
A) 1802-1810 yy. B) 1806-1807yy.
C) 1809-1810 yy. D) 1801-1805 yy.

14.Qachondan boshlab Qo'qon shahri ilm-ma'rifat markaziga aylandi?
A) XVIII asr oxirlarida
B) XIX asr boshlarida
C) XIX asr o'rtalarida
D) XIX asr oxirlarida

15. Nodirabegimning Maknuna taxallusida yozilgan g'azallari miqdorini aniqlang.
A) 180 ta B) 333 ta C) 232 ta D) 19 ta

16.Nodirabegim kimlarning g'azallariga muhammaslar yozganligini aniqlang.
A) Jomiy, Navoiy, Bunoiy
B) Navoiy, Mashrab, Hofiz
C) Lufiy,Jomiy,Navoiy
D) Fuzuliy, Navoiy, Bedil

17. Qo'qondagi Madrasayi Mirda o'qib, keyinchalik qo'shinga sipohlik qilgan shoirni aniqlang.
A) Gulxaniy B) Muxsim C) Maxmur
D) Fazliy Namangoniy

18. O'zbek adabiyotida poeziyaga masalni mustaqil janr sifatida birinchi bo'lib kiritgan ijodkorning butun sharq adabiyotida mashhur hisoblangan asarini toping.
A) "Majmuayi shoiron"
B) "Devoni Mashrab"
C) "Zarbulmasal" D) "Hapalak"

19. Boborahim Mashrab necha yoshidan boshlab tasavvuf ilmi bilan shug'ullana boshlagan?
A) 18 yosh B) 7 yosh C) 15 yosh
D) 13 yosh

20. 1711-yil g'animlarning ig'vosi bilan Balx hokimi tomonidan o'limga hukm etilgan shoirni aniqlang.
A) Boborahim Mashrab B) Mahmur
C) Avaz O'tar D) Uvaysiy

21. *Dili tig'i sitamdin pora bo'lg'on xalqni ko'rdim,Tani dardu alamdin yora bo'lg'on xalqni ko'rdim.*
Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub.
A) Maxmur B) Gulxaniy C) Mashrab
D) Turdi Farog'iy

### 37- §. Tarixnavislik, san'at va me'morchilik.

1.Amir Umarxonning topshirig'i bilan "Umarnoma" dostonini yozgan tarixchi nomini ko'rsating.
A) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy
B) Abdulkarim Fazliy Namangoniy
C) Mirzo Qalandar mushrif Isfarangiy
D) Mulla Ali qori Qunduziy

2. Quyidagi asarlardan qaysi biri Abdul-karim Fazliy Namangoniy qalamiga mansub?
A) "Shohnomai Umarxon"
B) "Muntaxab ut-tavorix"
C) "Tavorixi manzuma"
D) "Majmuayi shoiron"

3. Quyida nomlari keltirilgan hukmdorlarning qaysi birlari ijodkor ahliga ma'lum asarlar yozish to'g'risida topshiriqlar berishgan?
A) Asfandiyorxon, Umarxon, Olimxon
B) Elto'zarxon, Imomqulixon, Umarxon
C) Elto'zarxon, Asfandiyorxon, Umarxon
D) Asfandiyorxon , Imomqulixon, Olimxon

4.Quyidagi qaysi tarixiy asar Amir Umarxon-ning maslahati bilan xon saroyida qoziaskar lavozimida ishlagan Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy tomonidan yozilgan?
A) "Shohnomayi nusratpayom"
B) "Tarixi Umarxoniy"
C) "Tarixi jahonnomayi"
D) "Tarixi Shohruxiy"

5. "G'alabadan xabar beruvchi shohnoma" asarining muallifini toping.
A) Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxon
B) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy
C) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy
D) Mulla Ali qori Qunduziy

6. Umarxon davridan 1872-yilgacha bo'lgan Qo'qon xonligi tarixi quyidagi qaysi asarda bayon etilgan?
A) Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxonning "Muntaxab ut-tavoxiriy" asarida
B) Junayd Mull a Avaz Muhammad Mulla Ro'zimuhamad o'g'lining "Tarixi jahonnomayi" asarida
C) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiyning "Shohnomayi nusratpayom" asarida
D) Mulla Ali Qori Qunduziyning "Tavoxiri manzuma" asarida

7. Quyidagi qaysi asarda Qo'qon xonligining Umarxon davridan 1872-yilgacha bo'lgan tarixi bayon etilgan?
A) Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimuha-mad o'g'lining "Tarixi jahonnomayi" asarida
B) Mulla Ali Qori Qunduziyning "Tavoxiri manzuma" asarida
C) Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sum-xonning "Muntaxab ut-tavoxiriy" asarida
D) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiyning "Shoh-nomayi" nusratpayom" asarida

8. Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxon "Saralangan tarixlar" asarini qaysi shaharda yozgan?
A) Balxda B) Shahrisabzda C) Samarqandda
D) Buxoroda

9. Quyidagi asarlarning qaysi birida Qo'qon xonligining Umarxon davridan 1872-yilgacha bo'lgan tarixi bayon etilgan?
A) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiyning "Shohno-mayi nusratpayom" asarida
B) Mulla Ali Qori Qunduziyning "Tavoxiri manzuma" asarida
C) Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sum-xonning "Muntaxab ut-tavoxiriy" asarida
D) Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimu-hamad o'g'lining "Tarixi jahonnomayi" asarida

10.Qaysi javobda quyidagi tarixiy asarlarning mualliflari to'g'ri ko'rsatilgan?
1) "Muntahab ut-tavorix"; 2) "Tarixi Shohruxiy"; 3) "Tarixi jahonnomayi"; 4) "Tavorixi manzuma";
a) Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimuhammad o'g'li; b) Mulla Ali qori Qunduziy; c) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy; d) Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxon
A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b B) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c
C) 1-d, 2-c, 3-a, 4-b D) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d

11. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi tarixiga doir muhim manbalardan biri hisoblangan tarixiy asar va uning muallifini aniqlang.
A) "Tarixi jahonnomayi", Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimuhammad o'g'li
B) "Tarixi jadidayi Toshkand", Muhammad Solih
C) "Tavorixi Manzuma", Mulla Ali qori Qunduziy
D) "Muntaxab ut-tavorix", Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxon

12. Quyidagi qaysi asar 1822-1848-yillar tarixi haqida ma'lumot beradi?
A) "Tarixi muhojiron"
B) "Tavorixi manzuma"
C) "Tarixi jahonnamoy"
D) "Muntaxab ut-tavorix"

13. Dilshodi Barno qalamiga mansub asar qaysi?
A) Majmuayi shoiron B) Tarixi muhojiron
C) Tarixi jahonnomayi
D) Tavorixi manzuma

14. Quyidagi asarlardan qaysi biri XV-XIX asrlar Turkiston tarixi, jumladan Toshkent tarixi, Qo'qon xonligi tarixi ilmiy nuqtai nazardan yozilgan qimmatli asar hisoblanadi?
A) "Saralangan tarixlar"
B) "Tarixi Muhojiron"
C) "Tarixi Shohruxiy"
D) "Tarixi Jadidayi Toshkand"

15. Qo'qon xonligida me'morchilik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?
1) Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abulg'oziy-xo'ja kabi me'morlar o'zlari bunyod etgan inshoatlari bilan mashhur bo'lgan va ular xattotlik san'ati namunalari bilan bezatilgan.
2) Norbo'tabiy madrasasi XVIII-asrning o'rtalarida bunyod etilgan.
3) Daxmayi Shohon maqbarasi XIX asrning 1-choragida qurilgan.
4) Umarxon Turkiston va uning atroflarini Orolbo'yi-dan Yettisuvgacha egallab, Avliyoota, Pishpak, Oqmachit qal'alarini bunyod etdi
5) Daxmayi Shohonda xonning otasiga atab qurilgan Modarixon maqbarasi ham joylashgan.
A) 3,4 B) 1,2,4 C) 1,3,5 D) 2,5

16. Qo'qonda faoliyat ko'rsatgan Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abulg'oziyxojalar qaysi kasb egalari bo'lgan?
A) usta-me'mor B) shoir C) xattot D) tabib

17. Qo'qon xattotlik san'atining qaysi namoyondalari kitob ko'chrish borasida o'zlari amalga oshirgan xayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi:
A) Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abulg'oziyxoja
B) Muhammad Latif, Muhammad Yusuf, Abulg'ozi
C) Muhammnad Latif, Mirzo Qalandar, Mirzo Sharif Dabir
D) Mulla Ali qori Qunduziy, Mirzo Qalandar, Muhammad Hakimxon

18. XVIII-XIX asrlarda Qo'qon xonligida xorij mamlakatlari shohlari uchun elchilariga nimalar tortiq qilish odatga aylangan?
A) nafis ko'chirilgan kitoblar
B) sopoldan yasalgan sirlangan ko'zalar
C) fil suyagidan ishlangan haykallar
D) minyatura rasmlari tushirilgan qutichalar

19. Qaysi javobda avvalgi Qo'qon xonligiga qarashli Avliyo ota qal'asining hozirgi nomi keltirilgan?
A) Astana B) Almati
C) Bishkek D) Jambul

20. Umarxon Tarkiston va uning atroflarini, Oroldan Yettisuvgacha egallab olgan hududlarda barpo etgan qal'alarni aniqlang?
A) Avliyoota, Pishpak B) So'zoq, Kopal
C) Raim, O'zgan D) Darboz, Qorategin

21.. Qo'qon xonligida Madrasai Mir nomi bilan mashhur bo'lgan madrasani toping,
A) Norbo'tabiy madrasasi
B) Madalixon madrasasi
C) Pirmuhammad yasovul madrasasi
D) Mingoyim madrasasi

22. Norbo'tabiy madrasasi qachon bunyod etilgan?
A) XVIII asr oxirlarida
B) XIX asr boshlarida
C) XIX asr o'rtalarida
D) XIX asr oxirlarida

23. Daxmayi Shohon (shohlar maqbarasi) qachon qurilgan?
A) XIX asrning birinchi choragida
B) XIX asrning oxirgi choragida
C) XIX asr o'rtalarida
D) XX asr boshlarida

24. Qaysi madrasani xon o'z onasiga atab qurgan?
A) Baroqxon madrasasini
B) Norbo'tabiy madrasasini
C) Mo'yi Muborak madrasasini
D) Modarixon madrasasini

25. Modarixon madrasasi quyidagi qaysi maqbara tarkibiga kiradi?
A) Norbo'tabiy maqqbarasi
B) shayx Zayniddin bobo maqbarasi
C)Kaffol Shoshiy maqbarasi
D) Dahmayi Shohon maqbarasi

26. Norbo'tabiy madrasasiga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) XVIII asr oxirida bunyod etilgan; 2) XIX asr I choragida bunyod etilgan; 3) to'g'ri burchakli, bir qavatli va 4 minorali obida; 4) hovlisi va hovli atrofida peshayvonli hujralar mavjud; 5) aylana shaklida qurilgan bo'lib, atrofida 4 ta minora qad rostlagan
A) 2, 3, 4 B) 2, 4, 5 C) 1, 4, 5 D) 1, 3, 4

27 XIX asrning I yarmida Toshkentda muhtasham me'moriy inshoatlar qurilib, eskilarini ta'mirlash ishlari olib borildi. Maskur ishlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1)Kamol qozi, Tunqator, Hakim To'ra jome' masjid-lari qurildi; 2)Shayx Xovandi Tohur me'morchilik majmuasi hozirgi ko'rinishda shakllantirildi; 3)Zaynid-din Bobo uchun yangi maqbara qad ko'tarishdi; 4)Ko'kaldosh madrasasi bunyod etildi; 5)Baroqxon madrasasi qayta ta'mirlandi; 6)Qo'qon O'rdasi bunyod etildi.
A) 3,4,5,6 B) 1,2,4,5
C) 2,3,5,6 D) 1,3,4,6

28.Toshkentda Zayniddin bobo uchun yangi maqbara qachon qad ko'targan?
A) XIX asrning I yarmida B) XX asr oxirida
C) XIX asr oxirida D) XX asr o'rtalarida

## VIII-bob. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING XALQARO MUNOSABATLARI38- §. XVI—XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar.

1.Shayboniylar davrida Buxoro va Eron munosabatlari to'qnashgan asosiy nuqtani aniqlang.
A) Samarqand B) Ko'histon
C) Xuroson D) Hirot

2. XVI asr boshlarida Osiyo qit`asida maydonga kelgan uch siyosiy guruhni aniqlang?
A) shayboniylar, boburiylar, guptalar
B) Yan Sin sulolasi, guptalar, safaviylar
C) Tan sulolasi, shayboniylar,safaviylar
D) shayboniylar, saffaviylar, boburiylar

3. Shayboniylar davrida Buxoro va Eron munosabatlari to'qnashgan asosiy nuqtani aniqlang.
A) Samarqand B) Ko'histon C) Xuroson
D) Hirot

4. O'z davrida Movarounnahr, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini o'tagan hududni aniqlang.
A) Chag'oniyon B) Balx
C) Xuroson D) Baqtriya

5. Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan.Bu masalada qaysi xonlar davrida shayboniylar ustunlik qilganlar?
A) Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxonlar
B) Muhammad Shayboniyxon, Ko`chkinchixon va Ubaydullaxon
C) Ubaydullaxon, Abdulazizxon va Abdullaxonlar
D) Ko`chkinchixon, Ubaydullaxon va Abdullaxonlar

6. Buxoro xonligidan Hindistonga qaysi boburiy hukmdor davrida to'rt marta elchilar borgan?
A) Avrangzeb B) Akbarshoh
C) Jahongir D) Shoh Jahon

7. Hindiston hukmdori Shohjahon davrida Hindiston-Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan bo'lib, bu nima bilan bog'liq?
A) Hindiston savdogarlarining erkin savdo qilish imkoni yo'qligi va ularning buxorolik qaroqchilar tomonidan talon-taroj qilinishi bilan bog'liq
B) Buxoro xoni Nodirmuhammad va uning o'g'li Abdullaziz o'rtasida yuz bergan nizo bilan bog'liq
C) Hindiston bilan Afg'oniston o'rtasida kelishmovchiliklarda Buxoroning Afg'oniston tomonida turishi bilan bog'liq
D) Buxoro hukmdorining Hindiston hukmdori bilan o'zaro quda-andachilik aloqalari o'rnatish taklifini rad etishi bilan bog'liq

8. Qaysi boburiy hukmdor davrida Hindiston-Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan?
A) Humoyun B) Shohjahon C) Avrangzeb
D) Akbarshoh

9. Hindiston hukmdori Avrangzeb Olamgir bilan elchilik munosabatlarini olib borgan Buxoro hukmdorini toping.
A) Mahmud Sulton B) Imomqulixon
C) Subhonqulixon D) Nodirmuhammadxon

10. Avranzeb Olamgir hukmronlik qilgan davrda Buxoro taxtini boshqargan hukmdorlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
A) Abdulazizxon, Subhonqulixon, Ubaydullaxon II
B) Nodir Muhammad, Abdulazizxon, Subhonqulixon
C) Imomqulixon, Nodir Muhammadxon, Abdulazizxon
D) Ubaydullaxon, Abulfayzxon

11. Quyidagi Boburiy hukmndorlarini Buxoro xonlari bilan elchilik munosabatlarini o'rnatganliklarini mos ravishda to'g'ri ko'rsating.
1) Akbarshoh; 2) Jahongir; 3) Avrangzeb
a) Abdullaxon II; b) Boqimuhammad;
c) Imomqulixon; d) Nodir Muhammad;
e) Abdulazizxon;
A) 1-a, 2-c, 3-d B) 1-a, 2-c, 3-e
C) 1-b, 2-c, 3-d D) 1-a, 2-d, 3-e

12. Mustaqil Afg'oniston davlati qachon tashkil topgan?
A) 1746-y. B) 1748-y. C) 1749-y. D) 1747-y.

13. Afg'oniston bilan Buxoro xonligi o'rtasida munosabatlar do'stona bo'lmagan. Bunga sabab nima edi?
A) Amudaryoning janubiy qirg'og'ida mahalliy o'zbeklar istiqomat qilib turgan hududlarni o'z tasarrufida saqlashga urinishlari sabab bo'lgan
B) o'sha kezlardagi Afg'oniston hukmdori Ahmadshohning yo'l qo'ygan diplomatik xatolari
C) Buxoro xonligining mustaqil Afg'oniston davlatini qabul qila olmaganhgi
D) Afg'onistonning Buxoro xonhgiga qarshi Eron shohlari bilan olib borgan aloqalari

14. XVIII asr o'rtalarida Buxoro xonligi va Afg'oniston o'rtasidagi ziddiyatlarning sababi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
